

Uchinchi Qism

Birinchi bob

1

Mahmud saharbardonda g'ala-g'ovur va tuyayu otlarni pishqirishidan uyg'onib ketdi. Chog'i, karvonsaroyga yangi qo'noqlar kelgan edi. U qaytib uxlolmadi. Anchagacha tashqaridan kelayotgan baqir-chaqiru to'polonlarga beixtiyor quloq tutib, shiftga termulganicha yotdi. Yotarkan, ko'z qorachig'lari kengaydi va karvonsaroy hujrasining to'rtburchak bolorlari o'rnida asta-sekin sabzarang og'ochzor hamda uning ustida niliy (och ko'k) osmon paydo bo'ldi. Ularning, ya'ni Rayhona ikkisining ko'zlari ana o'sha go'zal ma'voga tikilgandi. Ikkisi rasadxona ortidagi tog'ning og'ochzori adog'ida o'ltirardilar.

-Nechuk kecha tunda chiqmading? Oy seni so'roqladi, Rayhon! -Mahmud qizning nigohini tutishga urinib, ko'zlarini uning yuzi uzra yugurtirdi. Eti qizib, bo'g'zida olov yondi. Ammo bu huzurbaxsh olov edi.

Qizga yigitning so'zlari xush yoqdi. Oy meni so'roqlagan emish, dedi ichida, yuziga tabassum yoyilib. O'zi ilmsiz, xat-savobsiz esa-da, qalbi ziyolig' ko'rinadur. Tuzuk, shundayin chiroyli gaplarni topadur. Voh, qizgina-ya, bilmasmisanki, muhabbat tillarni biyron etadur.

-Otamdan istihola etdim.-dedi Rayhona so'z ohangi ila yigit ko'nglini siylashga urinib,- Qiz nimarsa tunda daydib yursa bo'lmas. Ma'quli, mana shundoq peshin hordig'i mahali yo'liqvimizdir. Tevarakda kimsa yo'q.

-Mening sening vaslingni so'rmoqqa zorim bor xolos, Rayhon. -Mahmud yelkasi ila qizginaning yelkasiga beozor turtidi-da, so'zini mutoyibaga qorishtirdi. -Tag'inki sen sohibi matbahning, ya'niki borki yemaklarning jojasi-bosh tabboshning tanho qizi bo'lsang. Men esa bor-yo'g'i no'noq bir sangtaroshmen.

Qiz zo'raki araz qildi.

-Taqi kuladursizmi? Mazxara ham evi bilan-da, og'a! Siz ham kam emassiz-kimsan, Umar Xayyom hazratlarining suyuqli inisisiz, og'oyi.

Yigitga uning "og'oyi" degani yoqib tushdi-bunchayam tili shirin bo'lmasa-ya

-Hazillashdim, Rayhon.-dedi u shoshib, qizni xafa qilib qo'yishdan qo'rqib.

Jim qoldilar. Ikkisining ham xayollarini bir umid olib qochdi.

-Nechuk jim qoldingiz? -deya so'radi qiz kutgani o'shal mujda ilinjida.

-Ikkimizni o'ylaydurmen, jonim! -Yigit buni o'rtanib aytdi.

Qiz esa mutaassir bo'lib, olandi.

-Hademay xojam Xayyom hazratlariga ayturmen. Otangdan men uchun sening izningni so'raydur. -Mahmud qizning titroq ilkinini tutdi.-Ul zotning ra'yini qaytarmas otang?..

-Inshoolloh!.. -deb yubordi qiz beixtiyor va battar qizardi.

Yigit uni quchib olmoqni istadi.

-Keyin biz... -Rayhon shodon kayfiyatda Mahmudga o'grildi. -Keyin ham rasadxonada yash'ayveramiz. Bu yerda yaxshi kishilar ko'p.

-Ha!..

-Men sizga o'qib-yozmoqni o'rgatamen.

-Keyin arslonday o'g'il tug'ib berursen!..

Qiz yuzini yashirdi.

-Aynimaygina qoling!..

Narigi tomonda taraq-turuq boshlandi -quruvchilar ishga tushdilar...

Mahmud tashqaridagi qattiq taqirlashdan o'ziga keldi va ko'z oldida taqi to'rtburchak bolorlar paydo bo'ldi. Qandayin shodumon edilar-a o'shanda! Qaylardasen sho'rlikkinam, Rayhon?! Endi bu kabi so'ngsiz, adadsiz uchrashuvlar qachon nasib etadur, jonim?! Yigitning ko'zlariga yosh sizdi...

Mahmud Rayhonning g'oyib bo'lganidan xabar topgan kuni kechasi to tonggacha mijja qoqmadi. Ma'suma suyuqliksining noayon taqdirini o'ylab, yetdim deganda ters o'girilib olgan baxtining g'animat ekanligini endi-endi payqaganidan chinakamiga oromsiz bo'ldi. Avvaliga bu ko'rgilikni shunchaki anglashilmovchilikka, qo'pol bir mutoyibaga yo'ymoqni istab, Rayhonaning "Men buyoqdamen", deya kulib kirib kelmog'ini kutdi. Biroq hadeganda yori kirib kelavermadi. Keyin xojasi Umar Xayyomning mehridan va o'sha mehr tufayli qizni tezlikda topib bermog'idan, lozim bo'lsa, bu yo'lda vaziri a'zamu sulton hazratlarini ham ishga sola olmog'idan umidlandi. Filhaqiqat, xojasining ilki daroz edi. Ammo bu ham ko'mak berolmadi, jarohatiga malham bo'lolmadi. Xayyom vaziri a'zam huzuridan noumid qaytdi. Yo'q- yo'q, undan ilgariroq boshqa bir voqea ro'y berdi. Rayhona yo'qolgan kunning ertasiga qurilish maydonida ulkan xarsangtoshga suyangancha parishon ahvolda o'ltirgan sangtarosh Mahmudning yoniga jandapo'sh kiygan bir darvish-qalandar keldi. Bu kabi jahriy zikr sohiblarining "huvvo-huv"lariga ko'p bora yo'liqib turilgani bois birov unga e'tibor qilmadi. U Mahmudning qarshisiga keldi-yu nigohini o'siq sochlari ostiga yashirib, pichirladi:

-Mahmud otlig' sangtarosh senmusen?

Ne bo'layotganligini anglamagan yigit "ha" dedi sekingina.

-Suyganingni ko'rmoqlikni istarmusen?

Mahmud irg'ib o'rnidan turib, darvishning yoqasidan olmoq istadi.

-Aqlsizlik qilma!-dedi darvish keskin. -Aks holda yoringdan ayrilib qolursen. Ma'quli quloq tut: Qazvinga borursen va eng katta karvonsaroyning xojasiga yo'liqursen. Unga "Oллоh yarlaqagan Alidan salom" dersen. Bilib qo'y, bu gapni so'zma-so'z aytursen. Bu do'stlarning dil qulfiga kalitdur. U murodingga yetkazur.

Mahmud ixtiyorsiz ravishda darvishga itoat eta boshlagandi:

-Birovga sas chiqara ko'rma, yoring zavol topur!.. Yo Olloh-hu-yo Olloh!..-Darvish ohista qadamlar ila nari ketdi.

Mahmud Rayhonaning hayoti xatarda ekanligini, Qazvin sari safarga chiqmoqdan o'zga chora yo'qligini fahmladi. Biron kimsadan najot yo'q edi. Ollohga tavakkul aylab, yo'lga o'tlanmoq lozim. Uning dardi ichida qoldi, ikki kundan so'ng rasadxonani pinhona tark etdi...

Yo'l azobini go'r azobiga qiyos etib xo'b aytmishlar. Ming bir zahmatu xo'rlanishlar iskanjasida ozib-to'zg'igan, soch-soqoli o'sgan kir-chir Mahmud vanihoyat Qazvinga yetib keldi. O'zga hech bir go'shaga qayrilmay to'ppa-to'g'ri darvish aytdi karvonsaroyga bordi. Soqoli pahmoq, so'l ko'ziga oq tushgan novcha sohibi karvonsaroy uni xushlamay, pisandsiz tarzda qarshi oldi. Hattoki "Oллоh yarlaqagan Alidan salom" degach ham tund basharasi ochilmadi. Biroq indamay ortiga qayrildi-da, uni ham ichkariga

boshladi. Bir hujraning eshigini ochib, "kir" deya imladi va qo'shib qo'ydi:

-Hordiq ol. Hozir yemak keltirurlar. Avvali sartaroshga kirib, so'ng yuvinib ol. U shunday deya hujra o'rtasidagi xontaxta ustiga bir necha kumush tanga tashladi.

Karvonsaroy sohibining xafsalsiz harakatlari uning bu kabi yumushlarni ko'p bora ado etganligidan darak berardi. Mahmud esa oldiniga uni darrov so'roqqa tutmoqlikka va tezroq Rayhona haqida bilmoqlikka xezlandi. Ammo sohibning sovuq muomalasi niyatidan qaytardi. Hali fursati yetmaganligini tushundi. Tushundi-yu darozning amriga itoat etib, karvonsaroy sartaroshxonasini izlamoqqa tushdi.

2

Qazvin qadim, ammo boshkentga nisbatan ancha chog'roq shahar edi. Ahli-fuqarosi ham ozchilik bo'lib, ko'pchiliklarini hunarmandlar, yollanma dehqonlar tashkil etardilar. Kishilarining asosiy qismi shia mazhabiga, yanada to'g'rirog'i, ismoiliylikka e'tiqod qilardilar. Bu yerda qashshog'u kambag'allar va o'rta hol hunarpehalarning adadi ustuvor edi. Ehtimol shuning uchunmi, shahar besaranjom, ko'cha-ko'ylari iflos edi. Bozorlarida, qo'yingki, odam mo'l bo'lguvchi joylarida ham baqir-chaqiru to'polonlar avjliroqdek tuyulardi. Ahlining ko'yida bir ajib jazavami, vahmmi zohirdek tuyulardi. Xullaski, yangi kelmiş odamga kent osmonida tahlika otlig' bir kuchning qovoq uyib, muallaq turgani sezilardi.

Ismoiliylar saljuqiylar saltanatining boshqa shaharlariga nisbatan Qazvinda ko'pchilik edilar va ular, deylik, Isfahon yoxud Nishopur kabi kentlardagi maslakdoshlariga qaraganda emin-erkin hayot kechirardilar. Hatto mamlakat poytaxtida kezingan ismoiliy hufiyalar ham, ta'bir joiz bo'lsa, mana shu Qazvinda "uchirma" qilinardilar. Ularning rahnamolari asli qashshoq va yupun bo'lmish hunarmandlar, mayda tujjorlar va hatto devonalardan osongina o'z tarafdorlarini vujudga keltirardilar. Bu maskanda ularning o'z jamoatlari hufiya vaqflari mavjud edi. Ismoiliylar o'zlarini imomiylar yoki Aliylar (ya'ni Aliga ergshganlar) deb ham atardilar. Ayni kunlarda ular tobora kuch yig'ib, qudrat kasb etib borardilarki, endi ismoiliylar davlatini barpo qilishdan umidlanardilar. Ularning chin va xavfli g'animlari, o'z nazarlarida, sunniylar, aniqrog'i, saljuqiy turklar edilar. Aytishlaricha, Qazvin hokimi ham ularga, ya'ni ismoiliylarga maylu xayrixohlik bildirar edi.

Qazvinning tor va iflos ko'chalari kishi ko'ziga, ayniqsa, Isfahondek go'zal shahardan kelgan odamga xunuk hamda yoqimsiz ko'rinadi. Mehnat kishisi hech qachon, hech bir zamonda yomonlikka esh bo'lmagan, uning o'z zahmati ila topgan luqmasi hamisha halol va har qanday qonunga muvofiq bo'lgan. Shu kabi bu kentda yo'lning ikki chetida o'ltirivolib, rizq ilinjida tinimsiz mehnat qilayotgan ahli hunarmand ham o'z nonu nasibalarini peshona terlari ila halollob topmoqda edilar. Ularning bundayin halol yumushlariga zig'ircha ishtiboh bildirmoqlik gunoh bo'lur edi. Biroq kimlarningdir shum niyatlari va urinishlari evaziga ularning shuurlarida bir g'alat evrilish kechardi. Bu evrilish yuqorida zikr etilmish gunohdan ham ulkanroq gunohga eltmog'ini ko'plari fahmlamasdilar. Dunyo ahli Ollohning inoyati ila aql topgandan beri unga ne-ne zotlar, ne-ne jamoatlar kelmadilar. Ularning hammalari haqiqatpeshalik da'vo qildilar va o'zlarining ortidan minglab odamlarni ergashtirdilar. Ergashuvchilarning ba'zilari tutgan yo'llari xatolig' ekanligini bir nav fahmlagan bo'lsalar-da, aksarlari o'shal ulkan gunohu xatokorlig'lari ila jannat umrida rost dunyo sari ravona bo'ldilar. Bu ne sinoat? Demakki, odamning nechog'lik gunohkor yoki gunohsizligi uning o'z vujudida, to'g'rirog'i, qalbida ekan-da. Bandaning maqomi uning olamni anglamog'i darajotiga hamrishta ekan-da! Aksi o'lsa, bul bashar farzandi toshni Xudo, olovni Tangri yoxud bir mahluqni Iloh dermidi? U o'shal yaratilmish nimarsalarga yaratuvchi deya topindi, iltijolar qildi. Nihoyat odam shuurini, qalbini Qur'on fayzi nurafshon etdi, hayotini ilohiy shariat bezadi. Payg'ambar alayhissalom Olloh ixtiyori va qudrati ila butun olamga iymon nurini, bandalik ziyosini taratdi. Dunyo saodat ichra qoldi, kishilar qalbi Haq ishqidan hapqirdi. Keyin esa, ya'ni Hazrati Risolat vafotidan so'ngra, Islom ahkomlariga asta-sekin darz tusha boshladi. Kechagina ilohiy saodat nuriga yo'g'rilib dunyoga kelgan avlodlar qirpichoq bo'lmoqqa tutindilar. Og'a-inilar, jigarjondoshlar bir-birlarining boshlariga qilich soldilar. Atigi yuz-ikki yuz yil kechmay buyuk Islom necha mazhabu firqalariga bo'linib ketdi. Bo'linib hamki, ular ichra johil, qonxo'r va tajovuzkorlari ko'paydi. Endi esa, saodat zamonidan hozirgacha besh yuz yil o'tib, Islom xalifaligidan, ahkomlaridan putur ketdi. Qarangki, endi nafaqat yurt talosh, jon talosh, boylik talosh, balki iymon talosh bo'lmoqda. Vaholangki ularning ham barchalari jannat umididalar...

Ismoiliylik tarafdorlari ham oddiy va xatokor banda edilar. Ammo ularning xatokorlig'lari boshqalarnikidan anchagina oshib tushardiki, buni ularning darg'alari-yu fidoyilari anglab yetmasdilar. Anglaguvchilari chetda va yoxud yiroqda bo'lib, ularga ta'sir etmoqqa ojiz edilar. Aslida ismoiliylar bu kabi gaplarni, ya'ni o'zgalar fikrini tinglaguvchi ham emasdilar. Vaziri a'zam Nizom ul Mulk ta'biri bilan aytganda, bu qavm hech bir odamizotga o'xshamaydi, alarni ko'ppak demoqlik ham ozdek tuyulur. Yanaki alar vujudiga alayhila'na in qurib olgan. Bu so'zlarda nafarat ehtirosi mujassam edi, biroq butunlay noto'g'ri ham emasdi.

Ismoiliylar Hazrati Aliga ortiq darajada e'tiqod qo'yardilar va goho uni ilohlik maqomiga ham ko'tarib, shakkoklik etmoqqacha borardilar. Ular Hazrati Alidan boshlab yetti nafar imom borligiga va yettinchi imom Ismoil oltinchi imom Ja'far as Sodiqning o'g'li bo'lib, hozircha g'ayb mulkida pinhon ekanligiga ishonardilar. Ular fotimiylar rahnamoligida Misrni bosib oldilar va Habashistonda fotimiylar davlatini barqaror etdilar. Ul joydan turib ismoilimiya ta'limotini Eron, Xuroson va boshqa o'lkalarga yoymoqqa urindilar. Qazvin va Ray kabi shaharlar ismoiliylar ko'p bo'lganligi bois asta-sekin ularning ilkiga o'tib bormoqda edi. Ulkan savdo shahri bo'lgan Ray bir paytlar ismoiliylarning makon, ta'bir joiz esa, Eron mulkidagi boshkenti edi. Qudratli turk sultoni Mahmud G'aznaviyning saltanati barpo bo'lgach, u butun shaharlarni ishg'ol etib, sunniylik mazhabining muzaffariyati uchun ot surdi. Ana o'sha yillair Sulton Mahmud Rayga ham yetib keldi va rofiziylaru ismoiliylar hamda dunyoviy ilm ahlini qirg'inbarot qildi. Ularning son-sanoqsiz kitoblarini to'plab, o'z nazdida, kofir bilgani haligi toifali kishilarni qator-qator dor og'ochlariga osdi va ularning ostiga uyum-uyum kitob qalab, yoqib tashladi. Mahmud G'aznaviy tomonidan ismoiliylarning qirg'in qilinishi ularning nufuzini bir necha o'n yilliklarga tushirib yubordi. Ular pana-panalarda jon saqladilar.

Endi esa ular asta-sekin oyoqqa turib, imom Ja'farning sunniylarga, Islom xalifaligi o'shalarning ilkida ekanligiga befarq qarayotganligidan norozi bo'la boshladilar. Ayni shu kunlarda uning o'g'li Ismoil maydonga chiqdi va chorvadoru zaminkorlarni o'z atrofiga jamlab, shialarning qudratini oshirmoqqa sa'y etdi. Ko'p o'tmay Ismoil olamdan o'tdi. Ja'far as Sodiq o'z o'g'lini hurmat ila dafn etgan bo'lsa-da, o'g'lining tarafdorlari ko'payib ketganliklari bois uning yo'rig'iga yurmay qo'yidilar. Shu-shu ismoiliylar taqi o'z ta'limotlarini keng yoymoqqa tushdilar. Habashiston, Shomu Ajam, Movarounnahr va Eronda hufiya jamoatlar tuzib, ular aro mustahkam robita o'rnatdilar.

Ayni kunlarda ismoiliylar orasida taqi bir qavm paydo bo'lib, o'zlarini botiniylar deya atay boshlagandilar. Bular ham Hazrati Alini e'tirof etguvchi, unga e'tiqod qo'yguvchi bo'lsalar-da, boshqa ismoiliylik tarafdorlaridan keskin farqlanardilar. Botiniylar Qazvin ichra tobora ko'payib, kuch yig'ib borardilar. Ular orasida yoshlar ko'pchilik bo'lib, o'n sakkiz-yigirma besh yoshning nari-berisida

edilar. Aytishlaricha, bu qavm juda tajovuzkor, o'z rahnamolariga bag'oyat itoatg'o'y edilar. Ularning zarbdor bir guruhi mavjud ediki, o'zlarini "fidoyilar" deb atardilar. Bu xos jamoat bo'lib, ularga alohida e'tibor ila saboq berilardi.

Mish-mishlarga qaraganda, shaharda Hasan ismli bir odam paydo bo'lganmish. U Misrdan tashrif buyuribdi. Shu paytgacha hali biron kishi uni o'z ko'zi ila ko'rganligini aytolmaydi. Balki shuning uchunmi, ko'pchilik ismoiliylar uni o'sha kutilgan g'oyibona imom, deya faraz qilardilar. Aslida ular, ya'ni ismoiliylar bu gapga ishonmoqni dil-dillaridan istar edilar. Boisi saljuqiy turklarni tezroq tor-mor etib, ismoiliylar hukmronligini tiklamoqni orzulardilar. Shu orzu yetovida ular tobora ko'payib, jiplashib, g'oyibona imom olib borguvchi muzaffar kunlarni intiqib kutardilar. Bu intiqlik ortidan pinhoniy imom, ya'ni o'sha sirli Hasan haqidagi mish-mishlar, uni ulug'lovchi rivoyatu afsonalar kun sayin ortib borardi. Ismoiliylarning boshliqlari uchun ayni shu narsa zarur edi-avom bilib-bilmay bu qavmning nufuzini oshirib borardi.

Mahmud esa hali bu gaplardan bexabar edi, aniqrog'i, bundayin ishlarga uning aqli ham yetmasdi. U toza ishq ko'yida sarson kezgan oddiy bir sangtarosh edi. Yigit sho'rlikning ko'z o'ngidan Rayhonasi ketmasdi...

3

Oradan uch kun o'tdi hamki Mahmudga na birov biron ish aytdi, na murodu maqsadini surishtirdi. U soch-soqolini qirtishlatib, yuvinib- taranib, yangi liboslar kiydi, so'ng to'yib ovqat yedi va miriqib uxladi. Shundan keyingina yuziga qon yugurib, kirtaygan qaboqlari bo'rtdi, chehrasi ochilganday bo'ldi. Ammo uyqudan uyg'ondi deguncha darrov ko'z oldiga Rayhona kelardi. Mudom undan darak yo'q. Endi karvonsaroy sohibi ham o'zini ko'rsatmay qo'ydi-yu unga o'sha yerdagi yugurdak o'smir xizmat qila boshladi. U Mahmudga yemak keltirar, goho eshikni qiya ochib qarab ketar yoki xuddi xojasi kabi kumush tangalar olib kirar edi. Ayonki, bu yumushlarning barchasini xo'jayinning amri ila bajarayotganligi ochiq-oshkora sezilib turardi. Biroq qariyb bir so'z demas, soqov kabi kirib, gung mengiz chiqib ketardi. Mahmud ham uni ortiqcha savolga tutmas, bu bechorada ne ayb, uning tirikchiligi shu-da, deya qo'ya qolardi. Kishi ixtiyorsiz bo'lsa, shu ko'yga tushishi aniq-buni u ham tushunib yetgan. Lekin Xayyom hazratlarining xojaligi o'zgacha edi. U kishi birovni unchalar beixtiyor etmasdi. Mabodo zarurat bo'lmasa, ortiqcha amr ham bermasdi. Barcha o'z yumushini bajarsa bas, hech kimning inon-ixtiyoriga aslo dahl etmasdi. Endi o'ylab ko'rsa, rasadxona dargohida ana shunday hayot, muomala o'z-o'zidan, birovning ixtiyorsiz yaratilgan ekan. Faqat bu nimarsalarning bari Xayyom hazratlarining ta'siri va bag'ri kengligi tufayli bo'lganligi aniq. Mahmud shularni o'ylarkan, xojai og'oyisini, ahli rasadxonani sog'inganligini his etdi. His etdi-yu o'trusida taqi suyuklisi namoyon bo'ldi.

Qandayin baxtiyor edilar-a! Oshiyonlari tayish, yeguliklari bisyor va eng quvonchli-yu huzurlisi-hamisha birga edilar. Hech yo'q olisroqdan bo'lsa-da har kuni bir bor diydorlashmoqlari, nigohlari so'zlashmog'i imkonli edi. Ana o'shal baxtli onlarini ulardan tortib oldilar. Endi Rayhonasi yo'q. Qayerlarda, ne ko'yda ekanligi ham noayon. Necha kunlardan buyon qalbida yashagan, Qazvinga kelib, karvonsaroyga qo'ngach, yanada kuch olgan umidi hozirgi o'ylaridan so'ng tuyqusdan so'na boshladi. U Rayhonani topmog'iga ayni damgacha qattiq ishonardi. Uch kunlik hordiq kor qilib, shuuri tiniqlashgach, o'zini aldanganday sezdi. Ayniqsa, bu yerdagilarning mudom jimligi uni ishtibohu gumon changaliga yetaklamoqda edi. Yuragini vahm bosdi. Bu sukutning adog'i bormi o'zi? Nega uni tashlab qo'yidilar? Hozir chiqadi-yu karvonsaroy xojasini topadi. Ne muddaoni ko'zlaydur bu naynov, bilsinchi. U shahd o'rnidan qo'pdi.

Karvonsaroy sohibi o'z hujrasida edi. Buni Mahmud xizmatkorlardan so'rab bildi. Mudom shashtidan tushmaganligi bois xo'jayinning xonasiga shiddat bilan kirib bordi. Kirdi-yu ro'baro'sida boshini eggancha ne iladir mashg'ul bo'lgan sohibni ko'rib, taqqa to'xtadi va beixtiyor bo'shshdi. Chunki daroz na eshikning taraqlashiga va na uning bezovta sharpasiga parvo qilmadi, parvo qilish tugul qayrilib qaramadi ham. Uning xuddi shu ko'yi Mahmudni dovdiratib qo'ydi. Sohib to unga qayrilib qaramaguncha karaxtlanib ancha turdi. Nihoyat xo'jayin boshini ko'tardi va uni endigina payqagan mengiz boqdi-da, dedi:

-Hmm, keldingmu?..

Bu yigitni battar dovdiratdi, nahotki uning kelishini bilgan yoxud kutgan bo'lsa?

-Men... -Mahmud nimadir demoqchi bo'lgandi, daroz uning gapini bo'ldi:

-Pichadan so'ng jo'naymiz, hozirligingni ko'r!..

Mahmud itoatkorona bosh egib, hujrasiga qaytdi. Kesakdan sado chiqdi, deya o'yladi so'ng, har tugul endi nimadir ro'y beradi-ku. Ehtimol Rayhona ila yuz ko'rishar? Qaniydi!.. Balki... Yigitning yuragi taqi battar g'ashlandi, nazdida, qandaydir ofat-falokat unga yovuqlashayotgandek tuyuldi...

Ular karvonsaroy xo'jayini ila ko'chaga chiqqanlarida vaqt asrdan og'gan edi. Ikkalovi so'l yoqqa qayrilishib, yayov yo'lga tushdilar. Mahmud uchun-ku farqsiz edi, biroq anchagina davlatmand bo'lgan xo'jayinning o'z futlariga shafqat etmay, piyoda yo'lga chiqqanligiga hayron bo'lardi.

Ayni damda ko'chada odam siyrak edi. Ot-ulovlar ham kam ko'rinaridi. Ko'cha tor bo'lganligi bois chekkada yonma-yon ketayotgan ikki kishi yo'l ustiga chiqib qolgandek tuyulardi. Buning ustiga biron arobami yoxud otlig o'tib qolsa bormi, yo'lovchilar to'xtab, o'zlarini chetga olishlariga to'g'ri kelardi. Taqi shunisi ham bor ediki, yo qazvinliklar chindan ham baland ovozda gapirardilar va yoki haqiqatan bu shahar shovqinli edi. Bu shahar kishilari boshqa musulmon o'lkalaridagiga aksil o'laroq kam salomlashardilar, chog'i. Yo Mahmudga shunday tuyuldimi? U tag'in shuni ham payqadiki, chetda turgan yoxud ro'baro' kelgan aksariyat kishilar karvonsaroy sohibiga g'alati boqardilar. Ular yo daroz sohibdan qo'rqardilar, yo uning o'zlariga ham e'tibor qilmog'ini istardilar. Shuningdek, ana o'sha boqishlari asnosida Mahmudga "Sen ham o'zimizdanmisan?" degandek qarab qo'yardilar. Aslida bu yerdagilarning barchalari bir-birlarini taniydigandek tuyulardi.

Ular sekin, ammo uzoq yurdilar. Quyosh cheti qizara boshlaganda shaharning kunbotish tarafdagi adog'iga yetdilar. Baland devorli qo'rg'onning ulkan darvozasi oldida to'xtadilar. Darvoza oldida hech kim yo'q edi. Daroz sohib o'z uyiga kirayotgandek ostona xatlarkan, Mahmudni ham ichkariga imladi. Yigit darvozadan kirdi-yu angrayib qoldi-qo'rg'on haqiqatan ham benihoya ulkan edi. Unda odam bag'oyat ko'p va hamma narsa mavjud edi: o'ng tomonda baland gumbazli bino bo'lib, u Ollahning uyi-masjid ekanligi shundoqqina bilinib turardi. Gumbazdan ham yuksakroqqa bo'y cho'zgan yonidagi minora esa masjidga yanada salobat baxsh etgandi. Masjidning narigi yonidagi pastakroq xonalar tamaddixonada edi chamasi, chunki ancha uzoqda bo'lishiga qaramay, u yerdan osmonga o'rlayotgan bug' elas-elas ko'zga tashlanar va pishirilayotgan taom va olovning hidi dimoqqa urilardi. Undan so'ng, ya'ni ro'baro'da esa uzunasiga bostirma joylashgandi. Uning ostida allanimalar terilib yotar, diqqat ila tikilinsa, turli qurol-yarog', egar-jabduq, arobalar kabi nimarsalarni ilg'ash mumkin. Ana o'sha bostirmaning qarshisida tizilib turgan, sakrayotgan, chopayotgan eran turfa jismoniy mashqlarni bajarishar, goho-goho va o'shat solib hayqirib ham qolishardi.

So'l yoqda uzunasiga qilib qurilgan ikki qavatli bino turar, u mana bu jazavali jamoatning xobgohi edi chog'i. Qo'rg'on sahniga

yalpi tosh yotqizilmagandi. Faqatgina har tomoniga emin-erkin eltuvchi sangli yo'laklar qilingandi. Qolgan joylarida esa o'tob taftida oqshaygan tufrog' yaqqol ko'zga tashlanardi.

Daroz sohib uni so'l tomonga boshladi. Har xil yumushlar ila band bo'lgan, u yoqdan-bu yoqqa chopguday o'tayotgan odamlar orasidan yurdilar. Hamma bir yumush, hech yo'q yurmoq ila mashg'ul, birov birovga e'tibor bermasdi ham... Ayvondan o'tib, bir eshikdan kirdilar. Bu ancha katta xona bo'lib, ko'rpa-to'shaklar devor osti bo'ylab qator taxlanib yotardi. U yerda ham bir necha kishilar bor edi, lekin ular bu ikkoviga e'tibor ham qilmadilar. Karvonsaroy xo'jayini Mahmudga, xohlagan joyingga joylashaver, deganday bir qarash qildi-da, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Yigit biron so'z aytishga ham ulgurmasdi. Uning taqi xafsalasi pir bo'lib, beixtiyor yonboshidagi joyga cho'kdi. Yo tavba. Endi bunisi ne sir bo'ldi? Bu mavhumotlarning, pis-pislarning adog'i bormi o'zi, xayolidan o'tkazdi u...

Shom namoziga azon aytili. Barcha tahorat olmoqqa va undan so'ng masjidga shoshildi. Darvoqe, bu yerdagi tahorat joylari ham bag'oyat orasta edi. Mahmud omiy edi. Namoz o'qishni bilgani bilan Islomdagi mazhablarni farqlay olmasdi. O'zi sunniy bo'la turib, shialar aro namoz o'qirkan, namozdagi farqlarni ham sezmasdi. Namozdan so'ng tanovvul qilindi. Shunisi qiziqki, bu amallarning barchasi biron bir ortiqcha so'zsiz, to'qnashuvsiz o'z o'rnida bajarilardi. Undan keyin esa to'xuftongacha hordiq olindi. Mahmud mudom yolg'iz edi. Birov unga qayrilib qaramasdi ham. Barcha asta-asta so'zlar, biroq bu tovushlarning umumlashuvi yigitning quloqlarini qomatga keltirguday bo'lardi. Chamasi, ungagina shunday tuyulardi, negaki boshqalar atrofdagi ovozlarga parvo ham qilmasdilar. Ora-sira "Imom Mahdiy", "G'oyibona imom", "Hasan Sabboh", "Shu yerda" deya ko'p takrorlanayotgan so'zlar Mahmudning qulog'iga chaliniq qolardi. Unga qadar yigitning diqqati oshar, yuragini esa vahm bosardi.

Hufton namozidan keyin uyquga yotdilar. Taqi boyagi joyga yotib oldi, ammo birov unga "joyimni bo'shat" ham demadi. Ichkarida bir pas dimiqib, yuragi siqildi. Shahd o'rnidan turib, ayvonga chiqdi. Bo'sh joyga chalqancha yotib, ayvon "qabog'i" ostidan ko'rinayotgan yulduz to'la osmonga tikildi. Ko'zlariga chiroq nuri tushib, uchqun otgan kabi ko'ringuvchi ko'z cho'g'iday miltiragan yulduzlar jumlasini uning qayg'usidan bexabar edilar. Ular to'lishib borayotgan o'ying nazariga tushmoqchi bo'layotganday basma-basiga jimirlaydilar xolos. Yo'q, nega endi bexabar bo'larkan? Bir paytlar, u yana Isfahonni, qadrdon rasadxonani esladi. Xayyom hazratlari nujumga tikilib o'ttirarkan, "yulduzlar O'lloh taoloning tasbeh donalari" degandi. Yaratgan o'z bandalarini va ularning yoziqlarini o'shalar orqali hisob-kitob qilarmish. Astag'furilloh! Shu shoiru olim ahli ham xo'p ajoyib-da, qiziq gaplarni topib aytishadi. Bu-ku omiy bir banda, ancha-muncha nimarsalarni ko'pam fahmlayvermaydi. Lekin xojasining aytishicha, odam bolasining qismati yulduzlar dunyosiga nesi iladur dahldor emish. Tag'in kim biladi... Birdan yonida Rayhon paydo bo'ldi. U jilmayib turardi, ko'zlari, tishlari yulduzlardayin shu'lali jimirlardi.

-Siz kitob o'qimaydursiz, og'oyi.-dedi u ta'kid ohangida. -Mutolaa etganingizda edi, yulduzlar ko'zingizga bundin-da o'zgacha ko'ringan bo'lurdi.

Uni xayol olib qochdimi yoxud pinakka ketdimi, kimdir yelkasiga ohista turta boshladi, lekin ovoz Rayhonniki edi:

-Ey, sizga ne bo'ldi? Ko'zingizni oching... Ko'zingni och, birodar...

Mahmud ko'zini ochganda, tepasida bo'zarayotgan osmonni devday gavdasi ila to'sib, bir kimsa qorayib turardi. Yigitning yuragi bir qur bezovtalandi. O'zini o'nqlab olgunicha ham picha fursat o'tdi.

-Qani, ortimdan yur! -dedi haligi odam Mahmudni ilki ila ham chorlab.

Yigit indamay unga ergashdi.

Ular masjid tarafga qarab yurdilar. Masjidning yonboshida taqi yana bir eshik bo'lib, Mahmud kecha uni payqamagan ekan.

Aslida ayni damda ham tevaragidagi nimarsalarni tuzukroq ilg'amayotgan edi. Yo'l boshlovchiga ergashib boyagi eshikdan kirdi. Xona tag'in ikkiga ayrildi-ular so'ldagi eshikka yurdilar. Bu xona ancha keng va ko'zga parda tortgudek xira yorug' og'ushida edi. Ro'baro'da ko'kish parda, uning ortidan, aniqrog'i, shiftning burchagidan qizg'ish nur yog'iladi. Pardaning narigi yog'ida kimdir o'ltirar, uning ko'lankasi shundoqqina qorayib ko'rinib turardi. Soya negadir qilt etmayotgandek ko'rinadi.

Mahmud hamrohining amri ila oldidagi o'rindiqqa soyaga yuz tutgan holda o'ltirdi.

-Seni ne muddao bu dargohga yetaklab keldi, ey, yigit?-deya so'radi parda ortidan kelgan muloyim, biroq xiyol xirillaguvchi ovoz.

Mahmud biroz taraddudlanib qoldi, so'ng:

-Bir ojizani izlab keldim.-dedi.

-Xasmingmu?-so'radi taqi ovoz.

-Yo'q. Biroq ul qizginaga ko'ngil berib edim. -Yigitning ovozidan o'z so'zidan andishada ekanligini oshkora payqash mumkin edi.

-Uni ko'rmoqni chin dildan istarmusen?

-Ha!.. -dedi Mahmud qat'iylik ila.

-Unda bizga sadoqat ila xizmat qilgaysen. Biz esa yoring vasliga O'llohning behishtida musharraf etgaymiz.

Mahmud bu so'zlarni tushunmagan bo'lsa-da, dedi:

-Ne shart bo'lsa, rozimen. Faqat...

Uning so'zini haligi ovoz bo'ldi:

-Bizga sadoqat ila xizmat etmoqqa ont ich-da, anovi tabarruk suvni ixlos ila sipqor.

Mahmudni bu yerga boshlab kelgan odam unga piyola tutdi. U o'z sadoqatini ifoda etib, qasam icharkan., "Bismillahir rohmanir rohiym", deya piyoladagi chuchmal suyuqlikni sipqordi.

-Boraver!-deya amr etdi ovoz.

U o'rnidan turib, hamrohi yetovida kirib kelgan eshigiga emas, unga qarama-qarshi joylashgan chog'roq eshikka qarab yurdi.

Eshikka yaqinlasharkan, boshida, butun vujudida bir evrilish uyg'onayotganligini payqadi. Ostonada to'xtab, o'ng ilki ila eshik kesakisini tutdi, chunki boshi aylana boshlagandi. Keyin oyoqlari ostidan zamin qochib borayotganligini elas-elas ilg'adi. Ojizona xohish ila tavakkal dedi-da, bir qadam tashladi. Tashladi-yu uchib ketdi. Ko'zlariga ko'rmoq ham malol kelganidan ularni yumib oldi. Uzoq uchdi...

Nihoyat qay bir ma'voda ko'zlarini ochdi. Ko'rdiki qarshisida mislsiz nuru ziyolar jilvalanayotir. Osmon to'la nur, har yonda ming turfa tajalliy. U bilgan-bilmagan sonsiz qushlarning o'tlig' xonishi quloqlarini siypalab, ko'ngullarga orom baxsh etadi. Go'yo kishi majlisi tayr (qushlar suhbatiga) kirib qolganday sezadi o'zini. Atrof-tevarak gulu chechaklarga burkangan. Beadad ranglar obro' talashgan beqiyos makon edi bu. Bir yonda to'lin qizning barmog'iday ariqchalarda suvlar shaldirab oqayotgan bo'lsa, ikkinchi yoqda favvoralar anjuman tuzgan... Bir zamon ro'baro'sida qiyg'os gullar misol jamoat tuzgan qizlar ko'rindilar. Ular shodon kulardilar. Oq, niliy, pushti tusli harir liboslarini xilpiratib, har yona sakrarkanlar, kapalaklar parvozini yodga solardilar. Ularning oppoq badanlari harir matolar ostida dillarga-yu vujudlarga o't yoqquday ko'rinardi. On qadar suluv edilar bu qizlar-jannat hurlari.

Qizlar unga yovuq keldilar va hammalari birvarakay boqdilar. Shunda... Rayhon!.. Anov pushti libosga burkangan nahotki Rayhona bo'lsa?! Ha, o'sha. Faqat u hozir avvalgidek iymanib boqmasdi, yuz-ko'zida er ko'ngliga g'ulu solguvchi olov balqib turardi. Biroq yigit ayni damda bular haqida o'ylagulik ahvolda emasdi. Shul bois ham titrab-qaqshagancha hayqirdi:

-Rayhon!..

Pushti libosli hur tek qotdi-yu unga tikildi.

-Og'oyi!.. -deya u ham yigit tomon talpindi. Yovuq keldilar. Bir lahza nigohlar so'zlashdilar. So'ng qovushdilar. Yigit olov ichra to'lg'ona-to'lg'ona bo'salar ola ketdi.

Qiz esa uni battarroq junbushga solib, oh urardi. Ikki qonli shamshir- lablar bir-birlariga tig' urganlarida, entikishlar yuz chandon ortdi. Gullar, nurlar, qushlar, suvlar, ranglar-barcha-barchasi ularni madh etardilar...

Ko'zlarini ochganda taqi o'shal parda oldida o'ltirardi. Tepada qizg'ish nur o'ynardi.

-Ontingni unutmadingmi?-deya so'radi tanish xirilloq ovoz.

-Yo'q.-dedi yigit itoatkorona.

-Unda sening borar manziling, inshoolloh, o'shal go'zal ma'vodur. Boraver!..

Yigit hamrohi yetovida dastlab kirib kelgan eshigi tomon yo'naldi. Uning xayoli, nahotki bir lahzada shuncha voqeot zohir bo'lsa, shuncha huzur-halovat ko'rsam, degan savol aylanardi. Buning ortidan haligi ovoz sohibining karomatgo'y ekanligiga ishonib borardi.

Bu mahal bomdod namoziga azon aytilib, barcha so'zsiz bir tarzda g'imirlab tahorat olmoqqa shoshilardi. Hovliga chiqqach, Mahmud ham beixtiyor ularga qo'shilib ketdi.

Yigit ko'rganlarini bir necha lahzalarda ro'y berdi deya yanglish xayol qildi. Aslida u bir kecha-kunduz sarxush yotib, ertasi tongda taqi o'shal parda qoshiga olib kelingandi...

Ikkinchi bob

1

Qazvin butunlay ismoiliylar ilkiga o'tgan bo'lsa-da, biroq endi bu kent ularga torlik qilib qolayotgandi. Torlik qilayotgani bir jihati bo'lsa, ikkinchi tomoni-shaharda qolmoq xatarli ham edi. Saljuqlar yetti iqloimni o'z tasarrufiga olgan ayni mahaldi qal'asi unchalar mustahkam bo'lmagan shaharda makon tutmoqlik, asosiy kuchlarni unda jam etmoqlik aqlsizlikdan boshqa nimarsa emasdi. Buni ismoiliylarning sardoridan tortib, oddiy fidoyisigacha yaxshi bilardilar. Shul bois har tomonlama qulay, mustahkam bir oshyonni ko'zlab turardilar va o'shanday joyni topmoq umidida hufiyalar tinmay izg'irdilar. Ammo ularning sardori o'shanday joyni allaqachon mo'ljalga olib qo'ygandi-bu Alamit tog'idagi Alamit ("Lochin ini") qal'asi edi.

Alamit juda qadim qal'a bo'lib, ayni damda ham unda anchagina odamlar hayot kechirardilar. Qal'a ahlini uning qutvoli (komedanti) idora etardi. Alamit ulkan tik qoya ustiga qurilgandi. Bir yoni tog'ning zabardast ko'kragiga tutashib ketgan bo'lsa, ikki tarafi go'yo shamshir urilgandayin tekis tosh devorli o'p'qon yoxud jarlik edi. U qirlar uzra yastangan vodiya tutashib ketgan, tepadan hammayoq misoli kaftdagidek yaqqol ko'rinib turardi. Qal'aga eltguvchi faqatgina bitta yo'l bor ediki, uning ham bir yoni tik qoyalarga tutashgan bo'lsa, boshqa tomoni hali aytilgan mengiz jarlik edi.

Qal'aning ichkarisi Ollohning ajib mo'jizasi, u bu ma'voni nedir bir tadbirni rejalab yaratgandir, degan xayolga solguvchi sirli makon edi. Hamma narsa o'z o'rnida-qalin qilib qurilgan tosh devorlari bag'oyat mustahkam, binolari ham ikki-uch qavatli, ko'rkam. Undagi xonalar tarxi puxta hisob-kitob ila tuzilganligi sababli birona daricha yoxud burchagi ko'zga nobop, xunuk tashlanmaydi. Unda uchta yirik xosxonalar ham bo'lib, ularning biri masjid, qolganlari esa taqi boshqa marosimlar uchun mo'ljallangan edi. Ularning o'rtasidan ko'tarilgan baland minora osmonga sir aytayotgandek ko'rinadi. Aniqki, qal'a hovlisining sathi tosh edi. (Tog' ustida joylashgan axir.) Lekin tartib ila o'tqazilgan turfa og'ochlar qad rostlab, ko'm-ko'k bo'lib turardi. Ularga diqqat qilib qaralsa, osti tuproqli ekanligi ko'rinadi, ya'ni toshning ma'lum qismi o'yilib, pastdan tufrog' olib chiqib, to'ldirilgan va o'shal tufrog' bag'riga nihol qadalgan edi. Shu usulda gullar ham ekilgandi.

Qal'a uzra tog'ning ko'ksi turgani bilan uning hovlisiga quyosh nurlari baralla yog'ilardi. Muntazam esib turguvchi yel uning iqlimini nihoyatda bahavo tutardi. Alamit tag'in shu sifati ila ham mo'jizakor ediki, uning bag'rida shitob sizib turguvchi buloq, shifobaxsh chashma bor edi. Toshlar ko'ksini yorib chiqqan ana o'sha buloq tufayli qal'a ahli vodiya suv tashib keltirmas, undagi hayot barqaror bo'lib, gulu og'ochlar yashnab turardi. Buloq suvi qishin-yozin to'xtamas, ehtimol shuning uchunmi, odamlar uni muqaddas bilib, ixlos ila topinardilar, turli irim-sirim marosimlarini ham o'tkazib turardilar. Alamit kuch ila yiqib yoxud olib bo'lmas poydor makon, metin yanglig' qal'a edi. Ismoiliylar ham uni puxta bir tadbir yoxud hiyla ila egallamoq mumkin ekanligini yaxshi fahmlardilar...

Nihoyat bir kuni Alamit poyidagi vodiyni qishloqqa yovuq chetida omonat koza (qamish chayla) va unda janda kiygan darvesh paydo bo'ldi. Darvesh xiyol bukchayib yurganidan yelkasida go'yo bukri bordek tuyulardi. Ehtimol xokisoru aftodahol ko'rinish uchun shunday qilarmidi. Soqol-mo'yolabi siyrakroq, oq aralash-kulrangmonand. Ichida xastaligi borligidanmi, yuz ko'zi sarg'imtil, siniq. Ammo nigohi o'tkir, kishiga qattiq tikiladi. Uni yaqin atrofdagi qishloqlar ahliga karomatgo'y valiy qilib ko'rsatgan ham eng avvalo o'shal nigohi bo'lsa ajabmas. Chunki ko'zlarida kuchli tafakkur, teran shuur balqib turganga o'xshardi. Darvesh el ko'ziga tarkidunyo qilganday ko'rinib, tunu kun chindan ham zikru ibodat ila mashg'ul bo'lgani bilan taqi o'zga muddaosi-yu ko'zdan pinhon surati-da bordek edi. Boisi goho, ayniqsa, kechalari uning yoniga bir necha odamlar kelib turardilar va allanimarsalar tashlab ham ketardilar. Ayonki, bu tashriflar o'zgalari nazaridan yashirin tarzda bo'lardi.

Asta-sekin bu parhezkor banda-darveshga ixlos qilib, nazr-niyoz keltirguvchilar, dardini aytib najot so'raguvchilar, duo tilaguvchilar paydo bo'la boshladi. Kishilarning bundayin munosabati darvesh uchun ayni muddao edi-chindan ham el nazdida avliyoga aylanib borardi. U allaqancha donish kitoblarni xatm qilgan, Kalomullohdan bahra olgan sohibi ilm bo'lganligi bois ixlosmandlarga munosib so'z aytmoqlikni ham mohirona uhdalardi. Har lafzidan hikmat, harakatidan karomat yog'ilardi. Ziyoratchilar huzurida maqsadsiz yoxud ma'nosiz biron sa'ay etmasdi.

Bu orada u Alamitga eltguvchi yo'ldan ogoh turar, unga kim chiqib, kim tushayotganligini zimdan kuzatardi. Buning ustiga, ismoiliylarning tarafdorlari qal'a ichra ham tobora ziyodlashib borardi. Ular ahli qal'ani ustalik ila o'z mazhablariga tashviq etardilar, g'oyibona imom haqida og'izlarini to'ldirib so'zlardilar. Bularning bari qal'ada ismoiliylarning mavqeini oshirib, ilkini baland qila boshlagandi. Vodiya darvesh esa jami voqeotlardan voqif turardi. Voqiflik uning o'ziga bo'lgan ishonchini ziyoda qilar, kuchiga kuch qo'shardi. Unga sari qal'a qutvolini tobora vahmu tahluka iskanjaga olar, u qal'ada o'zining inon-ixtiyorida tashqari nelardir sodir bo'layotganligini sezar, sohiblik maqomi tanazzulga yuz tutayotganligini his qalardi. Biroq chorasiz, yanada

aniqrog'i, jur'atsiz edi.

Muddat yetib, vodiydagi darveshdan qal'a qutvoliga kishi keldi va uni chorlayotganligidan xabar berdi. Qutvol el aro karomatgo'y nomi ila tanilgan avliyo darvesh haqida eshitgan va goho ruhan toliqqan mahallari unga g'oyibona ixlos ila talpinardi ham. Qalbini vahmu qo'rquv qamragan ayni damda uni darveshning o'zi chorlayotgani karomatday, bir nimarsalarga ishoratday tuyuldi. O'shal ishorat qanot bo'lib, jandapo'shli avliyo huzuriga uchib keldi. Undan bir mujda umidvor bo'ldi.

-Qal'ani tark etursen.-dedi dab-durustdan darvesh unga qattiq tikilib. -Evaziga uch ming dinor olursen.

Qutvol unchalar hayratga ham tushmadi, chunki ne hodisadir sodir bo'lmog'ini, qal'adan rizqu nasibasi uzilib borayotganligini sezgandi. Lekin voqealar bunchalar shoshilinch rivoj topmog'ini kutmagandi. U avliyoga ishonqiramay boqdi.

-Katta karvonsaroyning g'ilay sohibiga yo'liqursen va u murodingni hosil qilur.-dedi darvesh uning nigohidagi savolni uqib.

Qutvolning itoat etmoqdan o'zga iloji qolmadi. Shitob qal'aga qaytib, ko'ch-ko'ronini yig'di-yu, shaharga yo'l oldi. Darvesh aldamaqandi-karvonsaroy xojasi unga uch ming dinorni so'zsiz tutqazdi. Shu-shu qutvol g'oyib bo'ldi.

Ertasiga darvesh qal'aga ko'chib o'tdi va xojalikni o'z ilkiga oldi. El aro esa sirli darveshning donoligini, g'oyib bo'lgan qutvolning tentakligini ifoda etguvchi rivoyat tarqaldi: emishki, avliyo darvesh qal'a qutvoliga "menga qal'angdan bir echki terisining orasicha joy bersang bas, duoi joningni qilib yashardim", debdi. Qutvol uning bu gapiga rozi bo'libdi. Darvesh esa bitta echki terisini olib, ingichka qilib qiyibdi-da, paydo bo'lgan qayish iplarni bir-biriga bog'lab chiqibdi va tun bo'yi haligi ip bilan qal'a devorini o'rab, qal'ani go'yo xalqa ichiga olibdi. Ertasiga qutvolni chorlab, "Mening echkimning terisi orasiga butun qal'a sig'di, xolos", debdi va ikki uchi qal'a darvozasida tugilgan qayish ipni ko'rsatibdi. Tilidan tutilgan qutvol bir kechada g'oyib bo'libdi.

Bu uydirma edi, albatta. Biroq ismoiliylarning Alamit qal'asini egallaganliklari rost edi. Endi ular o'zlariga mustahkam boshpana, makon topgan edilar. Shu-shu sirli Alamit qal'asining dovrug'i yetti iqlimga yoyila boshladi...

2

Ismoiliylar ichra tuzilgan ayru bir jamoat-fidoyilarning chiniqmoq va jangovorlik borasidagi turfa mashg'ulotlari Alamitga ko'chib o'tilgach yanada kuch oldi. Ular tinimsiz jismoniy tayyorgarlik, yemakxo'rlik va ibodat ila band bo'lardilar. Goho esa "Jannat" hurlarining ehtiroslari olovida qovrilardilar va uzoq-uzoq vaqt mobaynida, ayniqsa, og'irdan-og'ir mashqlardan xorganlarida o'sha hurlar xayoli ila yashardilar, ularni sog'inardilar. Ana shunday damlarda ularning nigohlari darrandalar yanglig' bir vahshatli tus kasb etardiki, ularga risoladagi kimsaning ko'zi tushsa yuragi yorilmog'i tayin edi. Shul kabi ular bunday kezlarda har qanday fidolikka, ta'bir joiz bo'lsa, vahshiylikka hoziru qodir turardilar. Chunki jonlaridan judo bo'lsalar albatta bir necha bor ko'rganlari o'shal "jannat"ga tushmoqliklariga ishonardilar hech ko'rsa shunga umid qilardilar.

Mahmud ham "fidoyilar" orasida edi. Uning kuch yog'ilgan bilaklari bir necha norg'ul yigitlarni yiqmoqqa qodir edi. Bu ismoiliylar peshvolarining nazaridan pinhon qolmadi va uni xos navkarlar safiga oldilar. Har bir "fidoyi"ning o'ziga munosib laqabi bor edi. Shu odatga binoan Mahmudga kaltakesak deya nom berdilar. Unga bu nomni ismoiliylar sardorining aynan o'zi hadya etdi.

Uni sardor huzuriga olib kirdilar. Nimqorong'i xonaning to'rida qal'aga ilk bora kirib kelayotganida ko'rgani, vodiydagi ko'pchilikning tiliga tushgan o'shal darveshmiz (olti oyoqli stolchaga) suyanib o'ltirar, faqat endi uning egnida jandapo'sh yo'q edi. Ammo baribir juda xokisor kiyingandi. Uning ikki yonida ikki bahaybat qo'riqchisi tik turardilar.

Mahmud ro'parasidagi xojaning ilk so'zidanoq uni taqi bir karra tanidi-bu axir Qazvindagi qo'rg'onda, parda ortidan kelgan ovozu. Ha, aynan o'zi! Demak, o'shal ovoz sohibi-yu vodiydagi darvesh va mana bu sardor bir odam ekan-da. Biroq Mahmud endi butunlay o'zini yo'qotmadi, chunki u so'nggi voqealar va ko'rgiliklardan keyin ancha sovuqqon bo'lib qolgandi.

-Isfahon rasadxonasidan kelmish sangtarosh turk-o'g'iz senmussen?-deya so'radi xirilloq ovoz.

-Ha. -dedi Mahmud hissiz sas ila.

Xoja Mahmudga qattiq tikilidi. Uning qiyofasidan nimarsalarnidir uqmoqqa urindi chog'i. Ehtimol shu turishida bul savodsiz sunniy turkdan ismoiliylarga biron naf kelish yoki kelmasligi haqida, turklard fe'lidagi jangarilik, tik so'zlash yomon oqibatlariga ro'baro' etmog'i mumkinligi xususida o'ylagandir. Aslida-ku har bir "fidoyi"ning fe'l-atvori borasida maxfiy kishilar xojaga muntazam xabar yetkazib turardilar-kuya. Demakki, xoja Mahmudning xo'yidagi bangixayollilik o'y ila uzoq-uzoq qimir etmay o'tirishlaridan ham boxabar edi. Hozir ham ko'zlari ichiga botib, qaboqlarida qorong'ulik paydo bo'lgan yigit boshini yelkasiga xiyol tortgan ko'yi tek turardi.

-Sen o'ljasini uzoq-uzoq poylab, unga bexato hamla qilguvchi kaltakesakni yodga solding. Demak, sening noming Kaltakesak bo'lg'ay. -dedi xoja nihoyat undan ko'zini olib.

Mahmud biron so'z demadi, hatto qiyofasida ham hech bir o'zgarish sezilmadi...

"Fidoyilar" chindan ham o'z xojalari, maslaklari uchun jonlarini fido etmoqqa hamisha hozir edilar. Xoja esa... U bag'oyat sirli va qattiq intizom sohibi edi. O'sha kezlari bir kuni Alamitga ajnabiy sayyohni keltirdilar. Soch-soqoli o'sgan bu odam g'ayridin edi, o'zini Andalusiyalik (Ispaniya) deb tanishtirdi. (Bu mashhur sayohatchi Marko Polo edi.) Uni xojaning huzuriga olib kirdilar. Ikkisi anchagacha suhbatlashdilar. Sayyoh qal'ada bir necha kun qolib ketdi, xojaning ijozati ila undan hech nimarsani pinhon tutmadilar, qal'ada mavjudki ne bo'lsa, ko'rsatdilar. Kim biladi, sirli xoja nomi olamga doston bo'lishini, tarix qatlarida sobit o'rin topmog'ini istab shunday qilgandir. Har tugul biron sabab ila qal'aga kirib qolgan begona kishi yo bir umr o'sha yerda qolib ketardi, yo... Tirik chiqmog'i esa mahol edi. Bu sayyoh Alamit xojasinin saxovatidan bahramand bo'la-bo'la, nihoyat qal'ani tark etmoqlikka ijozat oldi. Xoja uni kuzatarkan, o'z kuchini, "fidoyilar"ning sadoqatini namoyish etmoqni istadi: u sayyohga ko'rsatib, qal'a devori ustida turgan soqchiga "o'zingni tashla", deya ishorat qildi. Soqchi bir siltandi-da, "Ollohu akbar" xitobi ila o'zini jarga otdi...

Bu sirli darvesh, endi esa Alamit xojasi, ismoiliylarning sardori Hasan Sabboh edi...

Uchinchi bob

1

To'la ismi Hasan ibn Ali ibn Muhammad ibn Ja'far ibn al Husayn ibn Muhammad ibn as Sabboh azim Ray shahrida tavallud topgan edi. Uning naslu nasabi, Yaman podshohlaridan bo'lmish xammoriylar qavmiga borib taqalardi. O'zining sershovqin katta borzrlari va usta hunarmandlari ila mashhur tujjorlar maskani bo'lmish Ray bag'oyat ulkan shahar edi. Shu bilan birga u ismoiliylarning asosiy makoni sanalardi. Sunniy sulton Mahmud G'aznaviy Rayni tiz cho'ktirib, g'orat qilgach, bu shahri qadim xarob bir ahvolga keldi. Ismoiliylar ham bir necha yillar yashirinishga, harakatlarini susaytirishga majbur bo'ldilar.

Movarounnahru Xuroson va Eron zaminlari G'aznali Sulton mahmud izmida qoldi. Bu voqeotlardan so'ngroq, Ismoil qavmi taqi bosh ko'tara boshlagan damlarda dunyoga kelgan Hasan go'dakligidanoq ilm talabida bo'ldi. U barcha ilmlarga qiziquvchan va havasga sazovor g'ayrat-ishijoat sohibi edi. Avvaliga diniy ilmlarga ko'ngil berib, Qur'onu hadis va shariatu sunnatni o'rganmoq payida bo'ldi. O'sha kezlari qalbida Olloh ishq jo edi shekilli, mushtday boshi ila kitobdan ayorilmas, toat-ibodatda ham sobit edi. Toki o'n yetti yoshga kirib, Amir Zarrob otlig' odamga ro'baro' bo'lmaguncha hayoti shu taqlid kechdi. Amir Zarrob oddiy hunarmand edi. Biroq o'zicha ulug' bir ilmlar sohibi bo'lib, Misr xalifalarining mashabi xususida og'zini to'ldirib so'zlardi. Avvaliga yosh Hasanning qalbini vahm bosdi va Amir Zarrobning ba'zi faylasufona fikrlarini goho inkor ham etib qo'yardi. Ammo yuragining allaqayerlarida ustuvor bo'lmish o'smirlarga xos yangilikka tashnalik, qiziquvchanlik uni Misr faylasuflarining o'zgacha nazarlariga tobora bandi qilib borardi.

O'sha kunlari u og'ir hastalikka chalindi, butun tanasini yara-chaqa qopladi. Tunlari uyqusi buzilib, alahsirab chiqar, ko'ziga ne balolar ko'rinib, dod solardi. Buni u o'zicha tushundi: kunim bitgan ko'rinadur, endi men chin haqiqatni anglamay, Haqqa yetishmay, halokatga mahkumman, deya o'yladi. Kechalari tinimsiz istig'for aytarkan, Amir Zarrobning yo'li eng to'g'ri, Ollohga, ulug' ajrlarga olib borguvchi yo'l ekanligiga iymon keltirib borardi... Nihoyat kun kelib, hastalikdan forig' bo'ldi, biroq yuzidagi va butun tanasidagi yaralarning o'rni bilinar-bilinmas dog'ga mengzab, yuzi zahillashib, yoqimsiz ahvolga keldi. U buni ham o'zicha tushunib, o'zga ma'nolar berdi. Shu tariqa ismoiliylar safiga kirib, Qur'on tutib, shu yo'lda sodiq qolishlikka qasam ichdi. U sunniylikning barcha sifatlarini, o'z mazhabidan farqlanuvchi tafovutlarini inkor etmoqqa odatlandi va bu borada dalillar qidirmoqqa tushdi. Ayni shu yo'lda maslakdosh kishilarni qidirdi. Unga sayin ismoiliylar orasida Hasan Sabbohning nufuzi ortgandan ortib boraverdi. Biroq u hamisha yo'lda edi va eng to'g'ri yo'lni izlashdan toliqmadi. O'zini pinhona yo'lchi deb atagan bu odam olis manzillarni ko'zlab turar, o'z nazdida, yetishmog'i muqarrar bo'lgan o'shal manzillar uni shon-shuhratga burkab, ulug' xojalik maqomiga sohib etmog'idan umidvor edi. U bunga ishonardi va qalbidagi bu ishonch unga kuchu iroda, o'z maqsadi yo'lida sobitlikni hadya etardi. O'zining boshqalardan farqli ekanligini ham sezar, tole yulduzi yuksak ma'volarda turib, hozircha pinhona, faqat o'zigagina nur sochayotganligini payqardi. Hammasini sezardi, bilardi, shuurida ulug' reja, ko'nglida barqaror umid yashardi, ammo hali o'zining aniq yo'lini topa olmasdi. Buning uchun unga nedir, favqulodda bir nimarsa, og'ochlar boshini tebratgan shamol, hech qursa, shabboda mengiz turki- sabab lozim edi.

Hasan Sabbohning ismoiliylar orasidagi obro'-martabasi kun sayin ortib borardi. U endi o'z yurtidagi qavmdoshlarining peshvolari qatoriga kirib qolgandi. Ammo yo'lchi bundan qoniqmasdi, hali o'zi zabt etmagan, qachondir zabt etmoqni orzulagan manzillarga intilardi. Shu tariqa Misr safariga otlandi. U yerda avvalo bilim izlamoqni, dunyo tafakkurining qaymog'i yig'ilgan bu qadim yurtda saboq olmoqni va qolaversa, ismoiliylarning eng boobro' sardorlari ila tanishuvni niyat qildi.

Ismoiliylar g'oyibona imom Mahdiyning kelishini hamisha orziqib kutardilar. Bu hol, ayniqsa, Misrda, shia mazhabidagi kishilar panoh topgan makonda yaqqolroq namoyon bo'lardi. Goho o'zini Mahdiy deya ovoza qilgan savdoyilar ham uchrab turardilar. Shu yanglig' vasvasalar asnosida u yerda Fotimiylar halifaligi bunyod etilgandi va ularning Islomga, olamga munosabatlari ismoiliylarning munosabatlariga uyqash edi. Ayni damda fotimiylar dargohida ismoiliylikning kuch olmog'i va obro' topmog'i uchun juda qulay sharoit vujudga kelgandi. Chunki fotimiylar ham ismoiliylikni shia mazhabidagi eng oqilona va to'g'ri yo'l, deb bilardilar, shu kabi, ularning shialikni taraqqiy ettirib, olamga kengroq yoyilishiga ko'proq hissa qo'shmoqliklariga umid qilardilar. Biroq Hasan Sabboh Misrga yetib kelgan vaqtda fotimiylar o'zlarining avvalgi kuch-qudratlaridan mahrum bo'lib bormoqda edilar. Shunday bo'lsa-da, u ilm talabida Misrdagi eng mashhur madrasa va masjidlarda va'zlar tingladi, saboqlar oldi. Olimu faylasuflarning Qur'on, hadis fikh, sunnatu shariat haqidagi, shialik tarixi xususidagi va umuman Yaratuvchini anglash borasidagi g'oyat ta'sirchan fikrlarini jon qulog'i ila eshitdi. Ehtimol ana o'sha kunlari u o'zining butunlay yangi ta'limotiga asos solgandir. Balki keyinchalik Hasan Sabbohga kuch-qudrat va shon-shuhrat baxsh etgan sirli boshquruv tizimining ibtidosi o'shanda xayoliga kelgandir. Har qalay u kundan-kun o'zgarib, qat'iyatlilik sari evrilib, bir fikrga kelib borardi.

Bundan tashqari, fotimiylar davlati ham tobora yemirilib, o'z qudratini yo'qotib borayotganligini, uning ilkida bo'lgan ko'plab kentlar o'zga hukmdorlar tasarrufiga o'tib ketayotganligini anglamoqda edi. Ayniqsa, saljuqiy turklarning shashti baland ediki, ular dunyoga sohiblik da'vosini qilardilar. Fotimiylar ixtiyorida bo'lgan Shom va Falastin o'lkalari allaqachon saljuqiylar ilkiga o'tib ketgandi. Endi bu bashar qavmidan bo'lmagan galalar o'zga manzillarni ham ko'zlab turardilar. Ha, Hasan Sabboh turklarni odam emas, jin, iblis qavmidan, deb bilardi. Zero jinlar va iblis Odam alayhissalomdan ilgari ham bu dunyoda mavjud edilar. Ularning mislsiz qudrati, ustomon va botadbir ekanliklarini shundan deb bilardi. Sabboh taqi shuni ham anglamoqda ediki, uning qavmi, ya'ni Eron ismoiliylari payti kelganida fotimiylarga tayanishlari mushkul edi. U Misrda bir yarim yil yashab, shuni tushunib yetdi. Demak, endi umid faqat va faqat o'zlaridan. Olamni larzaga, bani basharni qo'rquvga solishi mumkin bo'lgan barqaror va mustahkam bir idora usulini yaratmog'i lozim. U bunga qurbli, illo o'shal sirli saltanatning dastlabki binolarini xayolan bunyod etayotganligi ham rost.

U shu yo'lchiligi asnosida nihoyat Mifni tark etdi. Bir muddat sarsonliklardan so'ng saljuqiylarning yetti iqlimning bosh kenti bo'lmoqqa da'vo qilib turgan dorussaltanati Isfahonga yetib keldi. Unda sulton Malikshoh endigina taxtga o'tirgan paytlar edi. Davlatni mashhur donishmand vazir Nizom ul Mulk idora etardi. Sabboh vaziri a'zam ko'magida avon (devon xizmatchisi) bo'lib xizmatga kirdi, saljuqiylar davlatining idora usulini o'rganmoqqa jahd etdi.

Bu ham ziyon qilmas, chunki bu qudratli davlatning idora usuli-devon boshqaruvi ham nihoyatda mukammal edi. Uni vaziri a'zam barpo etgandi. Qalbida o'zga orzulari bo'lgan Hasan Sabboh havas va goho hasad ila davlat yumushlarini o'rgana boshladi. Vaziri a'zam ila oralarida xiyla oqibat, to'g'rtirog'i, iliqqa moyil munosabat paydo bo'lganda ham ko'nglidagi qora niyati yo'qolmadi, bilaks sobitlashib boraverdi. U tobora ulg'ayib, Nizom ul Mulkning ta'siri tufayli chinakam hukmdor nuqsiga kirayotgan Malikshohning fe'li-xo'yini taftish etarkan, uning shonu shavkatiga boqarkan, kun kelib, ismoiliylar saltanati ham shundayin nufuzga ega bo'lib, barqaror hukumat o'rnatishlarini dil-dilidan istardi. Filhaqiqat, bularning idora usuliga va uni bunyod etgan vaziri a'zamning aqliga tan bermay iloj yo'q. Har bir devon mustaqil ish yuritgani va sultonga, vaziri a'zamga itoat etib, ulargagina hisob bergani kabi bir-birlarini nazorat ham qilardilar. Ayni shu tartib vaziri a'zamning ustuvorligini ta'min etardi... Hasan Sabboh bu nimarsalarni tezdagina fahmladi. Shundan so'ng, favqulodda tafakkur sohibi bo'lmish serg'ayrat va xiylakor bu odamning dilini o'zga bir reja band etdi: u sulton va vaziri a'zam o'rtasidagi ishonchu do'stlikka zarba berib, buyuk saltanatni ichidan yemirmoqlikni niyat qildi. Buning uchun avvalo sulton Malikshohning ishonchiga kirmoq darkor edi. Biroq vaziri a'zamni mahv etmay, bunga musharraf bo'lmoq dushvor edi.

Hasad! Bashariyat boshiga ne-ne sho'rishlarni yog'dirgan, ulug' rejalarini sarobga aylantirib, go'zal tadbirlarni abas etgan, buyuk tafakkur sohiblarini sarsonu sargardon, ochu nochor qilib, oxir oqibat jununlar yurtiga fuqaro tutgan, bir so'z ila aytganda, jamiki

yovuzliklarga doya, ezguliklarga kushanda bo'lgan mana shu hasad otlig' baloi kabir edi. Sabboh ham o'shal baloga muftalo edi. U qulay fursatni poylar va fursat yetdi deguncha vaziri a'zamning oyog'iga bolta urmoqqa shay turardi.

Nihoyat o'shal fursat yetdi. Hasan Sabboh bir kuni sulton qoshida bosh egib, xushomad ila dedi:

-Saltanatingiz bag'oyat sarhadsiz, olampanoh. Aning tasarrufini olmoq, hisob-kitobini tartibga solmoq mushkul. Buning uchun davlatning sarfu xarajatlarini bir boshdan taftish qilib, hisob etmoq zarur. Ana undan so'ngra, ya'ni barcha kirim-chiqimlardan boxabar bo'lingach, keyingi ishlardan hamisha ogoh turib, tadbir ila nazorat etmoq mumkin bo'lur.

Sulton avvaliga uning so'zlarini xushlamayroq tinglayotgan edi, so'ngroq esa ma'nili gap aytayotgandek tuyuldi.

-Xo'sh, ne qilmoq lozim deb o'ylaysen?- dedi u "qani, gapirchi" ohangida.

Hasan Sabboh bir qur taraddudlanib oldi-da, muteona dedi:

-Vaziri a'zam hazratlariga amr etilsa, tokim ul zot peshvoligida buyuk davlatingizning jamiki sarf-xarajatlari hisob-kitob qilinsa.

Andin so'ngra qolgan yumushlar tadorigini ko'rsa bo'lur.

Yosh sultonning ko'nglida evrilish paydo bo'ldi-yu, Hasan Sabbohning muddaosiga qiziqib, o'zida unga nisbatan ojizona mayl sezdi. Shul bois zudlik ila vaziri a'zamni huzuriga chorladi.

-Saltanatingiz mislsiz buyuk va ulkandir, sulton hazratlari. -deya gap boshladi vaziri a'zam o'ktamlik ila. -Aning hisobini olmoq, yanaki taftish qilmoq uchun kam deganda bir yillik fursat zarur, olampanoh. Menimcha, bu borada viloyatlar hokimlarining lafzu iymoniga inonmoq kifoyadur.

Sulton hali g'o'r va shul kabi, toju taxt sururining sarxushligidan mosuvo bo'lib ulgurmagandi. Shuning uchun donishmand vazirining so'zidan ham qanoatlanmay, "Xo'sh, sen ne deysan?" deganday Hasan Sabbohga boqdi.

Hasan o'z muddaosiga yetmoq uchun payt g'animat ekanligini fahmladi-yu xushomad otini jadallatib, so'z aytmoqqa tushdi:

-Agar musulmlar haloskori, olamlar hukmdori sulton hazratlari ijizat bersalar, men bu yumushni qirq kunda uhdalagum.

Vaziri a'zam bir sultonga, bir Hasanga boqdi-yu, indamadi.

-Ijizat!-dedi Sulton tantanavor ohangda.

Hukmdorning amri vojib- shu kundand boshlab Hasan Sabboh ishga kirishib ketdi. Yuragida esa Nizom ul Mulkni tezroq mahf etib, uning o'rmini egallamoq, sulton ishonchini qozonmoq rejasi bor edi. Ayni shu niyati unga kuchu g'ayrat bag'ishlar, aslida ham u o'tkir aql sohibi bo'lib, o'z maqsadi yo'lida har ne zahmatdan qaytmaguvchi edi.

Albatta, vaziri a'zam ham g'abiy (ahmoq) emasdi. O'sha kuniyoq Hasan Sabbohning shum niyatini payqadi. Payqadi-yu aksil tadbir tuzmoqqa tushdi...

Nizom ul Mulk o'zining ishonchli chuhurasini chorlab, uning ilkiga bir miqdor aqcha berdi-da, Sabbohning chuhurasi ila do'st tutinmoqni buyurdi. Achqani esa ham o'zi uchun va ham do'st tutinishi lozim bo'lgan chuhra uchun sarflanishi. Zarurat tug'ilsa, taqi aqcha bermog'ini aytdi. Kambag'al kishilar tez til topishadilar va ular aqchaga hamisha muhtojlik sezadilar, yanaki aqcha deganlarining o'z sehru jodusi ham bor.

Hasan Sabboh chindan ham kuchli shuur va salohiyat sohibi edi-u o'shal mushkul yumushni aytilgan muddatda nihoyasiga yetkazdi. Biroq vaziri a'zamning tadbiridan bexabarligi bois g'aflatda qoldi: o'z chuhurasi vaziri a'zam chuhurasining so'zi ila uning hisob-kitob qog'ozlari orasidan eng zarur bir necha sahifasini o'g'irlab qo'ydi. Turgan gapki, bu nimarsa sulton huzurida oshkor bo'ldi-da, ishdagi chalalik tojdorga adabsizlik bo'lib tuyuldi. Shu ondayoq Hasanni quvib soldi. Qattiq haqoratlangan, izzat-nafsi poymol etilgan Hasan Sabboh shu-shu avvalo Nizom ul Mulkning, undan so'ng sulton Malikshohning ashaddiy g'animiga aylandi, qalbidan so'nmas qasos otashi alanga oldi.

U chuhurasining xiyonatini payqadi-yu, uni bo'g'ib o'ldirdi-da, o'sha kuniyoq Isfahonni tark etdi...

2

Hasan Sabboh shahar tevaragidagi qishloqlarda qachonlardir tanishgan kishilarining xonadonlarida bir qancha fursat yashirilib yurdi. U kutilmagan zarba tufayli endigina o'nglanib borayotgan taqdiri yo'lidan tuyqus og'ib ketganligi bois o'zini yo'qotib, anchagina dovdarab qoldi. Oylab, yillab tuzgan rejalari, muzaffariyat ilinjida qilgan o'ylari dab-durustdan abas bo'lganday, endi bu poymollik umidlari va hatto umriga intihoday tuyulib, vasvasaga tushdi. Ana o'sha vasvasa, tahlika og'ushida o'zi qo'nim topgan xonadon sohiblarining ham yuraklarini yorgulik gaplarni aljirab yurdi. Hufiya bir tariqat, firqa tuzib, jin qavmidan bo'lmish anovi saljuq Malikshohni va uning yuvuqsiz murshidi Nizom ul Mulkni mahv etmoq xususida vahimali so'zlarni aytaverdi. U o'z so'zida qat'iyatli edi va aytayotgan gaplarining uhdasidan chiqa olmog'iga jonu jahonu ila ishonardi, zero u bunga chindan-da qurbli edi. Biroq ayni damda qoqilgani, hamyoni aqchasiz va yolg'iz bo'lgani, dilidagi ulug' rejalarni vasvasa ichra tiliga chiqarib yuborganligi bois tanishlari nazdida savdoyidek ko'rinaradi. Shuning uchun o'shal bir-ikki tanishi ham undan o'zlarini olib qochib, tezroq qutulmoq payida bo'lib qoldilar. Qolaversa, ular buyuk saljuqlar hukmdorining hufiyalaridan, uning g'azabidan xavotirga tushmoqda edilar.

Shundan so'ng Sabboh Qazvin sari, ismoiliylar makoni sari yo'l oldi. U olis yo'lda kechgan kecha va kunduzlarda, Qazvinga borib ham to'zini ruhan o'nglab olguncha sulton Malikshoh, ayniqsa, vaziri a'zam ila xayolan ko'p bor bahs etdi. O'zining ulardan ustun ekanligini takror va takror isbotladi. Goho xayolan Nizom ul Mulkni bandi qilib, so'roqqa tutdi, ming bir qiynoqlar ila azobladi, uni o'ldirishning turfa usullarini kashf etdi. Shu asno chindan ham aqldan og'ishiga bir bahya qoldi. Uni bu ofatdan ismoiliylar aro tutgan mavqe-nufuzi saqlab qoldi...

Ana shunday vasvasaga tushgan kunlarining birida... Mana, yuvindixo'r Nizom ul Mulkni kishanband qilingan holda uning huzuriga olib kirdilar.

-Nechuksan endi, qari sak? -deya so'radi u g'alaba nashidasidan boshi ko'kka yetib.

Biladi-ha, bu vazir deganlari o'ta mutakabbur kimsa, ancha-munchaga bo'yin egmaydi, illo uning o'z maqomiga yarashiqli haybati bor.

-Men-ku hech yo'q odamlarning ilkidan non yeguvchi sak ekanmen,-dedi miyig'ida kulib, mag'rur vazir. -Senchi sen?! Tog'-toshlarda izg'igan o'laksaxo'r, yuzi kulrang shoqolmasmusen?

Ha, u shunday deya oladi, ishonchi komil.

-Tilingni tiy, turkiylarning yuvindixo'ri! Aks holda kesib, o'shal shoqollarga yemish etgum.

Vazir baralla kulib yubordi.

-Sen adashgan sunniy o'zing eroniy bo'la turib nechukki saljuqlarga xodimlik etursen? -deya g'adabladi Sabboh.

-Islomga quvvat berib, ilmu urfonga homiylik qilgan buyuk saljuqiy sulton qolib, sen shoqolga xodim bo'layinmu?! -Vazir



qahqaha otdi.

-Men ismoiliylarning ulug' bir saltanatini barpo etmoqlikni niyat qilganmen, illo o'shal saodatli kun yaqin.

-Tushlaringni Jayhun suvolariga oqiz, sho'ring qurgur! Sen o'zing kim bo'ldingu saltanating ne bo'lur?! O'laksaxo'r aslo lochin bo'lolmas, bilib qo'y!

-Hammasiga sen!.. Sen aybdorsen, qari sak!.. Agar sen bo'lmaganingda, Malikshoh mening ilkimda edi, o'z yo'rig'imga solmog'im tayin edi. Afsuski sening hiylang tadbiringda dom soldi!..

Vazir yanada balandroq tovushda qahqah urib kulaverdi.

-Terisi shilinsin bu nobakorning. Tuz sepilsin! So'ng qorni yorilib, bo'g'ziga qo'rg'oshin quyilsin!..

Bu uning Nizolm ul Mulk ila nechanchi bor to'qnashuvi edi.

Endi u Qazvindagi ismoiliylar qarorgohida bosh ekan, ularning birikuvini tezlashtirib, qat'iy bir iznga solguvchi, so'zsiz itoatga o'rgatguvchi sirli tariqa xususida o'ylardi. Bu sirlikka yanada kuch bermoq niyatida kishilar nazaridan o'zini ola boshladi.

Botiniylar deb atalmish uning qavmi o'zlarini ismoiliylardan ayru ko'rmasalar-da, ular ichra xoslikka ega edilar.

Hasan Sabboh botiniylikni joriy etib, izmidagi kishilarga ta'lim berarkan (sadoqatli kishilari orqali), shuni uqdirardi:

-Olloh taoloni anglamoq, unga yovuq kelmoq, nihoyat yetishmoq uchun shuur va qalbning o'zigina kifoya emas. Buning uchun pokdomon va taqvoli ustoz, imom-pir darkor. Toki jannatiy bo'lmoqlikni ixtiyor etgan odam tavakkul qilib, inonu qarorini ana o'shal pirga topshirmog'i, uning har bir amrini so'zsiz bajarmog'i lozim. Shunda, inshoolloh, imom uni ko'zlangan manzilga eltmog'i tayin. Busiz oliy maqsadga yetmoq dushvor.

Hasan iznidagilarning ixtiyorini ilkida qattiqroq tutmoqlik uchun taqi bir sirli xiyilani kashf etib, joriy qildi. Unga binoan tarrorlikka kirayotgan har bir er parda ortidagi suhbatga ro'baro' etilardi. U yerda bay'at etgan eran jannat, undagi huru g'ilmonlar haqida va imomga sadoqat ila xizmat qilsagina o'shal huzurbaxsh ma'voga yetishmog'i xususida maroqli hikoyatlar tinglardilar. So'ngra esa ularga pinhona ravishda afyun ichkizilib, aqldan mosuvo etilardi. Sarxush bo'lgach, hozirlangan "Jannat"ga eltilar va turfa huzur-halovatlarga oshno etilardi. Bir bora "Jannat"ga tushgan kishi uni qayta-qayta qo'msayverardi. Unga taqi qaytmoqlik esa faqatgina imomning ixtiyori ila bo'lar va buni fidoiylar juda yaxshi bilardilar. Makkor Hasan Sabboh uchun ayni shu nimarsa lozim ediki, iznidagilarning sidqu sadoqatlarini shu tariqa toblayverardi. Go'zal "Jannat" xiyoli, afyuni nashaning ta'siri ularni zabonsiz, fikrsiz va itoatgo'y jonzotlarga evriltirardi.

Sabboh Qazvindagi ismoiliylar mahallasi va undagi qo'rg'on ahlining sardoriga aylanib, qisqa fursatda o'z "Jannati"ni ham barpo etdi. Mahmud ilk bor ana o'sha chog'roq "Jannat"da bo'lgandi. Lekin ismoiliylarning chor atrofini sirlarga to'ldirib tashlagan Hasan Sabboh o'zini qavmini to'fon balosidan saqlab qolgan Nuh alayhissalomdan kam bilmasdi. Shuning uchun u tunu kun xaloskor bir kema- mustahkam qarorgoh haqida o'ylardi. Bu orzu-o'y uni Alamit qal'asi sari eltdi. Uzoq va puxta o'ylangan tadbir tufayli qal'ani ishg'ol qilgach, zudlikda mukammal "Jannat" tarhini hozirladi. Ko'p o'tmay Alamit qal'asiga tutash taqi bir qasr mengiz bino bunyod etila boshlandi. Endi bu paytga kelib Alamit sardori mag'ribu mashriqqa va hatto qudratli saljuqiylar saltanatiga ham dahl qilmoqda edi. Ayniqsa, atrof mamlakatlarning hukmdorlari, davlat arboblari ismoiliylarning tadorigidan tahlikaga tushib bormoqda edilar.

O'sha kunlari ojizroq bir xavotir yetovida va ehtimolki bu avbosh- (bebosh)larga qudratli hukmdorning qahrini ko'rsatib qo'yimoq rejasida sulton Malikshoh o'zining xos amiri Arslon Tosh itoatidagi lashkarini Alamitga yo'lladi. Yaxshi qurollangan saljuqiy qo'shin qal'ani ikki oydan ortiq qamalda tutib turdi. Unga xujum qilmoq, ayniqsa, mustahkam darvoza va devorini buzib kirmoq imkonsiz edi. Buni Arslon Tosh yaxshi bilganidan o'zgacha yo'l tanladi: qamalda tutib turilgan ismoiliylarning oziq-ovqatlari tugab, och-nahor qoladilar va taslimlikni ixtiyor etadilar, deb o'yladi. Filhaqiqat, qal'ada sakson chog'li kishiga uzoq muddatga yetgulik yemish yo'q edi. Shuning uchun ahli qal'a mardona turib, o'lmaslik uchungina ovqat yedilar va ko'pincha ixtiyorlaridagi shifobaxsh tog' suvidan ichib, nafslariga orom berib turdilar. Biroq taslim bo'lmoq haqida xayol ham qilmadilar. Nihoyat ochlik o'z hukmini o'tkaza boshlagach, hiylakor sardor yana bir tadbirni o'ylab topdi. Bir sodiq "fidoi"sining ilkiga noma tutqazib, tunda qal'adan pinhona chiqardi-da, Qazvindagi ismoiliylar huzuriga jo'natdi. Ko'p o'tmay qazvinlik va atrof-javonib kentlaridagi ismoiliylar saljuqiy qo'shinga shiddatli hujum uyushtirdilar. Natijada Arslon Toshdek mohir lashkarboshi bosh bo'lgan lashkar ham chekinmoqqa majbur bo'ldi...

Shunday qilib, Alamit ismoiliylarning ishonchli va barqaror panohiga aylandi...

Muhammad Takash xiyonati bostirilgandan so'ng Nizom ul Mulk zindondan xalos etilib, Arslon Tosh qo'shinining mag'lub qaytganini eshitgach, fursat topilganda Xayyomga shunday degandi:

-Masih Dajjol haqida eshitgan chiqarsen. Rasulilloh sallalolohu alayhi vasallamdan xabar berishlaricha, u o'shal saodat zamonida (payg'ambarimiz davrida) dunyoga kelgan va ayni damda Yaman hamda Shom ummonining orollaridan birida zanjirband turarmish. -Vaziri a'zam o'shanda ayanchli jilmaygandi ham, -Vaqt kelib, Isfahondan chiqadi deyidilar. Bu battol Hasan Sabbohning ajdodlari asli Yamanlik, bir zamon o'zi Isfahonda ham paydo bo'ldi. Ehtimolki, shu Ibn Sabboh deganlari Masih Dajjolmi deyman-da! Faqat uning bir ko'zi ko'r emas xolos...

(Masih Dajjol -qiyomat bo'lishidan oldin odamlar orasida paydo bo'lguvchi, buyuk muhaddislar Payg'ambar alayhissalomdan deb xabar bergan rivoyatlarda keltirilgan yovuzlik timsoli. U paydo bo'lgach, dunyo yomonlikka to'lib ketarmish. Asli u rasulilloh zamonasida tug'ilgan Ibn Sayyod otlig' kimsa emish. Keyinchalik g'oyib bo'lib, Yaman va Shom dengizi orollaridan birida zanjirband qilinganmish.

Muslim hazratlarining rivoyat qilishicha: "Dajjolning bir ko'zi ko'r (chap ko'zining ustini qalin teri qoplagan). Sochi qalin, bir-biriga buralib, yopishib ketgan. Uning jannati va do'zaxi bo'ladi. Uning do'zaxi jannat, jannati esa do'zaxdir".

Abu Nuaym Isfahoniy shunday rivoyat keltiradi: "Biz (otasining hikoyasi) Isfahonda o'zimizga zarur nimarsalarni sotib olardik. Bir kuni yahudiylar o'z qishlog'ida doiralar chalib, xursandchilik qilayotgan ekanini ko'rdik. Men o'sha yerdagi tanishimdan nima gapligini surishtirdim.

-Shohimiz tashrif buyurdi. -deydi u. -Biz uning yetakchiligida arablar ustiga yurish qilamiz, ularni fath etamiz.

So'ng tanishimning ayvonida tunab qoldim. Tongda turib, bomdod namozini o'qidim. Quyosh chiqqanida ular tomonda yana chang-to'zon ko'tarildi. Qarasam, boshi ustida rayhon qubbasi o'rnatilgan bir kishi atrofida yahudiylar daf chalib, o'yinga tushmoqdalar. Men haligi odamning Ibn Sayyod ekanini ko'rib qoldim. U shaharga kirdi va qaytib chiqmadi".)

Vaziri a'zam mutoyiba ila aytgan bu gapga o'shanda Xayyom kulib qo'ya qolgandi. Biroq Hasan Sabboh chindan ham yovuz saltanat barpo etib, Alamitni uning markaziga aylantirgan edi. U hech qandayin Islomiy qoidalarni, shariat hukmlarini, musulmonchilikning asosi bo'lgan haliymlik, beozorlikni mutlaqo tan olmasdi. Yovuzlik hukmida toblangan niyat ila butun turkiy

elga, aslida bani basharga qonli, hufiyona urush e'lon qilgandi. Ayni zamonga kelib, bu usta mutadbirning ilki istalgan ma'voga yetardi. Favqulodda aql va niyat sohibi bo'lgan bu odam favqulodda sirli hamda shundayin qudratli saltanat bunyod etib ulgurandi.

To'rtinchi bob

1

Qazviniy yolg'izlanib qoldi. Dorussaltanatda kechgan so'nggi voqealar, saroydagi bahsu munozara va visir-visirlar uni tobora chetga suraverdi. Biron kimsa kelib, uning yelkasidan turtmagani bilan atrofidagi g'ayur nigohlar, orqavarotdan aytilgan paykon yanglig' so'zlar va ayniqsa, o'z ko'nglidagi vahm uni chekkagir etib borayotgandi. Tanasidagi jarohatlar allaqachon bitib, sog'ayib ketgan bo'lsa-da, o'zini loxas sezaverardi. Qo'rqinchli tushlar ko'rar, ularda goho unga sulton vahshat ila qahr qilar, hammasidan ham, tushiga zindondagi darranda mengiz mahluq-barzangi kirganida cho'chib tushar, so'ng allamahalgacha uxlo olmay vasvasa ichra to'lg'onib yotardi. Bu to'lg'onishlar, ular sabab bo'lgan uyqusizlik uning zohirini aftoda bir ahvolga keltirib, fe'lida ham ixtiyorsiz injiqlik paydo qilgandi. Har safar sultonga ro'baro' kelganida titrab-qaqshab turar, nazdida, uni hozir-hozir jallod ilkiga topshiradigandek tuyulaverardi. Sulton uning xiyonatini sezgandi chog'i, biroq nechukdir o'z holiga qo'yib, Ollohning yozig'ini kutayotgandek edi. Shul bois u goho uyqusiz tunlarida ibodatga zo'r berib, sultonning qahridan panoh tilardi. Ammo bu g'ofil banda Ollohning qahridan qo'rqib, istig'for aytish lozimligini, faqatgina tavba-istig'forgina kishini poklab, Yaratganga yovuq qilishini bilmasdi. Ehtimolki shundanmi, shunchalik ibodat qilgani bilan qalbida mutlaqo halovat sezmas, hatto biron marta namoz va tahorat huzurini his etmasdi. Vasvasasi ortgandan ortib boraverardi.

Vaziri a'zam yoxud Xayyomga yo'liqqanida esa faryod urib, ularning yoqasidan olmoqni, senlarga ne gunoh qildim, deya (bunday paytda bandaning o'z gunohi yodiga kelarmidi) xo'ng-xo'ng yig'lamoqni istardi. Ammo bu ko'rgiliklarning sababchisi o'zi, manovi alpoziga bois esa o'z vujudida kechayotgan vahm ekanligini tan olmasdi. Har safar Xayyom bilan uchrashganida, hoy, nomard, rasadxonaga xojasen, faloncha dinor maosh olasen, sulton hazratlarining ham, battol vazirining ham erkatoyisen, senga tag'in ne kerak, hech yo'q nazm peshvoligini menga qo'y, meni hadeb ta'qib etaverma, deya hammasini aytib solgisi kelardi. Lekin bunga ichidagi nimarsadir monelik qilar, bu nimarsa haqiqatning g'aybiy kuchi va qolaversa, o'z qalbidagi qo'rquv o'shal monelik asosi ekanligini anglamasdi. Hech yo'q Xayyom menga ne yomonlik qildi-yu qachon ta'qib etdi, deb xayoliga ham keltirmasdi. Adovat, hasad haddan oshganida, kishi ko'nglidagi g'araz, qarolik unga sohiblik da'vo qilganida mana shunday ko'rguliklar kelib chiqishini, vujudida savdo ortishining va oxir-oqibat misilsiz yovuzliklarga yoxud o'zini ayanchli halokatiga eltishini u qayoqdanam bilsin!.. Boshimga tushgan bu baloi-ofatlarning asosiy sababchisi o'shal kaltafahm kabutarboz Takashdur, deya yanib qolardi u goho. Agar u bo'lmaganida, taxtga da'vogarlik qilmaganida va yoki hech qursa, dovyurakroq, jur'atliroq bo'lganida bu sho'rishlar boshimga tushmasdi. Chog'ing kelmas ekan, ne qilarding sultonlik da'vosini tutib, ey, xotunmijoz. Ibn Bahmanyorni-ku o'ldirib, falokatni aritdik, sultonning qahoridan omon qoldik. Endi sendan qanday xalos bo'lay? Boshimga tushgan azoblarga chiday olmay, tojidor og'angga meni ham sotib qo'ysang ne qilurmen? Yoki allaqachon sotib ulgurdimikin-a? Axir sulton menga bejo qaraydir-ku!.. Seni bir yoqlik qilmoqlikning mutlaqo iloji yo'q. Og'ang seni hamisha nazoratda tutmoqlikni amr etgan. U ham anoyi emas-sening uzoq-uzoq azoblanishingni, bu dunyoga kelganingga ming pushaymon yeyishingni istaydur. Aytishlaricha, senga savdoyilik xuruq qila boshlagan emish... Qazviniy shuni eslaydi-yu biroz yengil tortadi. Savdoyining so'ziga kim ham quloq turardi...

Filhaqiqat, zindonband etilgan va hamisha bir yoki ikki nazoratchining qarovida bo'lgan sho'rlik Muhammad Takashning ahvoli ancha yomonlashgan edi. Uning sochlari oppoq oqarib, o'zi esa ozib-to'zib ketganlagini hisobga olmaganda ham ba'zan go'yo kabutarlarini olqishlayotganday hayqirib qolishi, gohida esa qup-quruq kaftini oldinga tutib, go'yo suyuqlik jonzotlariga don berayotganday harakat qilishi yurakka vahm solardi. Ba'zan bo'lsa, barmog'idagi zabarjad uzugini boshqa barmoqlari ila o'ynagancha so'zsiz xayolchan o'ltirar va tuyqus "Kabutarlarim, qani mening kabutarlarim?!", deb ho'ngrab yig'lab yuborardi. Yig'lay-yig'lay birdan to'xtardi-da, "Meni o'ldiringlar? O'ldiringlar meni!", deya nola qilib qolardi. Biroq hech kim uni o'ldirmasdi, chunki og'asi sulton Malikshohning amri shunday edi.

Tutqunlikdagi shahzodaning bundayin ahvoli haqidagi mish-mishlar quloqma-quloq bo'lib Qazviniyga yetib kelgan edi. Shuning uchun u endi Takashning sotib qo'yimog'idan unchalik xavotirlanmasdi.

Qazviniyning fe'li azali shunday edi: raqibiga yoxud biron mushkulotga hech qachon yuzma-yuz bormasdi, hamisha orqavarotdan ish tutmoqqa, barcha yumushlarini birovlar orqali bitirmoqqa odatlangandi. U raqibining oyog'iga yiqilishi, unga yalinishi, yig'lashi mumkin edi, biroq hech qachon tikka bormasdi, yonbosh yo'llarni axtarardi. Bu nazmparast bolalikda ham shunday edi. Qazviniyning bolaligi keyinchalik ismoiliylar shahriga aylanib qolgan Qazvinda kechgandi. Asli sunniylardan chiqqan padari juda mehnatkash odam bo'lib, usta kulol edi. Uni shaharda ko'pchilik bilar va hurmat qilardi. U o'z taqdiridan rozi va tirikchiligiga qanoat hosil qilganligi bois yolg'iz o'g'lining ham kulol bo'lmog'ini istardi. Biroq farzandini ming ba'd ustaxonaga tortmoqqa urinmasin, u bir kor etib, ko'chaga qochib ketardi. Ko'chada ham hech neni qoyillatmas, hatto mahalladagi bolalarning o'yiniga-da yurakdan qo'shilib ketolmasdi. Mahallasida devsfat bir chilangar bo'lguvchi edi. U asil pahlavon bo'lganidan kurashni bag'oyat yaxshi ko'rar, mahallalarning bolalarini bir-birlari ila olishuvga solib, huzurlanardi. Bu bellashuvlarda barcha bolalar o'zlarini chinakam muborizlardek tutsalar-da, Qazviniy hamisha chetda turar, biron baquvvatroq bolaning yoniga tushib, uni maqtar, xullas, bolalarni bir-birlariga gij-gijlashga usta edi. Buni pahlavon chilangar ham sezardi, chog'i, "Sen nariroq tur, sendan muboriz emas, tilpolvon chiqadur", deya kulardi. Oqibat shunday ham bo'ldi-undan na kulol va na polvon chiqdi. Kulolchilikdan qutilmoq niyatida otasiga o'qiyman, deb turib oldi. Avvaliga mahalladagi maktabga, so'ngroq madrasaga qatnab yurdi. Ammo ilm bobida ham shashti haminqadar chiqdi. Bu orada bir-ikki nazmparastlarga ro'baro' bo'ldi-yu shoirlikka ishqibozligi ortdi. Shoir bo'lib, nomi olamga ketmasa-da, biron davlatmand yoxud amaldorlarni madh etib, tirikchilik o'tkazish mumkinligini anglab qoldi. Mana shu "hunari", ya'ni maddohlik san'ati ortidan Qazvinni tark etib, falakning gardishini qarangki, dunyodagi eng ulug' hukmdor sulton Malikshohning saroyida turibdi. Kimsan shuaroning peshvosi-amirul shuaro edi, toki anovi yulduzparast Xayyom kelmaguncha. Hozir ham aslida amirul shuaro dir, vale Sulton hamisha o'shal nobakor Xayyomning og'ziga qaraydur-da. Biroq qudratli saljuqiylar saroyida xizmat qilish uning yetti uxlab tushiga ham kirmagandi.

U azali g'ayur ko'ngilli bo'lganidan, Xayyom timsolida faqat va faqat o'z g'animini ko'rardi. Amirul fuzaloning aytar so'zini-ku qo'ying, uning bitgan, atrofidagi muxlisu shogirdlari tufayli tilga tushgan har bir she'ridan ham xavfsirar, pinhoni, go'yoki o'ziga aksil ma'nolar axtarardi. Xayyom dunyoning bebaqoligi, umrning bevafoqligi xususida xo'b va ko'p bitadur. Ana o'shal bitiklarida kulol va gil tamsilini mo'l ishlatganidan badgumon Qazviniy har bir kulolda padarini-yu gilda o'zini ko'rardi. Dili qing'ir emasmi, biroz diqqat ila o'qib, she'rda she'rni ko'rmoqqa jahd etsa, to'g'ri anglamog'i mumkin bo'lgan satrlardan o'zicha turfa ma'nolar

chiqarib olardi. Yana tag'in bu shubhalarini Xayyomga shartta-shartta aytib solmay, o'z ichini yeb, ming'irlab yuraverardi. Bir safar ushbu ruboiyni saroydagi yosh shoirlardan birining lafzidan eshitib qoldi-yu oromini yo'qotdi, tuni bilan uxlolmadi.

Bozorda bir kulol ko'rsatib hunar,

Bir bo'lak xom loyni tepib pishitar.

Loy ingrab aytadi: "Hoy, sekinroq tep,

Men ham kulol edim sendek, birodar."

Bu she'rni eshitgach, shoir nomi boru shoirlik zavqidan mosuvo Qazvinij Xayyomdan o'ch olmoq qasdida nelarni o'ylamadi, ne rejalar tuzmadi deysiz. Biroq so'nggi voqealar...

Mana, endi eng kami vazirlik da'vosida bo'lgan Qazvinij yolg'izlanib, o'z nazdida, hatto sultonning gumoni ostiga ham tushib turibdi. U har yoqlarga intizor va shul kabi xurkak boqib, bir ittifoqdosh, darddosh izlaydur. Ayni kunlarda ana shunday odam paydo bo'lgandek edi. Bu malika Turkon Xotunning vaziri Toj al Mulk edi. Malikaning barcha yumushlarini shu odam yuritar, demakki, u Turkon Xotunning eng ishonchli kishilaridan edi. Qolaversa, shahzoda Mahmudning tarbiyasi ila ham endi shu odam mashg'ul edi. Malikaning xohishi-yu sultonning amri ila bechora Muhammad Takashning saroyi ham vaqtincha unga berilgandi. Aslida esa bu saroy shahzoda Mahmudga tortiq qilingandi.

2

Qazvinij Toj al Mulk ila malika Turkon Xotunning huzurida tanishgandi. Buyuk Bug'roxonning avlodidan bo'lmish oliynasab malika bu she'rparastni o'ziga juda unaqa yaqinlashtirmasa-da, u qadar olislatib ham yubormasdi. Shoirlar amiri uning yo'lidagi bir kesak yoxud najas misolidadur, lekin har tugul kun kelib uni birovga otmog'i yoki o'shal birovni bulg'amog'i mumkin bo'lar. Buni Turkon Xotun juda yaxshi tushunar va shuningdek, Qazvinijning yengil tabiat, xiyonatga moyil ekanligini ham fahmlardi. Shunga qaramay, o'sha kuni uni o'z vaziri Toj al Mulkga "sadoqatli do'stimiz" deya tanishtirdi. Mana, o'shal "sadoqatli do'st" hozir avval Muhammad Takash, ayni damda esa Toj al Mulk sohib bo'lgan qasr ostonasida turibdi.

Qasr ichi ancha gavjum edi. Takashning davrida bunday emasdi, u dabdabasi, kamtarona yashardi. Ko'nglini kabutarlar ishqiy zabt etganidan turli hashamatlarga xushi yo'q edi. Endi esa qasrda xizmatkor kanizaklar bisyor, Toj al Mulk bu saroyga hali chin xoja bo'lmasidanoq, davlantmandlik va amaldorlikning suratiga e'tibor berib, barcha ikir-chikirlarigacha o'rniga qo'ymoq azmida edi. Buni xizmatdagilarning birontasi yumushsiz turmaganligidan ham payqash mumkin edi. Ammo gavjum va muhtasham qasrning tomi, ayniqsa, shahzoda Takash butkul mehrini bergan kabutarlarning cheksiz kishvari (mamlakati) bo'lgan osmon huvillab yotardi. Bu avvallari ham mazkur qasrda bo'lgan kishi uchun yaqqol sezilardi. Endi kabutarlar ham, ularning qo'nog'i ham yo'q edi. Aytishlaricha, Muhammad Takash zindonband etilganidan so'ng kabutarlar mutlaqo parvoz qilmay qo'yibdilar. To Toj al Mulk makon tutguncha qasrdagi xizmatkoru sarbozlar ularni uchirmoqqa ko'p sa'y etibdilar, vale urinishlari zoye ketibdi. Ma'lum fursat o'tib, kabutarlarning yarmi o'libdi, bir qismi qochib ketibdi, ba'zilarini esa xizmatkorlar ishqibozlarga sotib yuboribdilar. Hatto qo'nog'ini ham qo'porib tashlabdilar.

Qasrdagi bu o'zgarishlar va ayniqsa, uninggina qulog'iga urilgan boyagi huvillash Qazvinijni xiyol esankiratib qo'ydi. Biroq sir boy bermaslikka harakat qildi.

Toj al Mulk tip-tiniq suvning so'lim tarovati ufurib turgan favvora yonidagi supada alvon matolardan tikilgan ko'rpa-yu yostiqlarga burkanib o'ltirardi. G'ujanak bo'lib olganidan uning chorpaxil miqti gavdasi ayni damda dum-dumaloq bo'lib ko'rinar, lekin bu surati uni bachkana yoxud ko'rimsiz qilmas, katta sallasi ostida chimirilib turgan yo'g'on qoshlari, tekis taroshlangan soqol-mo'ylabi va ayniqsa, havoli (kibrli) tabassumi unga salobat baxsh etib turardi. U Qazvinijni ko'rib, qaddini rostladi-yu biroq o'rnidan qo'zg'olmadi.

-Marhabo, shoiri zamon, marhabo!-dedi u ovozini tantanavorlik ohangiga yo'g'irib.

Toj al Mulkning o'rnidan turmagani Qazvinijning ko'ngliga g'ashlik solib, izzat-nafsi bir qalqib qo'ydi: axir u ham ancha-muncha odam emas, sulton Malikshoh saroyida amirul shuaro bo'lsa. Bu esa bor- yo'g'i bir ojizai notavonning vaziri xolos! Manmanlik ham shunchalar bo'lurmi?! Ha, mayli, unga ham gal kelib qolar... Qazvinij shu gaplarni xayolidan o'tkazarkan, alamli bir ho'rsinib qo'ydi. Lekin sho'ring qurg'ur g'ofil banda, malika Turkon Xotun Toj al Mulkni chorlab, bu she'rparastdan ehtiyot bo'lmoq lozimligini, hozir u sultonning nazaridan chetda ekanligini aytganidan va shuning uchun uni o'zidan olislatib ham yoxud muruvvati ila taltaytirib ham yubormasligini tayinlaganidan bexabar edi. Ammo, degandi o'shanda malika, Qazvinij hali bizga asqotadi, zero g'animgning g'animi bizlar uchun do'stdir.

Qazvinij supaga ko'tarilayotganda vazir soxtakorona birrov taraddudlanib qo'ydi:

-Afu etgaysiz, janob. Futlarim zirqiraydur, shul bois sizga peshvoz chiqolmadim.-dedi u uznamo ohangda.

Soxta bo'lsa-da, bu mulozamat Qazvinijning qorong'u diliga ozgina nur soldi.

-Bahuzur, vazir janoblari. Qo'zg'olmangiz!

Yuzlariga fotiha tortdilar. Kanizaklardan biri darhol ikki ayoqda gulob keltirdi.

Vazirning yuz-ko'zida har bir nimarsadan huzur-halovat izlamoqqa urinishi shundoqqina balqib turardi.

-Nechuk kamnamosiz, shoir? -dedi Toj al Mulk mo'ylabi ostidagi sadafdek tishlarini namoyish qilarkan.

-Xiyol tobim bo'lmadi, janob.

-G'anim kaltagining zahri uzoqqa tatiydur chog'i?

Qazvinij beixtiyor "yalt" etib vazirga qaradi-sirimdan voqif emasmu bu nokas? Ammo Toj al Mulk bu gapni shunchaki aytgandiki, buni uning beparvo angoridan ham sezmoq mumkin edi.

-Malikamiz omonmilar? Sixatlari yaxshimi? Olampanohimiz valiahdlarimizning duoi jonlarini qilib yuribdilarmi? -Uning nazdida, gapi cho'zilib ketganday tuyuldi-yu hadik ila vazirga bir nazar tashlab qo'ydi.

-Shukur, malikamiz sog'-omonlar.-dedi vazir gapni qisqa qilib. -O'zingiz nechuksiz? G'animgiz-u bu so'zni sirli ohangda aytdi. -dilingizga ozor yetkazmayotirmi?

Qazvinij suhbatdoshining kimni nazarda tutib, bunday deyayotganligini to'g'ri angladi.

-Alarning nayranglari haddan oshadur, janob.

-Xo'sh-xo'sh?.. -rag'bat berdi unga Toj al Mulk.

-Pushti panohimizga meni yomonotlig' qilgani yetmaganday, bu ketishda endi saroydan ham badarg'a ettiradur chog'i.

-Sizchi siz? Nima, biron tadbir qo'llamoqqa ojizmisiz? -Vazir unga sinovchan tikildi.

Qazvinij biroz kalovlanib qoldi, so'ng:

-Tadbir qo'llamoqqa-ku imkonlimen, lekin... -Endi ovozigga sirli tus berdi. -Lekin siz va malikamizning iznlaringizsiz...

Bir muddat o'ychan turgan Toj al Mulq so'radi:

-Xo'sh, ne tadbir qo'llamoqchisiz?

Qazviniy jonlandi:

-Agar anovi Nizom ul Mulku uning haligi nujumparasti bo'lmasa, saltanat qanchalar gullab-yashnamog'i barchaga ayon. Aslida o'shal qari ko'ppakning o'rni sizga yarashli. -U beixtiyor marhum Ja'farak chuchukning ta'biri ila vaziri a'zamni "qari ko'ppak" deya atashga atadi-yu uning o'rnini (ya'ni ko'ppakning o'rnini) Toj al Mulqga ravo ko'rishini aytib yuborganidan bir cho'chib tushdi. Yaxshiki, suhbatdoshi bu so'zga e'tibor qilmadi. Balki u hozir vaziri a'zamning o'rnini egallamoq orzusidan sarmastmidi.

-Demakki, Xayyomning saroyda tutgan mavqei sizga yarashli, shundaymi? -deya so'radi Toj al Mulq uning niyatini fahmlab.

Bu Qazviniyga yoqib tushdi.

-Faqat sizning ixtiyoringiz ila, janob.-dedi kamtarinlik ila.

-Unday bo'lsa, tezroq rejangizni so'zlang.

Qazviniy shoshib vazir tomon yaqinroq surildi va bir nimarsalarni pichirlay boshladi...

3

Layli saroybekaning amriga binoan malika Turkon Xotun va uning vaziri Toj al Mulqga kechki tanavvuldan keyingi salqin sharbatni tutib, bo'shagan idishlarni ilkidagi patnigga solib, olib chiqib ketarkan, xosxonaning hashamatli eshigiga yetganda malikaning sirlilik qorishgan ovozi tuyqus qulog'iga chalindi:

-Qazvin sari chopar qachon yo'lga chiqadi? -Malika muntazam kirib-chiqib turguvchi kanizakni yo butkul payqamay qolgandi, yoki u shunchaki xizmatkor bo'lganligidan biron gapni eshitib, nuchukdir ziyon yetkazmog'i mumkinligiga shubha ham qilmasdi. Layli beixtiyor eshikdan chiqib ketmog'ini paysalladi.

-Ijzat bersangiz,-dedi Toj al Mulq malikaning ovozigga hamohang tarzda, -tong sahardayoq yo'llamoqchi. U nujumparast Xayyomdan tezroq xalos bo'lmoqni ixtiyor etmish.

Kanizakning ilkidagi idishlar eshikga tegib, tuyqus jaranglab ketdi.

Malika "yalt" etib unga qaradi va gumonli nigoh ila bir pas tikilib turarkan, pastroq ovozdada dedi:

-Ijzat. Faqat bu yumushga meni aralashirmang, barcha gapni o'z nomingizdan ayta qoling...

Layli bu mahal eshikdan chiqib bo'lgandi, butun vujudi titrab, idishlarni tezroq joyiga yetkazib, o'ziga kelib olmoq uchun biron xilvatga oshiqardi. Uning har nedan juda tez mutaassir bo'lguvchi o'ksik ko'ngli bir falokat yaqinlashayotganligini sezgandi.

Buning ziddi esa, Xayyom hazratlaridan nechuk xalos bo'lmoqlikni istaydilar? Kim ul zotdan xalos bo'lmoqchi? Yo Olloh!..

Qo'rqib ketayotirmen, deya qaqshardi kanizaklar xonasida o'ltirgan Layli. Xayyom hazratlarining bu dargohda kamnamo bo'lib qolganliklaridan ham biluvdim-a. Shahzodamizning tarbiyasi ila ham endi malikamning vaziri mashg'ul. Ha, aslida Xayyom hazratlari haqidagi sovuq gaplarni malikaning lafzidan ilk bora eshitishi emas bu. Illo tunov kuni ham Xayyom hazratlari va vaziri a'zam xususida bir nimarsalarni shu ikkisi so'zlab o'ltirgan edilar...

Yo qodiri Xudo!.. Endi nima bo'ladi?! Kim kimga chopar yo'llamoqchi? Buni tezroq Mikoilga yetkazmog'i lozim. U shu xayol ila darichadan tashqariga qaradi-allaqachon qorong'i tushgan edi. Uning o'zi bir qarorga kelar... Shahar darvozasidan qandoq chiqurmen?.. Bu zimistonda rasadxonaga qandoq yeturmen?.. Yo Tangrim, o'zing madad ber! Tongni kutsam, fursatni boy berib qo'ymog'im mumkin. Yo'q, hoziroq yo'lga chiqurmen. Xudoga shukurki, darvozabonlarning ham nafi bor. Ozigina aqcha olsam... U shu o'yda atrofiga alanglay-alanglay malika qasridan shitob chiqib ketdi.

Shahar darvozasining qorovullari Laylini ancha tanib qolishgandi. Uning rasadxona tomonga, ayniqsa, kechalari, tez-tez qatnab turishi darvozabonlarga ma'lum edi. Shul bois unga peshvoz chiqqan qorovullardan birining kaftiga bir necha tangani tashladi-da, shaharni tark etdi. Nariroqda o'ltirgan boshqa qorovullarning birovi suyulib, "Yo'l bo'lsin, jonon?" degan qolaverdi.

Tun bag'oyat zimiston edi. Oy koinotning o'zga burjlarida kezardi chog'i, yulduzlarning nuri qarolik qoshida ojizlik qilardilar. Bu qiz ko'nglini battar vahimaga soldi. Qa'ri tundan ham qorong'i bo'lgan handaq ustidagi ko'prikdan o'tdi-yu ojiz bir ko'yda turib qoldi. Qo'rquvga to'lgan yuragi sho'rlik qattiq-qattiq ura boshladi. Shu holda jovdirab, ro'baro'sidagi osmonning chetiga tikildi. Uning adog'ida, ana, rasadxonaning gumbaz va minorasi qorayib turibdi. O'lis emas-ku axir, anovi qirdan oshsa bas, uyog'i oz qoladi. Qiz "yo bismillo" dedi-yu turtina-surtina yo'lga tushdi, biroq qani endi yo'li una qolsa. Nazdida, vaqt tez o'tardi-yu yo'l sira-sira kamaymasdi...

Bu bemahal tashrifdan hayratini yashirolmasa-da, rasadxona qorovuli Laylini tanigani bois Mikoilni darhol chaqirib berdi. Mikoilning sharpasini sezganidanmi o'z joyida yotgan Polvon ham g'alati tovushda o'kirib qo'ydi.

-Nechuk bul bemahalda kelibsen, Layli?-deya Mikoil qizga xavotirli boqarkan, uni qorovulxona yonboshidagi supachaga boshladi.

O'ltirdilar. Layli hamon titrar, hansirardi.

-Bilmadim, men behuda vahm qiladurmenmi... -Qiz gapni nimadan, qanday boshlashini bilmay, kalovlandi.

-Shoshilma, avval nafasingni roslab ol. -dalda berdi unga Mikoil.-So'ng asta bir boshdan so'zlab berursen.

Layli dunyoda tanho suyanchig'i bo'lmish yigitning so'zi ta'sir etib, biroz tin oldi. Nihoyat tilga kirdi:

-Haligi saroyning kattakon shoiri bor-ku...

-Qazviniymi?

-Ha, o'sha kishi Xayyom hazratlaridan xalos bo'lmoqchi emish.

-Kim aytdi buni senga?-deya so'radi shoshib Mikoil.

-Malikamning vaziri aytdi.

-Senga aytdimi?

Qiz "yalt" etib yigitga qaradi. Mutoyiba eturmi, nechuk bunday savol qiladur, deya, devorda lovullab turgan mash'alalarning xira yorug'ida uning ko'zlariga tikildi. Yigit hazillashmasdi, faqat shoshib qolganidan shunday deb yuborgandi.

-Malikamga aytayotganini eshitdim.-dedi Layli, endi u o'zini ancha tutib olgandi. -Tongda Qazvin tomon chopar yo'lga chiqarmish.

-Qazvinga?

-Ha...

Mikoil o'ylanib qoldi: ne falokatni boshlaydur bular? Nechun Qazvinga? Nahotki Sabbohning rorolarini yollamoqchi bo'lsa?! Yo

Olooh, bu ne ko'rgulik?..

-Nega indamaysiz? Ehtimol men yanglishayotgandurmen, biroq shu gaplarni o'z qulog'im ila eshitdim. -dedi qiz xijolat tortib.

-Yo'q, so'zlaringda jon bor, jonim. -Yigit seviklisini ohista quchib, yuzidan o'pib qo'ydi. -Ul ko'ngli siyohlar bir baloi ofatni azm etgan ko'rinadur. Buni hozircha xojamga aytmaganimiz ma'qul. Avval nima gapligini aniqlab olaylik. Seni esa kuzatib qo'yay, yur!

-Mikoil qizni tashqariga yetakladi.

-Bizning taqdirimiz ne bo'lg'ay?-dedi Layli darvozadan chiqa turib, o'rtanib.

-Xojamga arz etdim. Inshoolloh, sulton hazratlari ila so'zlashmoqni va sening izningni olib bermoqlikni va'da qildi.

Mikoil qizni shahar darvozasidan kiritib yuborarkan, "birovga so'z aytni", deya tayinladi. O'zi esa rasadxonaga qaytdi.

U to tun yarmidan og'gunicha ming bir o'ylar girdobida to'lg'onib yotdi. Fursat yetganda tashqariga chiqib, o'tinxona tomonga o'tdi. U yerda timirskilanib yurib, ikki quloqchega keladigan xoda topdi va ortiga qayta turib, uning sharpasini sezib bezovtalangan Polvonning hujrasiga birrov ko'z tashlab, "Hali tong otgani yo'q, yotaver", deb qo'ydi. Qorovulga esa daryoga dom tashlaganligini, hozir undan xabar olgani ketayotganligini aytdi.

To'lin oy ko'kada barkash yanglig' yarqirab turgani bois endi tun bag'oyat oydin edi. Mikoil hali tuzib qo'ygan rejasiga binoan shaharning g'arbiy darvozasi tomon yurdi -agar chopar Qazvinni ko'zlagan bo'lsa, albatta o'sha darvozadan chiqadi. U g'arbiy darvoza yo'qqa o'tib, o'zicha panaroq joy axtardi. Darvozaga tutash yo'l handaq ustidagi ko'prikdan boshlanib, bir chaqirimcha masofadan so'ng ikki tik do'nglik orasidan o'tib, so'lga burilib ketardi. Yigit ana o'sha do'nglik ortiga yashirinib oldi. Shu turishda baquvvat qo'llari ila ayni damda yagona quroli bo'lmish xodani go'yo birovni urayotganday har yonga bir-ikki silkitib qo'ydi. Mikoil bahodir kelbatli, pahlavon yigit edi, ikki-uch o'rtamiyona odam ila olishmoqqa bemalol kuchi yetardi. Bir mahal, ko'zi uyquga ilinay-ilinay deganda, nisbatan sergak turgan quloqlariga ot tuyoqlarining tovushi kelib urildi. Darhol xushyor tortdi. Filhaqiqat, ko'prikdan o'tgan suvoriy markabini tobora tezlatib, u tomonga yovuqlashib kelardi. U yarog'ini mahkam tutib, hamlaga shaylandi. Qismatidan bexabar bo'lgan chopar uchqur otini niqtab, ikki do'nglik orasidan o'tayotganda, sog' yoqda berkinib turgan Mikoil bir sakrab oldinga chiqdi-da, bor kuchi ila choparning ko'ksiga tayoq soldi. Shu lahzaga shuurida "ishqilib boshqa odam bo'lmasin-da" degan o'y bir chaqirib o'tdi.

Chopar zarbdan ortiga qalarkan, ot ham oyoqlarini ko'targancha baland ovozdagi kishnab yubordi va vahima ichida qochmoqchi bo'ldimi, oldinga tashlandi, biroq yerda yotgan sohibining so'l oyog'i uzangiga ilashib qolganligi bois, bir necha qadamdan ortiq yurolmadi. Mikoil bag'oyat chaptastlik ila choparga tashlandi. Chopar esa allaqachon o'lib yotardi-erga ag'darilganida bo'yni sinib til tortmay jon bergandi. Yigit shoshib uning qo'ynini kovladi va katta bir hamyonda aqcha hamda dumaloqlangan maktub topdi. Mo'ljalni to'g'ri olgan shekilli, Layli aytgan chopar shu chiqar. Ammo qorong'ida nomani o'qiy olmadi. Choparning jasadini otga o'ngarib, rasadxona sari yo'l oldi. Rasadxona darvozasiga yetganda minora ustidan muazzinning bomdod namoziga chorlovchi ovozi eshitildi.

U darvozaxonadan kirayotganida ko'zlari ola-kula bo'lgan qorovul ot ustidagi jasadga ishora qilib,dedi:

-Ov baroridan kelgan ko'rinadur, domingga nahang tushibdur.

Namoz fursati g'animat bo'lganligi bois tahorat olmoqqa shoshilayotgan ahli rasadxona va Xayyom ham Mikoilga biron savol qilmadilar. U ham tezlikda tahorat olib, namozni jamoat birla ado etdi.

Ibodatdan so'ng tashqariga chiqishgach, Mikoil Xayyomga ro'baro' bo'ldi.

-Ne gap? -deya so'radi shoir xavotir ila.

Yigit bo'lgan voqeani so'zlab berarkan, qo'ynidan maktubni olib, Xayyomga uzatdi va xamyonni ham ko'rsatdi.

Xayyom tongning ko'kimtir hamda mash'alalarning qizg'ish tulari qorishgan xira yorug'ida chiroyli husnixat ila bitilgan nomani ovoz chiqarib o'qiy boshladi. Maktubning avvalini o'qiganidayoq shoirning ovozi o'zgardi, chunki u Hasan Sabboh nomiga bitilgandi. Unda ismoiliy tarroqlar xo'jasi rosa ta'rif-tavsif etilib, uning nomiga go'zal so'zlar ila hamdu sanolar bitilgandi, so'ngra muddaoga o'tilgandi, ya'ni "bani basharning, ayniqsa, ismoiliylarning dushmani, shariatga zid she'rlar bituvchi kofir Umar Xayyom"ga o'lim farishtasining yo'llanmog'i o'tinib so'ralgandi. Bundan tashqari, buyuk saljuqiylar sha'nini tahqirlovchi so'zlar ham yozilgandi va noma oxiriga "hamisha Hasan Sabboh janoblarining va butun ismoiliylarning duoi jonini qilguvchi hamda jumla olamda ismoiliylar hukmronligini orziqib kutguvchi" Qazviniy imzo qo'ygandi. Xayyom nechukdir g'azablanmadi, aksincha, jilmaydi.

-Bunchalar ham makkorsen-a, ey hasad balosi!- dedi so'ng o'ychan. -Bir sho'ring qurg'ur ko'ngli siyohning manglayiga ajal tamg'asini bosibsen-a!..

Agar shoir bu maktubni sultonga yetkazsa, Qazviniyning qatl etilmog'i aniq edi. Ammo u amirul shuaroqa o'lim tilamasdi. Yoxud bu nomani pinhon qoldirsa, o'zining, nafaqat o'zining, balki butun olimu fuzalo, ulamoi kirom va shul kabi dini Islomning buyuk homiysi sulton Malikshohga xiyonat qilgan bo'lardi. Demakki, maktubni sir tutmoqlik saltanatga xiyonatdir. Shul bois u avvalo vaziri a'zam ila kengashmoqqa azm etdi. Nonushta ham qilmay, jasad ortilgan otning yuganini Mikoilga tutqazib, maktub va tillo to'la xamyonni o'zi olib, zudlik ila vaziri a'zam qarorgohi tomon yo'lga tushdi...

Vaziri a'zam nomaning avvalini o'qiboq otashin bo'ldi.

-O, badkirdor Qazviniy! Ul mal'un xiyonatkordan har neni kutmoqlik mumkin edi, vale bunchalar tubanlikka bormoqligi!..

U maktubni oxirigacha o'qib bo'lgach, Xayyom oldiga surgan xamyonga birrov ko'z tashlab qo'ydi-da, dedi:

-Bu shum xabarni olampanohga yetkazmoqqa burchlimiz. Aks holda u zoti oliylariga xiyonat qilgan bo'lurmiz va jazoga tortilurmiz. Biroq sultonimizning sihatlari kechadan beri biroz nosog' edi. Shu holiga... -Nizom ul Mulk tegishli kishilarni chorlab, amirul shuaro Qazviniy hibsiga olmoqlikni va zindonband qilmoqlikni amr etdi.

-Kuning bitdi baxti qaro nazmparast!-deb qo'ydi so'ng.

Beshinchi bob

1

Qazviniy o'sha kechaning adog'ida choparni jo'natdi-yu qaytib o'z xobgohiga kirdi. Yuragini hadik va vahm kemirayotgan bo'lsa-da, keyingi kunlarda hasad domidagi tashvishlari ila jonsarak yurib, toliqqanmide, namozi bomdodni ham faromush qilib, pinakka ketdi. Ufqning so'nggi ol ranglari ham niliy osmon tusiga qorishib borayotganda cho'chib uyg'ondi. Namozni qazo qilgani yetmaganday dahshatli tush ham ko'ribdi. Ulkan qora ilon uning butun tanasini o'rab olganmish-da, boshini tomog'iga qo'yib zo'r berib bo'g'armish. Qazviniyning nafasi tobora qisilib borar, nariroqda ilonning dumini ushlagancha turgan haligina o'zi Alamitga yo'llagan chopar "Bu Xayyomning iloni, Xayyomning iloni", deya qichqirarmish. U nafas ololmay qolganda entikib uyg'onib

ketdi. Ko'rganlari tush ekanligini bilgach, "astag'furilloh-astag'furilloh", deb ko'ksini siladi. Yotgan ko'yi tushini o'zicha ta'bir qila boshladi: hoynahoy bu qora ilon Xayyom edi, u meni bo'g'ib o'ldirmoqqa urindi. Aslida ham shunday- u meni yo'q qilmoq uchun qulay fursatni kutadur. Mana, endi chopar uning dumidan tutib oldi, demakki, hademay undan xalos bo'lurmen. Ishqilib chopar eson-omon o'z manziliga yetib olsa bas. Qazviniy xushnud kayfiyatda huzur ila kerishdi. Kuning bitdi, ey, sho'rlik yulduz jinnisi, deb qo'ydi shivirlab. Ammo bu aqli noqis o'z tushini butunlay noto'g'ri ta'bir etganini, ko'rganlari balodan xaloslik emas, unga giriftorlik ishorati ekanligini bilmadi. Bilmagani, sezmagani uchun ham shodon o'rnidan turib, yuvinmoqqa hozirlandi. Namozni qazo qilgani uchun ko'ngli biroz xijil ham bo'lmadi.

U xushxo'r nonushtadan so'ng endigina saroyga-xizmatga o'tlanib turganida, vahima ichida xojam-xojam", deya yugurib kirgan xizmatkori ortidan shiddat ila bir necha yarog' tutgan sarbozlar kirib keldilar. Ular o'z boshliqlarining "Ol buni!" degan keskin amriga hamohang tarzda vahshat solib Qazviniyga yopishdilar va uning qo'llarini qayirdilar. Xushta'm yemakning mazasi hali og'zidan ketmagan shoirlar amiri baquvvat bilaklar izmida bukchaydi, kuchanib "ne gap, ne gap?" derkan, o'qchib ham ketdi, tomog'i qirilib, yarim yo'taldi. Ammo uning so'rog'i javobsiz qoldi, sarbozlar pisandsiz ravishda uni tashqariga sudradilar... Rangi-quti o'chgan, qo'rquvdan dir-dir titrayotgan Qazviniy zindonda o'zining eski tanishi bo'lmish zindonbon qarshi oldi. Uning asli turqi sovuq bo'lib, shoirlar amiri avvallari e'tibor bermaganmida yoki oftobdan pana zax zindonda o'tiraverib tusi shunaqa zahillashganmida va yoki hastamida, noayon, faqat hozir bu hissiz, qabr og'zini eslatguvchi bashara Qazviniyning yuragiga battar g'ulg'ula soldi. Ana shu g'ulg'ula ta'sirida bukchaygan zindonbonga mo'ltirab, g'o'ldiradi:

-Siz meni taniysiz-a? Ay... Ayting!.. -Ammo ziyodan butkul g'ofil zindonbon kimga nimani aytmog'i lozim edi o'zi ham bilmadi.

-Taniyman.-dedi sovuq tirjayib. Turfa qismatli mahbuslarga yo'liqaverib, kimning holi nechuk ekanligini bir qarashdayoq bilguvchi bu odam ro'baro'sidagi mahkumning kuni bitganligini fahmladimi, uning qiyshayib qolgan mudarra sallasi-yu zarbof choponiga ham parvo qilmay, kibrli boqib turardi.

Sarbozlar uni xalos etdilar-da, zindonbon tomon itardilar.

-Buni kishanband et!-dedi biri dag'al ovozda.

Qazviniy chopon va sallasini tuzatarkan, zindonbonga iltijoli boqib, ayanchli jilmaydi. Shu payt zindon sohibining ortida darranda mengiz isqirt paydo bo'ldi. U yo tirjaydi, yoki tishlarini g'ijirlatdi, chunki qop-qora patnisdek basharasiga jo bo'lgan katta og'zining ikki cheti tortishib, sap-sariq oyboltaday tishlari ko'rindi-da, g'alati ovoz chiqardi. Qazviniy unga baqraygan tek qotdi, hatto nafas ham olmadi chog'i. A'zoi badani ayni shu isqirt avvalgi safar do'pposlaganidek zirqiray boshladi, yelkalari so'ngaksizday osilib qoldi. U hech bir malolsiz shoirlar amirining avval sallasini, so'ngra choponini yechib oldi-da, ularni so'l qo'ltig'iga qisib, sog' ilki ila bo'yi uning qo'ltig'idan kelgan Qazviniyning girbonidan tutib, oldinga surdi. Bir nafasda mahbusga aylangan amirul shuaro unga so'zsiz itoat etishga majbur bo'ldi.

Isqirt uni chuqur va qorong'i xonaga olib kirdi-da, futu ilkiga kishan urdi, bir og'iz so'z aytmay, ortiga qaytayotganda, uning do'pposlashidan xavfsirab turgan Qazviniy dadillanib,

-Chopon va sallamni bermaysizmi?-dedi chiyillab.

Isqirt ortiga qayrilib, vahshatli irilladi-da, mahbusga gurziday mushtini ko'rsatdi.

Qazviniy qo'rqib ketdi, majolsiz oyoqlari miqti gavdasini ham ko'tarolmay, o'tirib qoldi. Kichkina pachoq basharasi battar kichraydi.

-Hali malikam meni xalos eturlar.-deya oldi isqirtning ortidan ojizona ovozda shivirlab. -Malikam, u kishining vazirlari Toj al Mulk janoblari meni bu ahvolda tashlab qo'ymaslar... -Shularni xayolidan o'tkazarkan, o'zining aybsiz ekanligini qayta-qayta takrorlayverdi. Birdan Hasan Sabbohga yo'llagan maktubi yodiga tushdi-yu seskanib ketdi. Nahotki choparni tutib olishgan bo'lsa? Unda bu sirni kim sezib qoldi-yu kim kimga oshkor etdiykin? Axir bu sirni malika, Toj al Mulk va mendan o'zga hech kim bilmadi-ku... Bu shubha-gumonlardan naf yo'q, biroz sabr etgani ma'qul. Hademay Toj al Mulk kelib uni ozod qiladi, ana shundan so'ngra hammasi ayon bo'ladi...

Filhaqiqat, Toj al Mulk Qazviniyning hibsga olinganligi haqida o'z hufiyalari orqali o'sha paytdayoq xabar topdi. Ammo u darhol shoirlar amirini ozod etmoq uchun chopmadi, aksincha, malikaning huzuriga yugurdi. Malika vazirining so'zlarini eshitiboq fitna barbod bo'lganligini fahmladi. Fahmladi-yu kimning chaqivu tufayli bo'ldi bu, degan o'y shuuriga urildi. So'ng bu sirdan voqifligi ehtimoli bo'lgan kishilarni bir-bir xayolidan o'tkazdi. Vazirdan ko'ngli to'q, Qazviniy esa o'zi kuyib turibdi. Kim bo'lishi mumkin?.. O'yining oxiriga yetolmadi.

-Unda amirul shuaroning holidan xabar olmoq zarur. -dedi malika vazirga sirli tikilib.

Vazir nenidir anglagandek bo'ldi, biroq malikaning maqsadini to'la fahmlamaganligi bois unga savol nazari ila boqdi.

-Ha!-dedi malika muddaomni to'g'ri tushundingiz degan ohangda. -Illo shoirimiz shoirligiga borib ortiq so'z aytib qo'ymasinlar taqi.

Toj al Mulk malikaning amrini tushunib, ta'zim qildi-da, xosxonani tark etdi.

Zindon sirli bir ma'vo edi. Uning qa'ridan gohida tan azoblariga dosh berolmagan mahkumlarning ohu nolalari eshitilsa, goh Ollohga fidolik ila qilinayotgan iltijolar quloqqa chalinardi. Ammo bu ovozlar bag'oyat samimiy bo'lib, sidqu vafo hislariga yo'g'rilgan edi. Bu yerdagi zulumat o'z bag'rida jon talosh bo'layotgan hayotni butun boricha yutib yuborishga urinardi. Mazkur urinish bandi tanlar ichra urayotgan qalblarda miltiragan umid uchqunlari tufayli ko'pincha zoye ketardi. Bunda sadoqatlar bo'zlardi, xiyonatlar qahqaha otardi. Zindonda ba'zan eshitilguvchi aqchalar jarangidan qaysidir sho'rlikning umriga intiho yasalsa, yana kimningdir umriga umr qo'shildardi yoxud uni ozodlikka chiqarildardi. Uzoq yillar shunda qo'nim topib, diydasi toshga mengzagulik alpozga kelgan zindonbon ana shu tartibotga o'rgangandi, ko'nikkandi. Shuning uchun bu yerga kelgan Toj al Mulk ham zindonbon ila uzoq so'zlashib o'tirmadi-da, muddaoga ko'chib qo'ya qoldi-unga nimalarnidir shivirlab tushuntirdi va Qazviniy yotgan xonani so'radi.

Og'ir eshikning shaqir-shuquridan mudom qunishib, xayolchan o'ltirgan Qazviniyning yuragi yorilayozdi. U taqi haligi isqirt kirayotir, deb o'ylagandi, biroq qorong'ulikka o'rganib ulgurgan dahshatga to'la ko'zlari Toj al Mulkni darhol tanidi. Tanidi-yu shahd o'rnidan turib, o'zini uning ko'ksiga otdi.

-Kelishingizni bilardim, janobim, bilardim! Malikam meni tashlab qo'ymasligiga ishonardim? -deya u rostmona yig'lab yubordi. Vazir uning yelkasidan tutdi.

-O'zingizni bosing, shoir.-dedi muloyim ovozda, mehribon boqib. -Siz malikamizning sadoqatli kishisisiz, illo sizni bu ahvolda tashlab qo'yimgizdin ma'ni yo'qdur.

-Qulluq, taqsir, qulluq!-deya bidilladi Qazviniy. -Meni bu yerdan tezroq olib chiqib keting, hazratim.

-Xo'p-xo'p, o'zingizni bosing. Hozir men vaziri a'zam huzuriga borib, sizni ozod qilish xususida ijozat olib kelurmen. Malikam shunday amr etdilar. Ungacha sizni xotirjam qilib qo'yay dedim-da, ey, shuaro amiri.

-Tashakkur, janob!

-Sizni bandi etayotganlarida biron nojo'ya...-Toj al Mulk ovozigga sirli tus berdi.-so'z aytib qo'ymadingizmi, mabodo?

Qazviniy uning ovozigga hamohang tarzda dedi:

-Xotirjam bo'ling, janobim, sirimizdan kimsa voqif emas.

-Ofarin, shoir, matonatingizga qoyil. Endi gap mundoq, men vaziri a'zam huzuriga borib qaytganimcha shu yerda xotirjam dam ola turing, xo'pmi!

Qazviniy vazirning so'zlariga ishonqiramay, uning ko'zlariga qarab mo'ltiradi.

-Tezroq qayturmisiz?

-Albatta.-dedi vazir uning yelkasiga ohista qoqib, mehribonlik ila. -Aslo xavotir olmang.

-Xo'p. -Qazviniy yosh go'dak misol araz qildi. -Zarbof choponim va sallamni ham olib qo'ydilar. Aytgini, janob, qaytarsinlar.

-Hozir qaytarurlar. -Toj al Mulk charpaxil gavdasini o'ziga yarashiqsiz chaqqonlik ila pildiratib zumda g'oyib bo'ldi.

Qazviniy halovatli xush kayfiyatda yengil xo'rsindi-da, devorga tutash supachaga o'ltirdi. Xonaning choqqina darichasidan tushib turgan nurga intiq tikildi. Ertalabdan to hozirgi fursatgacha vujudida kechgan qo'rquv, tahluka va umuman ruhiy zo'rquv uni toliqtirib ulgurandi. Shuning uchun Toj al Mulkning tashrifi hamda mehribonlik ila qilgan muomalasi tufayli yuragida taqi yona boshlagan umid uchquni uning borlig'ini huzurbaxsh, biroq ojiz bir oromga yo'g'irmoqqa tushdi va bu halovatli onlar ortidan qorni ochganligini sezdi. Azali shunday- ertalab yaxshi nonushta qilsa-da, choshgohga borib qorni ochadi va darrov yengil tamaddi qilib oladi. Hozir ham nimarsadir yegisi kelib, og'zi so'lakka to'ldi, qorni g'o'ldiradi. Toj al Mulk tezroq qayta qolsaydi, deya betoqatlandi. Ammo ko'nglida paydo bo'lgan halovatga bu betoqatlik aslo ta'sir etmadi. Aksincha, yanada forig'lik ila supachaga cho'zildi, shiftga termularkan, tonggi tushini esladi. Yo tavba! Shunchalar ham bahaybat ilon bo'ladimi-ya?!..

Shu payt shaqir-shuqir qilib taqi xona eshigi ochildi. Qazviniy xayryatey, deya sapchib o'rnidan qo'zg'olib, o'ltirdi va eshik tomon tikildi. Xira qorong'ulik ichra isqirtning bahaybat gavdasi ko'rindi. Biroq endi Qazviniy undan qo'qmadi, hatto ancha dadillanib, barzangiga do'q urdi:

-Ha, keldingmi, sen zulumat xojasi? Choponu sallam qani? Isqirt hech so'z demadi, tebranib unga yaqinlasharkan, kir-chir tishlarini ko'rsatib ma'nosiz tirjaydi va g'alati ovoz chiqardi. Shu yurishida kelib, Qazviniyning yoniga o'ltirdi. Shoirlar amiri hayrat ichra supachaning narirog'iga surildi. Isqirt esa uning ko'ksiga kaftini qo'yib, ohista surdi, yotmoqqa undadi. Bu manzara huddi onaning o'z bolasini erkalab, uyquga yotqizayotgani yanglig' edi. Qazviniy mudom hayrat og'ushida ixtiyorsiz ravishda chalqancha cho'zildi. Ro'baro'sidagi yirtqich mahluqning baquvvat barmoqlari uning bo'g'zidan asta tutib, tobora-tobora siqa boshlaganida, ko'ksida havo tanqislab, ko'zlari yarq etib ochilib ketdi. Isqirtning muddaosini payqadi, lekin endi kech bo'lgandi-kuchli panjalar uni qimirlagani qo'ymas, majolsiz ilki filning futini tutgan yanglig' uning bilaklariga dahl qilolmasdi, faqatgina oyoqlari jon taloshida tipirchilardi. Ammo bu benaf edi. Uning kichkinagina yuzi battar g'ijimlanib ketdi. Shu bir necha lahza muddat ichida butun hayoti ko'z o'ngidan o'tdi, oxirida Toj al Mulk surati lip etdi-yu, shuurida "Xiyonat!" degan nido yaraldi va eng so'ngida tushidagi bahaybat mori siyoh (qora ilon) ko'rindi. Endi ilon uning tanasiga o'ralib, bo'g'zidan bo'g'a boshladi. Bo'g'averdi-bo'g'averdi, ko'zlari oldida turgan ulkan ilon kattalashaverdi-kattalashaverdi... Nihoyat butun olam zim-ziyo bo'lib qoldi...

2

Vaziri a'zam Nizom ul Mulk amirul shuaroning xiyonati haqida o'ylarkan, hasad balosining ilki bag'oyat daroz, yanaki qamrovi cheksiz ekanligidan hayratga tushardi. Qazviniyning nega muhtojligi bor edi-yu bu qadar tubanlikka ilkin berib, xiyonatga yuz tutdi. Ne qilsa ham qudratli saljuqiylar saltanatining bosh shoiri, buyuk sulton Malikshohning nazari tushgan, katta maosh olguvchi amaldor edi. Xonadoni qasr bo'lmasa-da, qay birovlar orzulagan, havas qilgan hashamatli binoda joylashgandi, o'zi esa bir necha ojizaga sohib edi. Shunday bo'lgach, uning bu qilmishi ko'rnamaklikdan o'zga nimarsa emasdi. Demak, uning dili siyohiga in qurgan hasad balosi shu qadar kuchli bo'lganki, o'zi tuz yegan tuzlug'iga tuflagan. O, xom sut emgan banda-ya, bu g'addor dunyoning cholg'usiga qachongacha xirom etasen?! Vaziri a'zam shundan dog'da edi. Endi bu shum xabarni hukmdorga yetkazmog'i lozim edi, tag'inki hasta hukmdorga. Olamdagi eng og'ir va mushkul yumushlardan biri ham shu-tojdorlarga saltanatda ro'y bergan mudhish hadisotdan xabar bermoq. Xabardor qilinmasa, taqi bir balo, aytilsa, oqibati noayon. Nizom ul Mulk shu andisha ila kunni qaritdi. Namozni asrdan so'ng saroyning hasta sulton yotgan xonasiga kirdi. Olampanohning dardi og'ir emasdi, ehtiyotsizlik tufayli ro'y bergan odatdagi shamollash edi. Uning bo'g'riqib turgan yuzi mudom issig'i borligidan dalolat berardi. Saroyning bosh tabibi uning yonida qo'l qovushtirib tik turar, bir chuhra esa eshik tomonda tek qotgandi. Bu yerda boshqa parvona kishilarning yo'qligi ham sultonning halovat istaganligidan edi.

Vaziri a'zam sultonga yaqinlasharkan, xayolidan shu o'y o'tdi: agar olampanohning ahvoli jiddiy bo'lganida, albatta Xayyomni huzuriga chorlardir, saroy tabibining o'zi bilangina kifoyalaniydimi, demak, dardi og'ir emas... Nizom ul Mulk ojiz, biroq muloyim tovush ila salom berdi.

-Xush kelibsiz, vaziri a'zam!-dedi sulton boshini u tomonga burib, xiyol entikarkan. -Uzr, o'rnimdan turolmadim. -Bu gap shunchaki aytilgan bo'lsa-da, sultonning keksa vaziri a'zamni nihoyatda hurmat qilmog'iga dalil edi. -Isitma toj tutsa, har ne tojdor ham o'sal qolarkan. -Sulton o'z mutoyibasi ila vaziri a'zamga erkinroq so'zlamoqqa izn berdi.

Sohib devon taomilga binoan avvalo hol-ahvol so'radi:

-Sixatingiz durustmi, olampanoh? Olloh taboraka taolo fuqaro g'amini yeb, dardingizga shifo ato etgay, inshoolloh. Illo ahli Islomning tanho xaloskori bo'lmish siz olampanoh hazratlarining aziz jonin omondaligi jumla mo'minlarning birlamchi muddaosi hamda baxtidir.

Vaziri a'zamning mehribonlik va samimiyat ila aytgan bu gaplari sultonga xush yoqdi, shuning uchun u to so'zini ado etguncha jim turdi. Nihoyat Nizom ul Mulk so'zini tugatib, ta'zim qilgach, uni o'z yonidagi yumshoq o'rindiqqa o'tirmoqqa taklif etdi.

-Ne mujda keltirdingiz, hazrat? -deya so'radi sulton jilmayib va shuning ortidan bir ishorat ila yonida turgan tabibga ijozat berdi.

-Biz uchun siz sog'-omon bo'lsangiz bas, olampanoh.-dedi vaziri a'zam shum xabarni tiliga keltirmoqqa bezillab.

-Qulluq, janob... -Sulton o'qchib bir-ikki yo'taldi. -Muddaoga ko'ching!

Vaziri a'zam taraddudlandi.

-Sizning aziz joningiz hasta bo'lgan bir paytda, dardingiz ustiga bu gapni aytgandan ko'ra tilim kesilgani ma'qul edi, olampanoh.

Sultonning yuzi jiddiy tus olib, ko'zlari vazirga qattiq qadaldi.

-So'zlang'!-dedi turkiy lahjada va bu uning g'azabga hozirligidan dalolat edi.

Vaziri a'zam qo'ynidan Qazviniyning hufiya maktubini chiqarib, ne qilay, deganday sultonga qaradi. Sulton nigohi ila o'qimoqqa ijizat bergach, asta tomoq qirib qo'ydi-da, xiyonatkorning nomasini dona-dona qilib o'qiy boshladi. U maktubni o'qirgan, bir vaqtning o'zida, uni bitgan kimsaga bo'lgan nafratini ham so'z ohangi ila ifodalashga urinardi va buning ta'sirini bilmoq uchun sultonga tez-tez nazar tashlab qo'yardi. Hasan Sabboh ta'rifu tavsif qilinish, uning sha'niga hamdu sanolar bitilgan satrlarni eshitgandayoq hasta hukmdorning yuzi battar bo'g'riqib ketgandi. Ammo maktub sohibining saljuqiylardan nolib, hasrat qilgani va vaziri a'zam hamda Umar Xayyomga o'lim tilagani barchasidan oshib tushdi.

-O-oo, ko'rnamak!.. -deya g'azab qildi sulton vaziri a'zam nomani tugatishi bilanoq. -Itning' bolasi! Men uning ichi siyohlig'ini sezardim, biroq bunchaliqg'a borar deb o'ylamag'an edim. -So'ng vaziri a'zamdand so'radi. -Ne chora ko'rdung'iz?

-Bandi etmoqlikni buyurdim, olampanoh. Ne jazo qo'llamoqlikni amr etursiz?

-Yuzi qursin ut itning'! O'lim ham xayf unga, toki shahar chetidagi savdoyixonaga tashlasinlar. Qattiq nazorat ostiga olib, har kuni qamchilasinar. Ammo o'lib qolmog'iga imkon bermasinlar. -Sulton taqi o'qchib, ketma-ket yo'taldi.

Nizom ul Mulk sultonni urintirib qo'yganligidan battar xijolat tortdi, lekin o'zini oqlamoqqa urinib, biron so'z aytolmadi.

-Endi meni holi qo'ying'! -dedi sulton gapni kesib.

Vaziri a'zam o'rnidan turib, ta'zim qildi-da, eshik tomon yo'naldi. Shu payt ortidan taqi sultonning ovozi eshitildi:

-Umar Xayyom ne deydi?

Vaziri a'zam qayrilib javob berdi:

-Ul ham sizning amringizga muntazir, sultonim.

Sulton indamadi-da, toliqdi shekilli, xorg'inlik ila ko'zlarini yumdi.

Nizom ul Mulk o'z manzili sari borarkan, o'ylardi: sho'ring qurg'ur Qazviniy! Shaytoni la'in ko'yiga kirmoqlikning oqibati shu erur. Sen ko'ngli siyohga ne kamlig' bor edi-ya?!..

Vaziri a'zam xonasiga qaytib, Qazviniyini zindondan olib, savdoyixonaga eltmoqlikni o'z kishilariga amr etdi. Buning ortidan uni nazorat qilguvchi kishini ham tayinladi. Shundan so'ng o'z yumushlari ila mashg'ul turganida, zindondan xabar keldi: Qazviniy yuragi yorilib o'lgan emish. Surishtirib bildiki, yo'llagan kishilari uning jasadini o'z ko'zlari ila ko'ribdilar.

Yo Oллоh! Bundan ham xiyonatning isi keladurmi? Yoxud ul nobakorning kuni chindan-da bitganmidi? Qismati ne ila tugamog'iga fahmi yetib... Endi bu xabarni sulton hazratlariga qanday yetkazurmen, yo Tangrim?!.. Vaziri a'zam o'yining oxiriga yetolmasdi.

Qazviniyning mudhish qismati-yu xiyonat haqida o'ylarkan, ko'z o'ngidan ko'plab kishilarning surati bir-bir o'tardi. Ana o'sha o'tishlar asnosi ko'z oldida nihoyat malika Turkon Xotun siymosi namoyon bo'lganida nechundir vujudida ojiz, vale sezimli evrilish kechganligini payqadi. Nahotki, degan fikr urildi shuuriga shuning ortidan. U malikaning Xayyom ikkisini unchalar xushlamasligini bilardi, ammo sultonga qarshi bormog'i mumkinligiga ishonolmasdi. Huddi shu kabi, nega endi aynan hozir bu fikr xayoliga kelib qolganligini angololmasdi. Bu shayton vasvasasi emasmi, o'ylardi vaziri a'zam xayollariga to'zim ilinjida, axir ne bo'lganda ham ul ayol sulton hazratlarining zavjasi-ku!..

Donishmand vazirning shubhasi, to'g'rirog'i, u kishining quvvai hofizasi qilgan bashorat asosli edi. Chunki bu paytda malika Turkon Xotun kutilgan xabar ila ostonasiga bosh urib turgan o'z vaziri Toj al Mulkni intiqlik va xavotir og'ushida qarshilayotir edi. Vazirning alpozini, yuzidagi ifodani ko'rib, istagi bajo keltirilganligini tushungandi, ammo dilidagi xavotir darrov tarqamadi.

Taomili ham shu-da-sirli va mudhish yumushlarning avvalo rejasi tuziladi hamda uning ortidan ko'ngil saltanati osmonida tahlika-yu qo'rquvning ilk nimtatir abrlari zohir bo'ladi, undan keyin rejani amalga oshirmoqlikka amr etiladi yoxud bu boradagi maslakdoshlar izlanadi va taqi xavotir, so'ng reja amalga oshiriladi-da, shubha-yu vahm ichida atrofda gilarining unga munosabati kutiladi, kuzatiladi, sirdan voqifmi-yo'qligini bilmoqqa uriniladi, nullas, vahm uzoq davom etaveradi. Ayni shu mengiz, malika ham bir xavf bartaraf etilganligini bilib turgan bo'lsa-da, vujudidagi xavotir kuchaymoqda edi.

-Xo'sh?!.. -dedi u vazirga qattiq tikilib, bir paytning o'zida ham ichidagi tahlikani bosmoqqa, ham shu bir og'iz so'z ila borki fikru hislarini ifoda etmoqqa urinarkan.

Toj al Mulkning ko'zlari yondi:

-Amringiz bajo etildi, malikam.-dedi u ta'zim qilib, -Shoirilar amiri ja'mi asrorni yelkalab, sohibining huzuriga ravona bo'ldi.

Vazirning mutoyiba aralash so'zi malikaga xush yoqdi va vujudidagi vahm tafti asta-sekin pasaya boshladi.

-Birov payqamadimi?

-Yo'q. Hatto sho'rlik Qazviniyning o'zi ham sezmay qoldi chog'i. -Vazir kuldi.

Malikaning ham labida bilinar-bilinmas tabassum jilva qilarkan, bir vaqtning o'zida nigohiga o'ychanlik indi. Xayol ila ortiga qayrilib, o'rniga o'tirdi va vazirni ham o'trusidagi o'rindiqqa o'tirmoqqa ishorat etdi. Shuurida taqi ertalabdan buyon uni tark etmayotgan savol paydo bo'ldi: bu sirdan kim voqif bo'ldi-yu kim uni anovi qari shofe'inga yetkazdi? Axir chopar haqidagi gap mana shu yerda, mana shu vaziri Toj al Mulk bilan, u zimdan vazirga qarab qo'ydi, boshqa biron bir kimsaning ishtirokisiz bo'lib o'tgan edi-ku. Unda chaquv etgan kim?! Qazviniyning o'zi bu borada birovga so'z aytmoqligi ayni ma'nisizlik. Chopar tasodif tufayli nobud bo'lgan deya o'ylansa, axir u til tortmay o'lgan emishki, birovga gap aytsa. Maktubni izlash bexabar kishining xayoliga kelarmidi...

Shu payt bir kanizak kirib keldi-da, patnisdagi ikki ayoq gulob keltirib, ta'zim ila malika va vazir o'rtasidagi mizga qo'ydi, so'ng ta'zim ila ortiga qaytib, chiqib ketdi. Uni beixtiyor kuzatib turarkan, malika tuyqus kecha xizmat qilgan kanizak-Laylini esladi. Ha- ha, u bo'sag'ada bir nafas to'xtalib qolgan edi. Aniq-ravshan yodida, hatto ilkidagi patnis tushib ketayozgandi. Hoyna-hoy u vazirning gaplarini ham, mening gaplarimni ham eshitgan, eshitganu rasadxona sari chopgan. Uning qilmishlarini, Umar Xayyomning nadimi bo'lmish sangtarosh ila tuzgan ishq o'yinlarini saroybekadan bir necha bor eshitgan. Shunday ekan, chaquv o'shal mo'chag'ar kanizakdan bo'lganligi aniq. Biron zarurat tug'ilsa, g'animga aksil zarba bermakda yoyga paykon etmoq umidi ehtiyotida unga bir so'z demay, o'z holiga tashlab qo'ygandi. Mana, endi keldi o'shal zarurat, o'shal on. Asli olov qonli bo'lgan malikaning ko'zlari o'ch ilinjida yovuz chaqnaib, yuzi yondi. Ul yulduzparastning joni metin bo'lsa, endi uning xaloskorlari zavol topgay.

Malika ikki bora qars urdi. Ostonada bir kanizak paydo bo'lib, amringizga muntazirman, deganday ta'zim qildi. Turkon Xotun unga saroybekani chorlamoqlikni buyurdi.

Ko'p o'tmay, husnini allaqachon boy bergan o'rta yoshlardagi saroybeka kirib keldi. Uning yuz-ko'zidan g'oyat tasqaralik yog'ilardi. Bu malika uchun ayni muddao edi shekilli, hech qachon uning yuz-ko'ziga, yurish-turishiga e'tibor qilmasdi.



-Haligi jazman tutgan qulvachcha qayerda?-deya so'radi u dag'al ovozda.

Saroybeka ilkini ko'ksiga qo'yib, ta'zim ila dedi:

-Xizmatda edi, malikam.

-Chorla!

Saroybeka chiqib ketgach, vazirga yuzlandi.

-Bu zinokor kanizakning qilmishini qarang.-derkan, qo'shib qo'ydi. -Pokiza dargohimizni bulg'ab!..

Vazir bosh silkib uning gapini ma'qulladi, ammo bir ajib sirdan voqif kishiday bilinar-bilinmas jilmayib ham qo'ydi.

Nihoyat saroybeka va Layli malika huzurida qoyim bo'ldilar. Layli bosh egib turar, uning odmi, ammo ranglari yorqin libosi o'ziga juda-juda yarashqli edi, beli va ko'ksi ko'zga yoqimli tarzda sirilib ko'rinardi. Bu Turkon Xotunning hasadini keltirdi, kanizakning

ayni damdagi xush suratini ishq tufayli deya ko'nglidan o'tkazdi. Qizni bir lahza devqomatli, qoya yanglig' sangtaroshning quchog'ida tasavvur etib, tani jimirladi. U bir umr ana shunday mardni orzulab kelardi va zarur bo'lsa, butun boyligini o'shal mardning oyoqlari ostiga tashlamoqqa rozi edi. Umar Xayyomga ham vujudidagi shu o't, shu tashnalik bois talpinardi.

Nadomatkim, osmonga termulgan nujumparast zamindagi yulduzni ko'rmadi, payqamadi yoxud payqamoqni istamadi. Endi esa dunyoning yarmini egallagan buyuk saltanatning malikasi bir zoti past kanizakning baxtiga ham havas, ham hasadda turibdi. Bu ham bo'lsa bashar fe'lining yechilmas jumbog'i...

-Kecha oqshom qayerda eding?-deya so'radi malika uni nigohi ila ta'qib etarkan.

-Shunda edim, malikam. -dedi Layli boshini ko'tarmay.

-Yolg'on aytursen!-Malikaning ovozigga qahr ohangi qo'shildi va so'zla deganday saroybekaga qaradi.

-Kecha oqshom allaqayerga borib qaytdi. Nazarimda, taqi rasadxonaga bordi.-dedi saroybeka tez-tez so'zlab.

-Bunga ne javob qilursen?

Layli so'zsiz turaverdi.

-So'zla!..-deya o'shqirdi malika.

Layli bir qalqib tushdi, lekin inadamadi. U, chamasi, o'zini oqlamoqqa urinmog'i nafsiz ekanligini, qahri qattiq malika allaqachon o'z hukmini chiqarib bo'lganligini fahmlab turardi.

-Sen zinokor tabarruk dargohimizni bulg'ading, illo o'shal xushtoring ila sangbo'ron etilmoqqa loyiqsen! -Malika endi Toj al Mulkga o'girildi. -Vazir janoblari, buni bandi etib, o'z hibsonamizga elting. Uning taqdirini sulton hazratlariga havola eturmen.

Vazir saroybeka va Laylinig ortidan eshik tomon yurganda uni malika to'xtatdi.

-Erta choshgoh mahali amirul fuzalo Umar Xayyom janoblarini saroyimizga taklif etsangiz.

Vazir "xo'p bo'ladi", deya ta'zim bajo keltirib, chiqib ketdi.

## Oltinchi bob

1

Malika Turkon Xotun Xayyom xonani tark etgach, butun vujudi titray boshlaganini sezdi. Miz ustidagi may to'la qadahni ilkiga olib, "La'nati eroniy!" dedi-yu bir nafasda sipqordi va lablarini qimtib, ko'zlarini yumgancha turib qoldi. Endi bas, deya o'yladi shu ko'yi, hammalarningning kuning bitdi! Senlar qoraxoniylar naslini hali bilmas ekansanlar. Sen ham, anovi shofe'in ham va hatto...

Fikrini davom ettira olmadi, u ayni damda bu haqda o'ylamoqdan ham qo'rqdi. Mening so'zimni rad etdi-ya bu nujumparast! Xayyom aytilgan paytda malikaning huzuriga kirdi. Malika uni yaxshi kutib oldi, biroq shoirning ko'ngli g'ash edi, chopardan topilgan maktubga Turkon Xotunning ham dohilligi bordek tuyulardi, nazdida. U xonaga kiriboq malikaning yuziga e'tibor berdi:

ha, sultonning suyakli xotini mudom go'zalday tuyulsa-da, aslida yillar o'z hukmini o'tkazayotganligi uning chehrasida yaqqol ko'rinib turardi. Faqat asli ehtiros bandisi bo'lgan malika bul haqiqatga yon bermaslikka urinardi xolos. Filhaqiqat, uning yuzida oshkora so'lish zohir edi. Ammo ko'zlari!.. Uning nigohida, libosi ostidan ham balqib turgan tanasida bir olov yashardiki, u har qandayin erni kuydirmog'i tayin edi. Uning ko'zlariga dosh bermoq bag'oyat mushkul edi.

Yuzma-yuz o'ltirdilar. Malika uning hol-ahvolini, ilm borasidagi va rasadxonadagi yumushlarini so'radi. Xayyom ham odob va bosiqlik ila javob qaytardi.

Malika suhbat avvalida zimdan Xayyomning yuziga e'tibor qildi. Shoirning chehrasida hamisha sobit bo'lgan shiddat hozir sezilmasdi, uning o'rnida yoqimli bir nur, muloyimlik zohir edi. Yo tavba, bu ne evrilish? Avval-ku bu nujumparastning shiddatli yuzidan, ehtiros yog'ilgan nigohidan umidvor edi. Endi esa...

-Amirul shuaro Qazvinining xiyonatidan boxabar bo'lsangiz kerak? -deya so'radi makkora malika suhbat qalovini avjlantirmoq niyatida.

-Albatta. -dedi Xayyom uning ko'zlariga beparvo boqib. Negadir endi u o'trusidagi qudrat va makr sohibasi bo'lmish malikaga ortiq iltifot ko'rsatmasdi. Malika esa uning nigohidagi ma'noni uqmoq niyatida va yoki uqqan bo'lsa-da, undagi kutilmagan bu dadillikdan lol qolibmi, bir muddat tikilib qoldi. Shoir buni o'zicha tushunib, taqi nimadir demog'i lozimligini xayolidan o'tkazdi va:

-Inshoolloh, ul xiyonatkor bandi etilmish.-deb qo'ydi.

Ana shundan so'ng malika Turkon Xotun xotirjam tortganday bo'ldi.

-Ha, Ollohga shukur. -Endi malikaning ovozi xiyol mayinlashdi va hatto iltijoli tus olganday tuyuldi. -Yaxshiki, onhazrat sultonimizning sizdek sadoqatli xeshlari, nadimlari bor. Aksi o'lsa, ul nojins nobakorlar olampanohning aziz jonlariga ham dahl qilgan bo'lurmidilar. Olloh saqlasin!-Malika qo'rquv ila yoqa tutgan bo'ldi.

Ayni damda Xayyomning shuuri bag'oyat oydinlik kasb etgandi. U malikaning shum niyatini, manov ayyorona tadbirini aniq-ravshan fahmlab turardi. Ammo sezgisini tashiga chiqarmadi-da, "xo'sh, ne deysan?" ma'nosida boqqancha o'ltiraverdi.

Yana tag'in malika tilga kirdi:

-Sultonimizning do'stlari bizning do'stlarimizdir. Shundog' ekan, bizning saroyimizda ham do'stu yorlarimiz jam bo'lmog'ini ixtiyor eturmiz.-malika shoirning yuzidagi o'zgarishni kutdi, biroq muddaosiga yetolmadi. -Qolaversa, valiahdimiz ham sizdek donishmand zotning tarbiyasiga mudom muhtoj. Erta o'tib indinga taxtga o'ltirsa... -U gapining davomini aytmadi, lekin ohangidan sultonning kuni bitib qoldi, hademay taxtga mening o'g'lim o'ltiradi, joningdan umiding bo'lsa, tadorigingni ko'r, degan tahdidli fikrni uqish mumkin edi.

Xayyom boshini xiyol quyi egib, dedi:

-Shavkatli shahzodamizning biz kabi ojiz ilmparastlarning tarbiyatiga aslo muhtojligi yo'qdur. Ulug'likda biz ul zotga

muriddurmiz. Yanaki olampanohimizning soyai davlatlarida barpo etilgan rasadxonada ham bag'oyat yumushlar ko'paymoqda. Nihoyat malikamizning iltifotlari va rag'batlari ko'magida faqatgina ilm ila mashg'ul bo'lmoqlik niyatidamen.

Malika tag'in unga qattiq tikilib qoldi. Tikilib turarkan, sen qaysi sirdan voqifsanki, bu qadar mag'rursan, degan ma'no zohir bo'lgan nigohi asta-sekin asliga qaytib, yovuzona tusga kira boshladi. Ammo Xayyom bundan xabarsiz edi, chunki uning ko'zlari hamon quyida edi.

-Ixtiyoringiz yo'q ekan, nachora!.. -Bu so'zlar tishlar orasidan aytildi go'yo. Malika o'rnidan turdi, Xayyom ham unga ergashdi. -Ilohi, omon bo'lg'aysiz. -Malika shu so'z ila xayrlasharkan, do'stligimiz tamom, deganday ham bo'ldi.

Aslida ular hech qachon do'st bo'lmaganlar va buni ikkisi ham juda yaxshi bilardilar. Malikaning uzoq yillik bu urinishlari esa shoirni ayollarga xos bir ehtiros ila xushlagani, keyinchalik bo'lsa, undagi toqat qilib bo'lmas g'urur tufayli yuzaga kelgandi. U endi ne amal ila bo'lsa-da Xayyomning tik boshini egmoqqa, mag'rur va o'tkir nigohini sindirmoqqa sa'y etardi. Har safar uning ko'zlariga ko'zi tusharkan, o'zini aybdorday his etar, faryod urib, ro'baro'sidagi she'rparastning oyoqlari ostiga o'zini tashlamoqlikka tayyor ekanligini sezib qolardi. Unga alam qiladigani ham shu edi -u shoir qoshida o'zini ojiz his qilardi. Aslida chinakam ayol uchun bu yanglig' ojizlik fazilat va baxt ekanligini u bilmasdi...

Qasos o'tida jizg'anak bo'la boshlagan malika shoir chiqib ketgach, bir shumlikning rejasini tuzib, ichida uni amalga oshirmoqqa qattiq ahd qildi-yu nozik barmoqlari musht bo'lib tugildi...

Sultonning sixati ancha yaxshilaniy qolgandi. Yo'tali kamayib, isitmasi butunlay tushgandi. Endi yuzi-ko'zi bo'g'riqmas, xiyla madorsiz bo'lsa-da, kayfi durust edi. Bosh tarafida qoyim turgan qul xo'ton (elpuvchi) uni ohista yelpir, nariroqda esa saroy tabibi odatdagidek qo'l qovushtirib turardi. Butun xonada ko'ngilni allalovchi osudalik hukmron edi.

Malika tavoze ila salom berib kirib kelganida sulton bir qo'zg'olib, rafiqasiga mulozamat ko'rsatgan bo'ldi. Agar tani nosog' bo'lmaganida malikani albatta tik turib qarshilardi. Buni malika ham sezdi, shuning uchun sulton tomon shitob talpinib, erka bir ovozda dedi:

-Qo'zg'olmangiz, sultonim!-U hukmdorning oyoq tarafiga omonat o'ltirdi. -Tuzukmisiz, olampanoh?

-Shukur, malikam.-dedi sulton xotiniga biroz hayrat va mehr ila tikilarkan. Chunki uning suyakli xotini ayni damda gul-gul ochilib ketgandi. Egnidagi harir libosi er zotining vujudiga o't solgulik darajada uning go'zal qomatini namoyish etardi, pushtiga moyil yuzi lovullar, gilos mengiz lablaridan esa shahvat yog'ilardi. Ha, malika chindan ham go'zal edi, aksi bo'lsa, ne-ne navnihol sohibjamol kanizaklarni ko'rgan sohibi tojning qonini bu qadar ko'pirtira olmasdi. Filhaqiqat, sulton har safar malikaning jodusiga ro'baro' kelganida ilon avragan jonzot holiga tushardi, biroq bu ko'yi o'ziga juda-juda xush yoqardi.

Malika tilla-yu yoqut uzuklar og'ushidagi oppoq, nafis barmoqlari ila sultonning oyog'ini uqalay boshladi.

-Olloh shifo bersin, sohibi olam, sog'intirdingiz-ku!

Sultonning joni o'rtanib, osuda qoniga olov indi. U bilinar-bilinmas ishorat ila mudom hozir turgan tabibga ijizat berdi, so'ng xotiniga hirs ila tikildi. Yo tavba, bu behishtning qay go'shasidan chiqmish hurki, on qadar malohatlidir!

-Sizga shundayin bir kechani hozir eturmenki... -dedi malika ovozigga sirli tus berib, kafti ila sultonning qorni va yonboshlarini silarkan.

Sulton sapchib o'rnidan qo'pmoqqa urindi:

-Hozir, jonim!..

Biroq malika uning ko'ksidan bosdi.

-Yo'q, olampanohim, hali kamquvvatsiz. Siz menga faqat bugungina kerak emassiz-ku, jonim. Avval darddan forig' bo'ling, men esa ul damni intizorlik ila kutarmen.

Sulton malikaga itoat etib, boshini yostiqqa qo'yarkan, bir ho'rsinib, ichidagi o'tning taftini bosdi. Malika esa uning yuz-ko'zini silay boshladi. Yuzi erining yuziga yaqin kelgach ko'zida tuyqus ma'yuslik zohir bo'lib, bilinar-bilinmas ho'rsinib qo'ydi. Sulton buni darrov payqadi.

-Nechuk g'amgin tortdingiz?

-Shunchaki o'zim... Parvo qilmang, sultonim!

-Yo'q, so'zlang. Nega buncha tez o'zgardingiz?

-Sizning bu dardingiz ustiga tag'in... -Malika eriga andisha ila nozli boqdi.

-Men soppa-sog'men. So'zlang, jonim!

-Sizning aziz boshingiz xiyonatchilar qurshovida qolganidek, mening ham dargohimga nopoklik oralabdur. -Malikaning ko'zlari yoshlandi. -Bundan xabar topganimdan buyon sira-sira o'zimga kelolmayotirmen. Nihoyat bu mudhish hodisotdan sizni boxabar etmasam bo'lmasligini tushundim.-Bu so'zlaguvchi mushfiq ayol hozir doimgi qahri qattiq, shiddatkor malikaga aslo o'xshamasdi. Sulton xushyor tortib, dedi:

-Yig'lamang! Xo'sh, ne hodisot ro'y berdi?

Malika ko'z yoshlarini artib, jiddiy tus oldi.

-Kanizaklarimdan biri rasadxonadagi bir sangtarosh ila buzuqlik qilibdur. -Makkora Turkon Xotun qaddini rostlab, go'yo uyalganday ko'zlarini olib qochdi.

-Ne chora ko'rdingiz?

-O'z hibsonamda bandi etdim. Lekin...

-Xo'sh?-dedi sulton uni tezroq gapirishga undab.

-Agar ul betavfiqqa og'irroq jazo qo'llamasak, o'zga qullar ham ko'ngillari ko'yiga yura boshlarlar.

-Darra urdiraylikmi?

-Bu kam, olampanoh. Ul nobakor buzuqini sangsor (toshbo'ron) etmoqlikni so'rarmen.

Sulton biroz jim qoldi.

-Shariatning hukmini bilmoq kerak.

-Axir sizning shonu shavkatingiz qoshida shariat ne, olampanoh. -Malika taqi Sultonning ko'ksiga suykaldi. -Bu tadbirimiz ila o'zgalarga ibrat ko'rsatmog'imiz lozim. Aks holda... Keyingi kezlarda judayam ko'nglingiz yumshab borayotir, sultonim. Avom bu yaxshiligingizni o'zgacha tushunmog'i ham mumkin.

Ha, tobora ko'ngilchan bo'lib borayotganligini uning o'zi ham juda yaxshi bilib turibdi. Mana shu qilichidan qon tomgan qahri qattiq sulton Alp Arslon zurriyodi ekanligiga birov ishonmaydi. Padari buzrukvori jinoyatkorlar qoshida o'y surib o'ltirmasdi, darhol yo boshini uzardi, yo osdirardi, yo boshqa jazo qo'llardi. Bu esa, mana, bir necha yil bo'libdiki, hali biron marta biron

kishini o'limga hukm etmabdi. Shu durustmi? Yo'q, olamning yarmini zabt etgan hukmdor uchun aslo durust emas. Ehtimol xiyonatkorlarning ziyoda bo'lib borayotganligiga ham ayni shu shafqatlilik bo'lsin.

-Bosh maydonda avom ko'z o'ngida sangsor etmoq lozim, sultonim. -Malikaning shivirlaguday aytgan bu so'zlari uning xayolidan o'tayotgan fikrlarga hamohang keldi.

Sulton bir nuqtaga tikilib qoldi.

-Hukmingiz ne, olampanoh? -malika bu so'rovi ila unga taqi rag'bat berdi.

-Buyuring, -dedi sulton hamon o'sha nuqtaga tikilganicha. -qatlg hozirlik ko'rsinlar.

Malika yashnab ketdi.

-Xo'p bo'ladi, sultonim!..

2

Umar Xayyom ertasi subhi sodiqda vaziri a'zam huzurida bo'ldi. U kishidan Mikoil va Laylining nikoh tuzmoqlari uchun hukmdordan ijozat olib bermoqligini o'tindi. Vale kekxa vazirning shashti past, boshi xam ekanligini keyinroq fahmladi. Bilsaki, zindonband etilgan Qazviniy tuyqusdan jon beribdi. Uning o'limi taqi bir xiyonat tufayli ro'y berganligini, bu xiyonat esa har ikki xiyonatni yashirganligini fikr etgan vaziri a'zam mazkur shum xabarni sultonga yetkazishga yetkazibdi-yu, ammo o'yilganlarini tashiga chiqarmabdi. U ana shundan dilgir bo'lib turgan ekan. Shul bois shoirning o'tinchi o'tinchligicha qolaverdi, chunki Nizom ul Mulk hozir sulton hazratlari ikkisining orasiga o'zga hech bir gap jo bo'la olmasligini aytdi. Aslida sulton ham ketma-ket yuzaga kelgan bu hodisotlar ortida adovat morining yovuz boshi pinhon turganligini juda yaxshi anglagan edi.

Lekin Xayyom chekinmoqni istamasdi, chunki zabardast kelbatli sangtaroshi, yanaki mahrami Mikoilning iltijoli va munglig' nigohi ko'z o'ngidan ketmas, agarki shu bugun olampanohga ro'baro' kelmasa, sho'rlik sahroyi ko'zli yigitning arzi holini ul zotga yetkazmasa, ular boshiga bir sho'rish yog'iladigandek tuyulaverardi. Shundanmi, vaziri a'zamning ta'qiqiga qaramay, nadimlik mavqeidan foydalanib, sulton Malikshohning huzuriga kirdi. Biroq hukmdor allaqachon darddan forig' bo'lgan esa-da, uni xushlamay, hasta kishi yanglig' qovoq uyib qarshi oldi. Shoir bunga ham sabr qildi-da, arzi hol etdi. Saljuqiy mayliga umid bog'ladi. Lekin Malikshoh o'zgaradi, uning gapini qo'rs bir ovoz ila bo'ldi:

-Saltanatning shuncha muhim yumushlari turganida ikki qulning taqdiri xususida bosh qotirmoqqa menda na toqat bor, na istak.

-Olampanoh!.. -dedi Xayyom iltijoli ovoza necha bor yaqin suhbatlarda orttirgan haddiga suyanib.

-Yanaki ul buzuqi kanizak hukm etilgan!- Sultonning so'z ohangi tobora vahshatga yo'g'rilib borardi.

Xayyomning ko'zlari olayib ketdi, allaqachon tez-tez ura boshlagan yuragi qafasini yormoqqa chog'landi.

-Ne hukm?!-deb yubordi u beixtiyor.

Sulton unga g'azabkor boqdi:

-Bu ne adabsizlik, amirul fuzalo?!-dedi va yuzini ters burarkan, qo'shib qo'ydi, -So'zim tamom!..

Endi hech bir gapga o'rin qolmagandi. Shoir mung'aygan ko'yi ortiga qayrilib, eshikka yo'naldi, futlari uning jismini zo'r-bazo'r ko'tarib turgandek og'ir-og'ir qadam bosarkan, tojdorlarga chin yoronlik begonadir, degan qadim hikmatga taqi bir bora iymon keltirib borardi. Qani, shuncha yillik do'stlik hurmati?! Qani, qilgan mehnatlari hurmatiB !? Qani?!.. Qani?.. Endi bechora Mikoilga ne so'z aytadi? Suyganing hukm etilibdi deydimi?.. Hukm?! Bu ne hukm bo'ldi? Yo Olloh, hukmdorlar qahridan xeshlarimni o'zing asragaysen. Axir ular uchun avom taqdirining bir zarrachalik e'tibori yo'q ekan-ku! Demak... Demak, oh urib, isyonda osiy bo'lgan ne-ne mardlarning shakkokligi, isyoni Yaratuvchiga emas ekan-da. Ular bu g'addor dunyoga, unda tangrilik da'vo qilgan shohu sultonlarga isyon qilibdilar-da. Nahotki shu oddiygina haqiqatni anglamoq uchun bir inson umrini yashamoq lozim bo'lsa?.. Nahotki shuning uchungina yashab o'tilsa?!.. Xayyom rasadxona darvozasiga yaqinlasharkan, ichkaridan kelayotgan sarosimali g'ala-g'ovur va o'jiz yig'i-sig'i ovozi qulog'iga chalinib, qadamini jadallatdi.

Rasadxona sahnining ro'baro'dagi burchagida-o'tinxona va Polvonning hujrasi oldida bir qancha kishilar jam turardilar. Birinchi bo'lib Xayyomga ko'zi tushgan Isfazariy yig'lamsirab unga peshvoz chiqdi:

-Falokat, ustoz!..

Xayyomning kelganligini sezgan ahli rasadxona ikki yo'qqa ayrilib, o'rtada "yo'lak" paydo bo'ldi. Hamon o'rnidan jilmay, xavotirdan karaxtlangan shoirning ko'zlari lahzalarda vujudga kelgan "yo'lak" adog'idagi qonga belangan jasadga tushdi. Tushdi-yu butun jismini titroq qamrab oldi. Ixtiyorsiz odimlar ila jasadga yaqinlashuvi asnosida, nigohiga ketma-ket urilayotgan tanish nimarsalar-jasadning etigi, chakmoni, katta boshi-yu va nihoyat yirik gavdasi tufayli shuurida uning kim ekanligi oydinlashib borardi. Bu Mikoil edi. Uning yuzi, bo'yni-yu ko'kragi titilib ketgandi. Xayyom o'zini tutib qololmadi, avvalo ketma-ket o'qchirkan, so'ng oshkora yig'lab yubordi. Jasadning yoniga tiz cho'kdi va barmoqlari ila sadoqatli birodarining yuzinimi yoki boshini silamoqchi bo'ldi. Biroq bu niyati niyatligicha qoldi, chunki ixtiyorsiz ravishda o'ng ilkini ko'tardi-yu Mikoilning na yuzida va na boshida qon tegmagan joy topolmadi. Qonga kaft bosmoqlikka esa jur'ati yetmadi.

-Bu ne ko'rgilik?-deya oldi arang yig'i aralash.

-Polvon...-dedi uning yonboshiga asta cho'k tushgan Rindoniy ham o'rtanib.

Shundagina yopiq eshik ortida vahshiyona irillayotgan ayiqning ovozi shoirning qulog'iga kirdi. U juda ham bezovta edi.

-Qutiribdurmi?-deya so'radi Xayyom bunga o'zi ham ishonmayotgan bo'lsa-da.

-Alomati ko'rinmaydur.-dedi taqi Rindoniy javob berib.-Ammo qarib qolgani rost edi. Axir... -gapining uyog'ini aytmadi.

Xayyom esa uning ne demoqchi ekanligini darrov payqadi. Ha, el og'zida harki ayiqboz nihoyat o'z ayig'i changalida jon taslim etmog'i haqida turfa rivoyatlar yurardi. O'rgatilgan ayiq borki, o'z xojasini albatta o'ldiradi derdilar, demak, rost ekan-da. Bechora Mikoil! Uni shundayin mudhish o'limga giriftor bo'lur, deb kim ham o'ylabdi. G'ajib tashlabdi-ya ul mahluq o'z xojasini. Yanaki Mikoil sho'rlik unga yemish olib kirgan ekan...

Xayyomning amri ila Polvonga zahar berdilar. Mikoilga esa hurmatu ehtirom ko'rsatib, so'nggi manzilga kuzatdilar. Xayyom bosh bo'lgan ahli rasadxona aza ochdi.

-Ehtimol bu yaxshilikkadur. -deya o'ylardi yurak-bag'ri yonayotgan shoir. -Agar Mikoil tirik bo'lsa-yu o'z Laylisining boshiga yog'ilgan sho'rishdan xabar topsa, yanaki ikkisining qovushmoqlari uchun ijozat berilmaganligini eshitsu ne ko'yga tushardi?! Bu uning uchun o'limdan ham og'ir bo'lmasmidi. Bunda ham Ollohning bir hikmati bo'lsa ne tong!..

3

Mikoilning qazosidan o'n kuncha o'tib, chahorshanbaning choshgoh mahali ahli Isfahon shohmaydonga chorlandi. Yuraklarga

vahm solgulik darajada basma-bas chalinayotgan dovulnog'oralar ovozi mudhish qatldan darak berardi. Anchadan beri bunaqa marosimlar o'tkazilmaganligidanmi yoxud odamlar chindan ham tomoshaga shu qadar o'chmidi, har holda olomon shohmaydon sari yopirilib kela boshladi. Qatl etilguvchi kim ekanligidan xabarsiz bo'lgan Xayyom ham sulton va vaziri a'zamning istagiga binoan shogirdlarini ergashtirib qatlgoh sari yo'l oldi...

Nihoyat azador shoir vaziri a'zamning sog'ida turardi. Nizom ul Mulkning narigi yonidagi supada taxt uzra sulton Malikshoh va malika Turkon Xotun hamda ularning ikki tarafida shahzodalar o'ltirardilar. Supa atrofidan esa saroy a'yonlari joy olgandilar. Maydon tevaragi odamga liq to'lgandi. O'rtada bir odam sig'gulik handaq kovlanib, tuprog'i yoniga uyib qo'yilgandi. U yerda ikki jallod tosh yanglig' qotib turardilar. Maydon -doira chetida qisilgudek g'uj-g'uj bo'lib tizilgan olomonning ro'baro'siga-uch-to'rt joyga tuxumdek, mushtdek toshlar uyub qo'yilgandi. Xayyom angladiki, mahkum sangbo'ron qilinur, demak, u zinokorlar ahlidan. Xaloyiqning g'ala-g'ovurini tuyqus avj olgan dovulnog'oralarning dunyoni larzaga solgulik ovozi bosib ketdi. Barcha bandi olib kelinadigan tomonga qaradi. Hademay avomning nigohi qadalgan yoqda mahkumning sharpasi ko'rindi. U-Layli edi. Uning oldida zindonbon va ortida zindondagi o'sha darranda mengiz isqirt kelardilar. Laylining futu ilkiga og'ir kishanlar qadalgan, egnida aslida oq bo'lgan, ayni zamonda esa kir-chir, dog'-dug' va g'ijim ichko'ylak. Sochlari parishon to'zg'igan, iflos. Yuzu bo'yni momataloq bo'lib ketgandi. Ortidagi isqirtning ketma-ket "tezroq yur" deganday turtkilashidan va qizning hurkib-hurkib qo'yishidan zindonda uni rosa azoblab, xo'riganligini sezish mumkin edi. Nozik qad qiz sho'rlikka ilingan zil-zambil kishanlarning shaqirlashi nog'oralar ovozig'a jo'r bo'ladi va bu jo'rlik yuraklarga batarroq vahmu g'ulg'ula soladi. Layli to maydon o'rtasiga-handaq yoqasiga kelmaguncha hech qayoqqa alanglamadi. G'oz turgan jallodlar yonida to'xtagach, boshini tik ko'tardi va pahmaygan sochlari ikki yoqqa surilib, so'lg'in nigohi ila atrofga nazar soldi. Chetlari ko'kargan, taqdirga tan berib, befarqlik cho'kkan ko'zlari kimnidir izlardi.

Hali dovulnog'oralar avj olib, o'sha tomonga qaragan Xayyom zindonbon yetovidagi mahkumani ko'riboq, uning kim ekanligini gumonlagan, so'ngroq tanigan edi. Laylini tanigan zahoti bo'g'ziga nimarsadir tiqilib, kipriklarining osti achishdi. Ne qilarini bilmay, bezovtalandi, Mikoil ila Laylining qaro qismati oldida o'zining naqadar ojizu imkonsiz ekanligini his qilgani va hatto tan olgani sari ixtiyorsiz bo'lib, tipirchiladi. Yo g'addor dunyo! Endi bunisi ne ko'rgilik, ne sho'rish?! Kechagina Mikoil qazo qilgan edi. U bechora Laylini o'ylab qancha oh urdi, taqdirilarini bog'lamoqlikka urinib, qancha sa'y etdi va oxiri o'limdan g'ofil qolib, armonda ketdi.

Layli esa uning achchiq qismatidan xabarsiz edi. Ehtimol o'tgan shuncha kunlar mobaynida yorini ko'zlari to'rt bo'lib kutgandir, uning ayni zamonda chorasiz turgan xojasi ko'magida o'zini ozod etmoqlariga umid qilgandir. Ammo umidi bu foni dunyoni avvalroq tark etib ketganligini, go'yo sohibi imkonday tuyulgan uning xojasi esa hozir ko'z yoshlaridan najot kutayotganligini qaydan ham bilsin ul sho'rlik! Ana, layli boshini ko'tardi. Yo tavba, uning so'lg'in nigohini, oradagi anchayin masofaga qaramay, Xayyom aniq-tiniq ko'rdi. Bu nigohlar kimnidir izlardi. Balki Mikoilnidir? Va yoki... Nahotki malikani qidirayotgan bo'lsa?!.. Sultonning ijozati va muhtasibning ishorati ila halitdan buyon hozir turgan jarchi birdan tilga kirdi. Uning jarangdor, shuning barobarida quloqlarni teshib yuborguday baland ovozi ulamolalar jamoasi chiqargan mudhish hukm haqida xabar berdi. Layliga zinokorlik tamg'asi bosilib, sulton Malikshoh xonadoni sha'nini bulg'aganlik aybi qo'yilgandi va sangpor etilmoqqa hukm qilingandi. Aslida esa shariat bundayin hukmg'a yo'l bermasdi, illo zinokor erkak ham, ayol ham o'zga bir inson ila nikoh qilinmagan bo'lsa, darra urilishi lozim edi. Laylining ixtiyorsiz qul-kanizak ekanligi esa, har qancha gunohkor bo'lmasin, Islom shariatida yanada yengillik berurdi. Hozirgi hukm malika Turkon Xotunning xohish-irodasiga binoan chiqarilgandi. Hukm o'qib bo'lindi hamki, ikki jallod harakatga tushib qoldilar: avvalo Laylining futu ilkidagi kishanlarni yechib tashladilar, so'ngra uning ikki yelkasidan tutishib, handaqaq tushirdilar. Handaq qizning ko'krigidan yuqoriroqqacha kelardi. Layli jallodlar yelkasidan tutgani hamono ojiz bir talvasaga tushganday bo'ldi, entikib yig'ladi ham shekilli. Bungacha o'zini g'oyat beparvo tutgan edi, endi esa ayolligiga bordi va yoxud joni ko'ziga ko'rinib ketdi chog'i. Jallodlar handaq yonidagi tuproqni tortishib, Laylini ko'ma boshladilar.

Bu dam Xayyom adoyi tamom bo'lgan edi. Yuragi ko'krak qafasini yorib yuborguday alpozda urar, butun vujudi sim-sim oqib, madorsizlanib borardi. Ko'zlari jiqqa yoshga to'lgan, tinmay entika-entika "Yo Olloh! Yo Olloh!" derdi, o'zining ilojsiz ekanligidan, suyukli birodarining yoriga, hech yo'q vafotidan keyin bo'lsa-da ko'mak berolmaganidan ezildirdi. Ana, har qancha ehtiyot bo'lmasin, jallodlarning biri keskinroq harakat qilib yubordi va chuqurga surilayotgan tuproqning navbatdagi bir qismi qizning boshiga kelib tushdi, uning sochlari butkul tuproq bo'ldi. Nafaqat Xayyom, balki xaloyiq aro ham ko'pchilik oh urib yubordi. O'sha jallodning bir to'xtalib olib, atrofga xijolatli nazar tashlab qo'rganidan u jallodlik va yoki qatl odobi-qoidasini buzganligini fahmlash mumkin edi. Filhaqiqat, jallodlar boyagi isqirtga aksil o'laroq, mahkuma ila g'oyat ehtiyotkorlik ila munosabatda bo'lmoqda edilar.

Xayyom o'sha on o'rtanib oh urarkan, bir zamon G'azzoliy ila suhbatda ne sababdandir eslaganlari Hazrati Umar voqeasi yodiga tushdi: johiliyat davrida arab qabilalari xonadonlarida qiz farzand tug'lsa, uni tiriklayin ko'mib yuborar edilar. Hali Islomga kirmasidan avval Hazrati Umar ham o'z qizini ana shunday qismatga giriftor etgan edi. O'shanda jajji qizalog'i o'zi ko'milajak chuqurni kovlashda padariga yordamlasharkan, uning soqoliga tuproq sachraganini ko'rib, "voy, otajon, soqolingiz tuproq bo'ldi-ku", deya erkalanib, kichkinagina barmoqlari ila uni qoqib tashlardi. Keyin esa johil ota... Bu voqea har safar Hazrati Umarning yodiga tushganida dodlab yuborar edi. Xayyom shularni xayolidan o'tkazarkan, o'zi ham faryod urib, beixtiyor qiz tomon tashlanmoqchi bo'ldi. Yaxshiki, vaziri a'zam uni kuzatib turgan ekan, siltangani hamono bilagidan mahkam tutib, anchagacha qo'yib yubormadi.

Layli sochlarini bir-ikki silki, tuproqni qoqib yuborgan bo'ldi va bo'ynini qiyinchilik ila burib, allaqachon nafratu g'azab cho'kib ulgurgan nigohini hukmdorlar o'ltirgan supa tomon qaratdi. Jallodlar esa hamon tuproq tortishar va uning biron zarrasi mahkumaning ko'zlariga kirib ketishidan ehtiyot bo'layotganliklari harakatlaridan yaqqol sezilib turardi. Unga sayin Layli boshini burib, malikani, to'g'rirog'i, uning nigohini qidirardi. Nahotki orada shuncha masofa bo'la turib, yanaki, qariyb tuproq ostidan birovning nigohini, ko'zlarini ko'rmoq mumkin bo'lsa? Buning ustiga malika yuziga harir parda ham tortib olgan edi. Ha, agar ko'ngil istasa, o'rtadagi masofa hech ekan. Chunki bag'ri nafratu alamga to'lgan Layli ham Turkon Xotunning ko'zlarini topdi. Ana, ular doimgiday yovuzlik va makrga yo'g'rilib boqib turibdilar. Yelkasigacha tuproqqa botgan Layli bu ko'zlariga boqib, ularning sohibasi o'z muzaffariyatini tantana qilayotganligini payqadi. Bu nimarsa uning uning vujudidagi olovni batarroq avjlantirdi. -Ilohi, mening yosh boshimga yog'dirgan balolaring o'z boshingga o'n hissa bo'lib yog'ilsin!-derdi uning nigohi. -Ilohi, butun taning irib, bolalaring ham xazar qilgulik ahvolga kelib, xor bo'lg'aysen! -Endi uning bo'g'ziga yig'i tiqilib, ko'zlariga yosh to'ldi. -Yo Olloh! Gunohlarimni o'zing kechir!.. Mikoil, qanisiz, Mikoil?! -Yosh tufayli xiralashgan ko'zlari jovdirab, odamlar orasidan

seviklisini axtardi. -Mikoil!..

Bu payt mahkumani qatlg'a hozirlab bo'lgan jallodlar taqi g'oz turib, muhtasibning fatvosini kutmoqda edilar.

Muhtasib sultonning ruxsati ila qatlg'a fatvo berdi, xaloyiq "Omin!" deya na'ra tortdi. So'ng u ilkidagi kichkinagina toshni mahkumaga tomon ohista otdi. Tosh kichkinaligi bois qayergadir tushib, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Bu ishorat edi. Ikki jallod ham mushtdek-mushtdek toshlarni qo'llariga olishib, nari bordilar va mahkumaning tuproqdan chiqib turgan boshiga qarata otdilar. Ular bu yumushning hadisini olgan edilar va ularning mohirliklari mahkumlarni mislsiz azoblardan xalos etmog'i ham aniq edi. Mana, Ollahning mehribonchiligidanmi yoxud qo'rquvdanmi, asta hushi og'ib, shuuri xiralashayotgan Laylining og'zidan ixtiyorsiz uchgan "Ollah!" kalomidan so'ng jallod otgan tosh kelib, uning chakkasiga tegdi. Tegdi-yu boshi bir tomonga og'ib qoldi. Ikki jallodga boyagi isqirt va olomon ichidan ajralib chiqqan ba'zi johillar ham ergashdilar. Ular o'lik bosh uzra tosh yog'dirdilar. Ko'zlari jiqqa yoshga to'lgan Xayyom bir siltanib ortiga burildi-da, maydonni tark etdi. U yo tojdorlar davrasidan, yoki qatlgohdan va yoxud o'zidan qochib borardi.

## Yettinchi bob

Yelkasigacha tuproqqa ko'milgan Layli va jaholat tufayli norasida qizini tiriklayin ko'mib yuborganligini eslab, oh urayotgan Hazrati Umarning suvratlari Xayyomning xayolidan ketmay qoldi. Endi uning o'zi ham oh urardiki, ohining otashi yetti osmonni kuydirgulik edi. U Laylining qatlidan so'ng hukmdorlar va toj-taxt ila raiyat, ya'niki xalq o'rtasida hech qachon yaqinlik, ittifoqlik qaror topmasligiga taqi bir bora iymon keltirdi. Toju taxt mislsiz kuch-qudrat va hadsiz ixtiyoru cheksiz imkonlar manbai bo'lsa, avomlik-bu faqirlik, nochorlik va mahkumlik ekan. Bu ikki hilqat aro hech qachon adolat chizig'i tortilmas-Xayyom shuni anglab yetdi. Zero hisobsiz mol-dunyo va hadsiz ixtiyorga ega bo'lgan odamdan, ya'ni bandadan adolat kutmoqlik shubhali. Banda-baribir banda, odam-baribir odam, chunki uning avvali-otasi (Odam Ato nazarda tutilmoqda) xatkor. Bul xatkorning qoni ila oziqlangan gunoh mori har da'fa xurujga shay. Ana shuning uchun ham uning fe'lidagi sobitlik omonat...

Agar adolat qilsa, ne-ne olimu fozillarning, qanchalab ahli ziyoning manglayini silagan, ulkan rasadxona, madrasa-yu masjidlar qurgan, mo'minlar xaloskori bo'lmish sulton Malikshoh adolat qilardi. Lekin uni ham hadsiz sohib ixtiyorlilik mahv etdi. Yo'q, ehtimol u ham har kishida bo'lguvchi lahzalik insoniy o'zlik tufayli xotiniga-malika Turkon Xotunga yon berib qo'ydi. Makkora malika esa g'animat fursatni boy bermadi va qasos shamshirini sho'rlik Laylining boshi uzra sermadi.

Donishmand vaziri a'zam sultonni ayollar ta'siridan saqlashga ko'p sa'y etardi. Bu haqda hukmdorga goho pinhona, goho oshkora ishoratlar qilib, tanbeh- (nasihat)lar berardi. Hatto o'zining shoh risolasi "Siyosatnoma"da ham bu mavzuga alohida fasllar kiritgan edi. Xayyom ularni o'qigan va gap kim haqida ketayotganligini ham bilardi. Mana, ne deb bitgandi u "Siyosatnoma"ning "Xotinlar xususida" bobida: "Hukmdorning izmidagi kishilar zinhor-bazinhor xojalik martabasiga ko'tarilmasliklari lozim, illo mana shu tufayldi ulkan isyonlar tug'ilib, u, ya'ni sohibi toj qudrat va shavkatidan mosuvo bo'lur. Bu, ayniqsa, shuuri noqis, "to'shak ahli" bo'lmish xotinlarga taalluqlidir. Ularning mavjudligi naslning bardavomligiga boisdur. Ular qancha mo'l tug'salar, shuncha hurmatli, nechog'li kamsuqum bo'lsalar, oncha sharafiga loyiqdurlar. Agar hukmdorning xotinlari farmonbardorlik qila boshlasalar, ular o'zlaricha emas, hasadgo'y kimsalarning fikriga binoan amr etadilar. Chunki ular eran misol barcha tashqi yumushlarni o'z ko'zlari ila ko'ra olmaydilar va amru farmonlari hufiyalari hamda chaqimchilarning keltirgan xabarlariga asoslanadi. Shuning uchun ham ularning hukmi aksar hollarda haqiqatga zid bo'ladi. Ziyon shundan tug'ilur va hukmdorning shonu shavkatiga putur yetur.

Qadimda ham hukmdorlarning xotinlari ustun kelgan paytlarda isyonu nafrat, zulm va yovuzlikdan o'zga nimarsa vujudga kelmagan..."

Xayyom vaziri a'zamning mashhur risolasidagi bu gaplarni yaxshi eslaydi. Nizom ul Mulk hatto farmonbardorlikka o'tgan xotinlar keltiruvchi ziyonlar haqida bitarkan, bir necha hikoyatlarni ham bayon etgandi. Sho'irga, ayniqsa, ushbu rivoyat yoqardi: emishki Iskandari Rumiya Ajam mulkining hukmdori Doro ibn Doroni yengib, uning mamlakatini ishg'ol etibdi. Doro esa qochib qolibdi... Doroning bag'oyat sohibjamol qizi bor edi. Umuman uning jamiki ahli ayoli husnda tengsiz edilar. Muzaffar Iskandarga dedilar: -Doroning haramiga bir ko'z tashlasang bo'lardi. U yerda oy yuzli, huri pariylarga qiyos go'zallar bor. Ayniqsa, Doroning qizi husnda tanhoki, olamda tengi topilmas.

So'zlaguvchilar Iskandarning o'shal go'zalni ko'rishini va beqiyos husniga oshiq bo'lib, unga uylanishini istardilar.

Iskandar esa ularga javoban shunday debdi:

-Men ularning erlarini yengdim, zero endi ularning xotinlari bizlarni mahv etishlarini istamasmen.

Ha, tojdorning o'z xotinining hukumat yumushlariga aralashuviga izn bermog'i o'ziga o'zi qabr qazimog'i ila barobardir. Xayyom shuni o'y-larkan, sulton Malikshohdek qudratli hukmdor ham xotiniga yon berib qo'rganligidan nadomat chekdi. Oqibatda esa bir navnihol ayol nobud bo'ldi.

Keyingi kunlarda Xayyomning yuragidagi avvalgi tug'yonlar taqi avj oldi, u yana oromini yo'qotdi. Biroq endi bu tug'yonlar parokanda va yoxud xira emas, aksincha, shuuriga ajib fikrlarni solguvchi yolqinli va yorqin edilar. Endi u barcha ranglarni aniq-tiniq ko'ra olardi va hatto ularni his qilardi. Uning hislari ham ranggin edi. Uning ayni damdagi tug'yonlari halovatli edi, go'yoki quvvai hofizasining ikkinchi hayoti boshlangandek tuyulardi. Qalbida she'r zavqi jo'sh urgani sariyn o'zini, dunyoni anglashga urinardi.

U tunu kun toat-ibodat va ijod ila mashg'ul bo'lardi. Fikrlar to'lqini bag'rini yorguday jahd etardilar. Ayni paytda u "Borliq haqida risola" otlig' falsafiy asarini yozardi. Aslida hozir falsafaga uncha xushi yo'q edi, fikrlarning mantiqliday ko'ringan mantiqsiz chaynalishlaridan zerikkandi. Bunga ehtimol yoshining ulg'aygani sabab bo'ldimi yoxud ko'nglidagi keyingi evrilishlar bois ravon va jimjimasiz so'zlashga ixtiyor sezdimi, har tugul falsafadan toliqdi. Balki bisyor toat-ibodat tufayli qalbida paydo bo'lgan nur bunga monelik qilarmidi. Lekin ne qilib bo'lsa-da bu yumushini nihoyasiga yetkazmoqqa sa'y etardi. Hozir ham barmoqlari orasida xoma (qalam) tutganча nimarsalarning o'zaro munosabatlari xususida bosh qotirib o'tirarkan, beixtiyor chalg'idi. Ko'z oldida kekxa vaziri a'zamning so'lg'in chehrasi namoyon bo'ldi. U ila o'sha mudhish qatl kunidan buyon ko'rishmagan edi. Lablarida bilinar-bilinmas tabassum zohir bo'lib, ilkidagi xomaga mehr ila tikildi. Bu xoma emas, vaziri a'zamning xuddi o'zidek edi go'yo. Chunki bu qimmatbaho xomani vaziri a'zam in'om qilgandi. Nizom ul Mulk ham Xayyom misol xomaga ayru mehr va hurmat ila qarardi. Bu bashariyatning buyuk kashfiyoti derdilar ikkisi ham. Zero qalamsiz so'z badansiz jonga o'xshaydi va so'z qalam ila birlashganidan so'ng jon ila badan ittifoqi yanglig' abadiyatga dohil bo'ladi. U xuddi chaqmoq tosh va po'latdan osonlikcha chiqmaydigan hamki uchqundan darhol nurga aylanmaydigan olovga qiyosdir.

Bir kuni vaziri a'zam Xayyomning arzon xomada qiynala-qiynala xat bitayotganini ko'rib qoldi. Shoir juda bosib yozar ediki,

qog'oz qattiq qitirlab, xoma uchi bukilib ham ketardi. Shundan so'ng vaziri a'zam suyukli shogirdiga bir necha shamsulma'oliy deya ataluvchi xoma tortiq qildi. Xayyom ham xomalarni juda yaxshi farqlar va ular tarixiga oid xo'p qiziq va hikmatli hikoyatlarni bilardi. Ya'niki shamsulma'oliy xomasining sifatlaridan ham yaxshi boxabar edi-u Bag'dod yoxud Misr qamishidan yasalardi. Aslida ham qalamning xos xillari Iroq zaminida tayyorlanardi va turfa nomlari bor edi... Xayyomning lablaridagi tabassum yanada chuqurlashdi.

Yo Oллоh! Hikmating naqadar cheksiz-chegarasizki, mana shu kichkinagina buyum bois bir necha lahzada xayolan dunyoni kezib chiqmoqqa to'g'ri keldi-ya. Ana senga nimarsalarning o'zaro munosabati-yu ayru hamda uzviyligi. U taqi falsafiy mushohadaga sho'ng'ib ketishdan bezdimi, shahd o'rnidan turdi-da, oshyonasidan tashqari chiqdi. Tun bag'oyat osuda edi. Ko'ksini to'ldirib nafas olarkan, doimgidek yulduzlarga intiq tikildi. Shu on qulog'iga tanish sharpa urildi. Hoynahoy Abul Muzaffar bo'lsa kerak, deya o'yladi u va o'sha tomonga yurdi. So'nggi kunlarda bu shum shogirdi ham kam uyqu bo'lib qolganligini, tunlari usturlob yonidan ketmayotganligini sezib yurardi. Filhaqiqat, hozir ham Abul Muzaffar usturlob yonida ne iladir mashg'ul, to'g'rirogi, o'z yumushiga g'arq bo'lib turardi. Dam bir muddat usturlobdan samoga tikilar, dam shitob burilardi-da, oldidagi chizmalarga nelarnidir belgilardi. U Xayyomning kelganini ham sezmad.

Shoir uni havas ila biroz kuzatarkan, avvaliga indamay qaytib ketmoqchi ham bo'ldi. Biroq so'ng taqi o'z hujrasiga qamalishini o'ylab, niyati o'zgardi. Jonsarak shogirdining ilhomini buzganidan xijolat bo'libmi, ojiz tomoq qirdi.

Isfazariy "yalt" etib unga qaradi.

-Iye, ustoz... Assalomu alaykum...-dedi shoshib unga peshvoz chiqarkan.

Xayyom yoqimli jilmaydi. Usturlob yonidagi keng xontaxtaga yaqin kelib, uning ustidagi chizmalarga ko'z tashladi. Ularning barida euyosh va uning atrofiga porgor (sirkul) ila qavat-qavat bir necha doiralar chizilgan, doiralarning besh joyiga esa dumaloq belgilar qo'yilgandi Bu Quyosh tegrasida harakatlanuvchi sayyoralar edi. (U zamonlarda fanga Quyosh sistemasidagi beshta sayyora ma'lum edi xolos.) Samo haqida gap ketguday yoki unga dohil nedir ro'y bersa, shoirning bag'rida xush, valekin halovatsiz etguvchi bir olov paydo bo'lardi. Hozir ham qalbida o'sha olovga uyqash tanish zavq junbushga keldi. Shu asno qiziqish ila kezingan nigohi taqi bir o'zgacha chizmada to'xtadi. Undagi belgilarga qarab, bu yulduzlarning Somon Yo'li turkumi ekanligini tushundi. Biroq Somon Yo'lining qoq markaziga chizilgan doiralarning ne ekanligini anglolmadi. Qatma-qat chizilgan uzluksiz va tobora kichrayib borguvchi doiralar (xuddi prujina kabi), go'yo koinotning qa'r-qa'riga singib ketayotgan nigohning tasavvuriy harakatiga o'xshaydi. Shoir darhol o'zini butkul unutib, chizmaga qattiq tikilib qoldi. Ustozining bu ko'yidan Isfazariy ne uchundir bilinar-bilinmas bezovtalandi. Shoirning bir yangilikka tashna va yoxud hayrat ilinjida "bu ne?", deya aytgan so'rog'idan so'ng hatto oshkora o'ng'aysizlandi. Hadeganda javob qaytaravermagach, u Abul Muzaffarga sinchkov boqib, taqi savolini qaytardi:

-Bu nening belgisi erur?

Isfazariy duduqlandi:

-Afu etgaysiz, ustoz. Men... To o'zim butkul ayonlashtirib olmaganimcha buni sizga oshkor etmoqni istamagandim. Bundan hattoki Vositiy ham voqif emas.

Azali tezeb Xayyomning toqati toq bo'lib, zardasi qaynadi:

-Tafsilotin muxtasar qilsangchi!

Shogirdi sergak tortib, bir seskandi-da, aniq-ravshan dedi:

-Men bir nur ko'rdim, ustoz.

-Qayerda?

-Somon Yo'lining qoq markazida. -U shunday deya ko'rsatkich barmog'i ila boyagi chizmaning qoq o'rtasiga ishora qildi. -Bag'oyat olisdan kelmoqda u, nazdimda, bizning falakdan tashqaridan... Avval ikki bor ko'rgan edim, ammo ko'zlarimga ishonmadim.

Bugun esa uchinchi bor...

Xayyom shoshib usturlobga yopishdi.

-Qani, ko'rsat menga! -Lekin harchand tikilmasin begona nurni ko'rolmadi. -Qani u?

Endi Isfazariy usturlob orqali samoga termuldi, biroq o'z kashfiyotini topolmadi.

-Hozirgina ko'rgan edim...

-Nega avvalroq xabardor etmading. -Xayyom chinakamiga xafa bo'ldi. -Shundayin nimarsadan meni... U ne deb taxmin etding?

Isfazariy tortinibroq dedi:

-Fikrimcha, bizning koinot-falakdan tashqari taqi bir falak bordek.

Shoirning ko'zlari chaqnaq ketdi.

-Bilardim!-dedi u bir o't og'ushida va parishon tortdi. -Bilardim!...-dedi endi go'yo o'ziga o'zi gapirayotganday va Isfazariyini ham unutib, oshiyonasi tomon ohista yo'l oldi.

Vo' ajab, deya o'ylardi u butun vujudi jimirlab, axir Oллоh taboraka taolo o'n sakkiz ming olam haqida xabar berganida biz ko'rib turgan sayyora-yu yulduzlarni nazarda tutmagan-ku. Subhonolloh!

Qudrating bunchalar beqiyos, Tangrim!.. Ha, Abu Homid (G'azzoliy), siz tabiiyunchi olimlar Oллоh taolo allaqachon mukammal qilib yaratib qo'ygan borliqning bir unsurini oz-moz anglagach, uni kashfiyot ataysizlar va o'z bilimingizga bino qo'yasizlar, olimlik da'vo qilasizlar, deganida ming chandon haq edi. Aslida haqiqiy Olim yolg'iz o'zi emasmi?! G'azzoliyini eslab uning sog'inch to'la ko'ngliga iliqlik indi, keyingi kunlarda uni tez-tez xotirlaydigan bo'lib qolgandi. Yo Abu Homid, qaylarda, siz? Taqi uning so'zlari shuuriga urildi: "Ibodattan so'vish shaytonning tuzog'iga ilinish, shaytonning hiylasiga aldanishdir. Bu tuzoqqa mag'rurlar ilinadi..." Ya'ni men kabi aqliga, ilmiga bino qo'yganlar. Xayyom do'stining so'zlarini eslarkan, ularda o'z suvratini ko'rayotgandek bo'ldi va taqi xotirogiga zo'r berdi: "Ular o'zlarini basirat sohibi, sir-sinoatdan boxabar fatonat ahlidan deb bilishadi. Istig'foriga o'rgangan tilga istehzo bilan "qalb g'afatda ekan, tinimsiz istig'for aytgandan ne foyda", deyishadi. Bul xiylaga munosabat jihatidan xalq uch qismga bo'linadi: nafsiga zulm qilganlar, muqtasidlar (o'rtacha, me'yorida harakat qilganlar) va yaxshi ishlarda peshqadam bo'lganlar.

Yaxshiliklarda peshqadam bo'lganlarning kim ekanligi shundoq ham ko'pchilikka ayon. Nafsiga zulm qilgan mag'rur kishiga kelsak, u o'zini qalbg'a xos nozik jihatlarini ilg'aydigan zakiy sanab, manmansaraydi. Natijada uning qalbida xolislik yo'qoladi, tili zikrni tark etadi. Bu qilmishlari ila shaytonga ko'mak beradi, g'urur arqoniga osilib, tuban ketadi. Shu bilan shayton va u kishining orasida to'la sheriklik hosil bo'ladi"... Men ayni shu toifaga mansub emasmanmi? Go'yo o'zimni qalb olamini anglaguvchi odam bilib, turfa ishoratu g'aybga xosliklarni kashf etgandek bilmaganmidim o'zimni? Ayni shunday! Hatto bir nimarsalar ko'zimga ko'rinib, bashoratlar qilganim va o'zimni barchadan ayru sezganim ham rost-ku... Aslida esa haqiqat va chin bandalik oddiygina

ibodatdagi sobitlikda, ixlosu ko'ngilni asramoqda ekan. Har banda xatokordir. Men esa xatokorlarning xatokorimen... U ilkiga xomani olib, haligina bezib, tark etgani falsafiy risolasining hoshiyasiga ushbu satrlarni bitdi:

Afsus, umr behuda bo'lmishdir barbod,  
Bo'lmadik haromdan bir nafas ozod.  
Buyurganing qilmay yuzim qarodir,  
Amringdan tashqari ishlarimdan dod!

Shoir oxirgi so'zni yozib bo'lib, beixtiyor qayrilib, ro'baro'sidagi moychiroqning bilinar-bilinmas to'lg'anayotgan tiliga tikilib qoldi. Ko'zlari katta-katta ochilib, lablari hozirgina bitgan she'ring oxirgi ikki satrini pichirladi:

-Buyurganing qilmay yuzim qarodir,  
Amringdan tashqari ishlarimdan dod!

Bu uning bir necha fursatdan buyon zimiston og'ushida qolgan qalbidan otilayotgan otash xitobi edi. O'zi ham buni mana endi his qildi. Axir she'r bitmay qo'yaniga qancha bo'lgan edi-yu! U malomat ahlining uning sha'niga turfa tamg'alar ichra shakkoklik otlig' nomni ham tirkayotganliklarini orqavarotdan eshitib yurardi va goho o'zi ham ko'nglidagi, shuuridagi bu isyonni nahotki Yaratuvchiga bo'lsa, deya ishtibohga borib qolardi. Nahotki men Ollohga isyonda bo'lsam?! Hozir bildiki, uning bu isyoni Tangri taologa emas, o'ziga, o'zining noshudligiga nisbatan ekan. U o'z amalsizligi ila ato etilgan hayot atalmish ne'matni, ilohiy taqdirni ham bulg'ayotganligini, chinlikni yolg'onlarga to'ldirayotganligini payqab qoldi. Yillar o'tib, keyingi odamlar buni tushunarmikinlar?..

Kimdir tomoq qirdi. Shoir chiroq nuridan xiralashgan nigohini eshik tomon burdi. Ostonada Rindoniy turardi.

-Biron yegulik keltiraymi, xojam? -dedi u Xayyomning parishon ko'zlaridagi xayol andishasida.

Shoir olislardan qaytgandek bo'ldi. Darvoqe, kechki tanovvulni ham istamagandi, bechora keksa Rind och qoldi, deb o'ylagan-da.

-Zarurati yo'qdur, Rind.-dedi u tabassum qilishga urinib.

Rindoniy "xo'p bo'ladi" degan ma'noda bosh irg'ab, ostonadan g'oyib bo'larkan,

-Afu etgaysiz. -deb ham qo'ydi.

Xayyom beixtiyor qorni ochgan yoki ochmaganligini o'ylarkan, taqi G'azzoliy yodiga tushdi: bu Xudoning suyuqli quli hamisha ro'zador yurardi. Rangi siniq ko'rinar, ozg'in ham edi. Bir safar Mikoil rahmatli, o'sha Xayyom ila G'azzoliy uzluksiz muloqotda bo'lgan kezlari, hayratini yashirolmay shunday degandi:

-Xojam, bu odamning hech yo'q bir qultum suv ichganini ham biron marta ko'rmadim. Qachon qaramang, ro'zadorman deydi.

Hoynahoy farishta emasmikin?

Xayyom bu gapga kulib qo'ya qolgandi. Endi bilsa, Ollohning oshig'i, ilmpesha bo'lgan bandaga yemak-ichmak unchalik ham muhim emas ekan. Ko'nglini uyg'otmoq ilinjida bo'lgan kishilar uchun yemakdan tiyilmoqlikda go'zal mujdalar, huzurbaxsh fayzlar mavjud ekan. Buni endi-endi fahmlayapti.

Bir kuni, Mansur Hallojning maqomi haqida suhbatlashganlarida, Abu Homid aytgan edi: Halloj har kecha-kunduzda ming rakat namoz o'qirdi va hamisha ro'zador bo'lardiki, ikki kunda bir iftorlik qilardi. Uning vujudi shu darajotda nurga yo'g'rilib, misoli harirlashib ketgan ediki, Quyoshga orqa qilib turgan bo'lsa, oldida uning nurlarini ko'rmoq mumkindek edi. Ya'ni unda vujud yo'q edi. Yo Olloh, bu ne maqom?!..

O'sha ikkisi shahar tomoshasiga chiqishgan kuni Shokir Talxning do'konida to'xtashganida ham G'azzoliy sharbat ichmagandi.

Shoir keyin bildiki, u xalq nazarida tanavvul qilmoqdan ham tiyilar ekan. Ammo Xayyom kishini mutaassir etguvchi taqi bir voqeotdan xabarsiz qolgandi. Ya'ni G'azzoliy o'sha kech xonasiga qaytib, bir kunni ibodatsiz, zikrullohsiz va ilmpeshaliksiz o'tkazganligidan bo'zlab, tuni bilan istig'for aytib chiqqandi. Bunisi ne maqomu asror, yo Olloh?!..

G'azzoliy bag'oyat tanqis so'zlardi va goho so'zlamoqqa har qancha zarurat bo'lmasin, sukut saqlay olardi. O'sha kuni ham taqdir va oxirat xususida so'z ketdi. U paytlar Xayyomning aqliga bino qo'ygan davrlari edi. O'shanda bergan savolini endi o'ylasa, xijolatga yo'g'riladi.

-Xo'p, jannat yaxshilar uchun buyuk ajr ekan,-degandi u o'sha suhbatda, -jannatiy bandalar mangu huzur-halovatga sazovor bo'lar ekanlar. Xo'sh, o'sha manguylikdan keyinchi, axir uning ham chek-chegarasi bordir? Abadiy huzur-halovat zeriktirmaydimi?

G'azzoliy indamadi. Bu qaltis va shakkokona savolga javob topolmaganidan emas, suhbatdoshining shayton domida ekanligini payqaganligi bois sukut saqladi.

Ha, Olloh taolo odamni o'z muakkillari-farishtalari (farishtalarning toifalari juda xilma-xil bo'lib, har bir harakat va har bir ish uchun alohida-alohida farishtalar "mas'ul" bo'ladi.) orqali idora etadi, tasarruf qiladi. Ya'niki hech bir yumush yoxud hodisa taqdiridan ayru holda ro'y bermaydi. Agar odam o'z taqdiridan (farishtalar ta'siridan, Olloh iznidan) chalg'isa, uni Ollohning o'zga ko'rinmas mavjudotlari o'z izniga ola boshlaydilar. Mana shunisi o'ta xatarli. Unda odamning shaytoniy sifatlari ko'payib boraveradi.

Shoir bu haqda ko'p o'yladi va nihoyat taqdir haq ekanligiga iymon keltirdi. Ha, inson umrining har bir lahzasi, oni va hatto uning har bir harakati bitib qo'yilgan, u o'sha bitikdan tashqariga chiqolmaydi. Uni Ollohning ko'zga ko'rinmas "vakillari" boshqarib turadi, chunki bu olam va undagi hayot buyuk reja asosida yaratilganki, odam umri unga chambarchars bog'liqdir. Aks holda yer yuzidagi hayot, bashar umri ayqash-uyqash bo'lib ketardi. Aql kishilari buni bir kuni albatta tushunib yetadilar. Xuddi Xayyom kabi. Axir Oyu Quyosh, yulduzlar va umuman bularning hamma-hammasi mujassam bo'lgan koinot yagona qoida itoatida belgilangan vaqtda harakat qilmasalar butun olam tanazzulga yuz tutib, buzilib ketmasmidi. Unda vaqt, kecha va kunduz, fasllar tizimi izdan chiqardi, natijada... Yo qodiri Egam, g'aflat og'ushida bo'lgan bandalarningni o'zing yarlaqagaysen!

Vaholanki inson umri ham ayni shunday-agar yolg'iz sohibi Qalamning bitigi bo'lmaganida, qalb tarbiyatidan g'ofil qolgan odam bolasi aksar hollarda o'z aqliga bino qo'yib, uning iznida sa'y etgan bo'lardi. U holda odam hech kimarsa yoxud hech nimarsa ila hisoblashmaydigan, andishaga begona va o'zgaralar hayotini izdan chiqaruvchi ta'rifsiz mahluqqa aylanardi. (Shundoq ham u bu sifatlardan mosuvo emas.) Shu dam Xayyomning shuuriga go'zal bir fikr urildi: filhaqiqat, hayotda barqaror uzviylik mavjud, ya'ni

osuda umr kechirayotgan, hech qanday amalsiz o'tirgan ikki qo'shnining hayoti ham bir-birlariga muqarrar bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, harakatsizlikda ham harakat bor va u avval ham mavjud edi. Hayotda mantiq-ma'no borligi ham shundan. Ularning harakatsiz o'tirishlari taqdirga sabab, oqibat esa o'shal taqdiridagi hayotlari, ya'ni taqdirining aynan o'zidir... Xayyom falsafiy mushohadaga sho'ng'iy boshlaganligini payqab, boshini changalladi, bu ila boshida g'alayon qilayotgan o'ylarini haydamoqchi bo'ldi. Lekin buning uhdasidan chiqolmadi, chunki uning boshi aksariyat hollarda fikrsizlikdan toliqardi. Ayni paytda esa ketma-ket tug'ilayotgan go'zal va asosli fikrlar, mushohadalar unga zavqu huzur bag'ishlardi... Ha, taqdir, qismat Haqdan. Haq, Haqiqat esa qayerda? Xayyom ayni shu haqda ko'p bosh qotirardi.. Haqiqat mavjud nimarsalarning oralig'ida, ya'ni oraliqda emasmi? Qiyoski, tun ila kun oralig'ida. Ya'niki ularning bir-birlariga evrilishlari chog'ida har ikkisining ham butun ma'nosi, mohiyati pinhon. Buning uchun tong chog'ini tasavvur etish kifoya: ko'ngil torlari o'zgacha nekbinlik ila tortiladi, sozlanadi, olam tiniq bir hikmatga yo'g'riladi, go'yo hamma nimarsani ko'rish, anglash, tushunish mumkindek tuyuladi. Yoxud uyqu ila uyg'oqlik oralig'ini eslaylik-ne-ne ulug'larni oliy maqomlarga eltgan ulug' bashoratlari ayni shu oraliqda oshkor bo'lmaydimi axir! O'lim ila hayot oralig'ini ilg'ay olgan kishi esa valiyullohga aylanadi. Bosiqlik-haliymlik ila otashinlik oralig'i ham xuddi shunday-o'shal joyda butun ma'nolar-do'stlik va g'animlikning chek-chegarasi, mohiyati ochiladi. Bu oraliq uch qismga taqsim etiladi va o'rtadagi ikkinchi qismda sobit qolishga sa'y qilinadi. Mabodo uchinchi qismga o'tib ketilsa ham muvozanat buzilib, kishi g'azab sari odimlaydi. Agar birinchi qismga o'tib ketilsa ham ayni shu yanglig'-kishi asta-sekin bosiqlik nomi ostidagi loqaydlik, beparvolik, g'urursizlik kabi sifatlarga burkanib boraveradi... Xayyom qancha fursatlardan beri o'ylab yurgan fikrlariga endi-endi ta'rif berib, undagi sifatlarni nomlamoqqa erishmoqda edi.

Hozir o'ylaganlari hov o'sha anglab yetgani me'yor tushunchasiga uyqash emasmi... Ha!.. Shul kabi mastlik va rostlik oralig'i ham uch qismga bo'linadi. Kutilgan haqiqat esa taqi o'shal ikkinchi qismda ayon bo'ladi. Harir pardani ko'tarmoq va fikrda tiniqlikka erishmoq uchun bu qism taqi uchga taqsimlanadiki, uning ikkinchi bo'lagida sobit qolmoqqa harakat qilinadi. Bunda izlangan haqiqatning yuzi yanada oydinlashadi va avliyolik kasb etiladi. Bu hodisot cheksiz-chegarasizdir... Yo chodirdo'zning o'g'li, qanotlarsiz parvoz eta boshlamadingmi? Taqi aqlingga bino qo'yib, kibr havosida shishmayapsanmi? Donishmandlik da'voing shunchalikmiki, avliyolik xususida bosh qotirursen?.. Bu oraliq hayotning o'zagidir. Unda baholi qudrat qo'nim topmoqlik kishini kamolot sari eltadi. Ha, odamzotning oraliq hikmatini anglamagan aksariyat jamoasi shunchaki tentirab umr o'tkazadi va yoxud oxir oqibat halokatga yuz tutadi.

Yanaki g'olibu mag'lublar abas bo'lguvchi oraliq ma'vodir ul. Unda kishi dunyoga o'zgacha boqib, har neki manfaat, ta'ma va adovatdan yuksaklikka ko'tarila oladi. Tiriklikni, bani odamni insof ila tushuna boshlaydi. Bu o'sha "Qurbing yetganicha insof qil", degan ulug' maqom ma'vosidir.

Xayyom goho hov o'shanda shakkok saboqdoshining muallimga bergan uch aka-uka haqidagi savolini ham eslab turadi va muallimning mot bo'lganligini, hattoki Ollohning "yumushi"dan qusur topmoqqa uringanligini o'ylaganda o'z-o'zidan xijolatga yo'g'riladi. Axir o'shal rivoyatdagi aka-ukalar taqdiriga munosib ajr topa olmaganlar uch-to'rt o'spirin va nari borsa, madrasa mudarrisi edi-ku. Nainki Ollohning payg'ambari, hatto sahoba, hech yo'q valiy ham emasdiku ular bu savolga loyiq javob topsalar! Osoni "aybni Ollohga yuklamoq" emasmi. Ularning so'zlaridan shunga amin bo'lmoq mumkin edi. Bu har kuni necha bor zaruriy hojatlarmizga yaragan suyuq suvimizni ozgina sovuqni sabab qilib, muzlatib, toshga mengzatib qo'ygan va yoki haligina Isfazariy usturlobda ko'rgani bizning ko'zlarimiz ilg'agan, lekin shuurimiz yetmagan koinotdan o'zga koinotni ham yaratib, shundayin ulug'likni ham nazarimizdan pinhon eta olgan qudratli Zotning beadaddan bir ulush ijodi va siri ekanligini anglamoqdan ojiz edilar ular. Axir ne-ne asrorga, hikmatlarga har lahza ro'baro' kelib ham ularning mohiyatini o'ylamagan, ularga oddiy nimarsadek qaragan bizlar emasmi? Shu holimizga bandalarning oxiratdagi taqdirilaridan, ajrlaridan adolatli so'z ayta olamizmi?! Yo Olloh!.. Xayyom shu gaplarni xayolidan o'tkazarkan, ajib kayfiyatda, ajib bir ehtiros ila bitilgan ba'zi she'rlaridan istiholaga boradi. Kelgusi avlod o'zini bir xudosiz (astag'furilloh), shakkok odam sifatida yod etishlaridan xavotirga tushadi. Yo'q, u shakkok ham, osiy ham emas, biroq she'rlaridagi haliginday tuyg'ularni, fikrlarni o'zi ham izohlab berolmaydi. Keksa Rind uning she'rlariga go'zal ta'rif berganini va buni ahli rasadxonaga bir necha bor aytganligini esa u bilmasdi. Rindoniy shunday ta'rif bergandi: -Xojamning nazmidagi Ollohga ta'na qilmoqdek tuyulguvchi ma'no aslo shakkoklik emas. Aksincha, taqdirning Haqdan ekanligini butun vujud ila his etgan bandaning o'z ojizligidan, zabunligidan, baribir Yaratuvchining shafqatiga, mehriq muhtojligidan o'rtanmog'i, mumdek erimog'i va oxir oqibat taqdirga tan bermoqligi ehtirosidir. Voh, bul muxtasar ifodani Abul Fath Umar eshitsami edi, bir tushunguvchi odam topilganidan ko'zlariga yosh to'larmidi! Darig'okim, bu gapdan u butkul bexabar edi. Ne bo'lganda ham Tangrining ishqdan devona quli Rindoniy mazkur gapni topib aytgan edi.

Xayyom taqi ilkiga xomani oldi va davotning hoshiyasiga yana misralar tiza boshladi:

Gul bargila kunni to'sa olmaymen,  
Qismat sirlarini yecha olmaymen,  
Fikr dengizidan dur topdi aql,  
Qo'rquvdan bu durni tesha olmaymen.

U so'nggi so'zni yozdi-yu tag'in o'z holidan hayratga tushdi. Axir qachonlardan buyon she'r bitmay qo'ygandi. Bu kungi daryoligi, ko'ngil selligi nedan? Ayonki, u endi o'zidagi qalb halovatini, tafakkur tiniqligini, fikr teranligini tan olmoqni xohlamasa-da, seza boshlagandi. Shu on beixtiyor Adam Shayxni esladi. Nechundir bag'ri o'rtanib, kipriklari ostida olov uyg'ongandek bo'ldi.

O'shanda Adam Shayx shunday degandi:

-Senga bir gapni aytay, yo Umar! Madomiki o'zliging sari odimlamoqni niyat qilgan ekansen, avvalo o'zingdagi buyuk, biroq shuning barobarida, o'zing uchun tushunarsiz bo'lgan nimarsani top.

-Xo'sh keyinchi?-degandi shoshib Xayyom.

-Bilasanmi, shundayin soliklar borki, ular fano va uqbo aro nur bo'lmoqqa intiladilar. Ikkinchi toifa esa, o'lim va hayot o'rtasida tarang tortilgan rasandan bag'oyat ehtiyotkorlik ila o'tib boradilar. Vanihoyat oxirgilari esa o'z hovlisi sahniga tashlab qo'yilgan arqonda qadam tashlaydilar.

Bu fikrlar ummoni, hikmatlar ummoni Xayyomni sarxush etgandi o'shanda. Bundayin zalvorli va libosli so'zlamog faqat va faqat Adam Shayxga xosu yarashiqli edi.



Xo'sh, undagi buyuk va shuningdek, tushunarsiz nimarsa ne? Qalbimi? Albatta-da, axir jonu jahonini ovlarga solgan shu qalbi emasmi?! Unda u Adam Shayx aytgan uch toifaning qay biriga mansub? Qay biriga?!.. Buni aniqlamoq uning zimmasida emasdir...

Shu kunlarda sulton Malikshoh shahzoda Mahmudni taxt vorisi deya e'lon qildi. Bu xabardan so'ng Xayyom sultonning Turkon Xotun makri domiga butkul bandi bo'lganligiga amin bo'ldi. Yanaki tashvishli kunlar yovuqlashayotganligini ham qalban his etdi...

Sakkizinchi bob

1

Yana kech kirdi. Mahmud taqi o'z hujrasiga qamaldi. Hatto moychiroqni ham yoqmay, joyiga cho'zildi. Ko'zlari beixtiyor darichadan mo'ralayotgan yulduzli oqish osmonga tikildi. Yo'q, uning yuragi ana shu bepayon samoga singib ketmoqni, hurlik og'ushida sarxush bo'lmoqni istamadi. Yo'q! Endi u burungi Mahmud emasdi. Uning ko'zlari hatto mana shu bag'rni yorib yuborgudek ulug'vorlik va haybat ila boqayotgan osmonga ham nopisandu loqayd tikilib turardi. U atrofidagi borki nimarsalarga ana shunday alpozda qarar, nigohi ichi qorayib turgan g'or og'zini eslatardi. Sal ta'sirchan odamning uning nigohidan qo'rquvga tushmog'i ham tayin. Hatto go'zal Rayhonining yodi ham uning xotirasidan qariyb o'chib ulgurgandi. U faqat behisht haqida, undagi qiyossiz bog'u chamanlar, hurlar va ular tufayli sazovor bo'lguvchi oromu huzur haqida o'yarladi, goho-goho shuurida yuz ko'rsatuvchi Rayhonning siymosi ham o'shal ta'rifsiz hilqatlar jamoliga uyqashib ketardi. Uning yuzini elas-elas eslardi. Aslida ham oradan ko'plab yillar o'tgandi. Mahmudning istarali chehrasi ham ancha tundlashib, jussasi dag'allashib ketgandi. Endi u yor ishqidan ilhom olib, xat-savodga va umuman ziyoga intilgan yosh yigit emasdi. U irodasini, inon-ixtiyorini Ollohga ham emas, yovuz bir kimsaning ilkiga topshirib, uning maqsadi yo'lida qadam tashlayotgan va bu qadamlarida qat'iy sobitlik bo'lgan nokas mahluq yanglig' edi. Tinimsiz jismoniy tayyorgarlik, yarog' san'ati ila mashg'ullik, g'alati suyuqlikni muntazam iste'mol qilmoq va yemoqqa o'chlik-uning bor-yo'q davlatiga aylangandi. U hech neni istamasdi, ya'ni istamaslikni istardi. Uning butun dunyo, borki borliq deb bilgani mana shu Alamit edi. Na tug'ilib o'sgan yurtini, na qachonlardir uni yeru ko'kka ishonmay, ne-ne orzu-umidlar ila katta qilgan ota-onasini, na rasadxona va na undagi do'stlari-yu xojasi Umar Xayyomni eslardi. Ha, bor-yo'q jahoni shu Alamit edi. Yodini tark etayotgan yaqinlari esa hov anovi jimit yulduzlar va umuman oqish nigohini lo'q qilib qarab turgan osmon kabi tobora-tobora olislab borardilar...

Eshik mulozamatsiz tarzda ochilib, qorong'uda bazo'r ko'rinayotgan odam sharpasi uni sardor -Alamit xojasi o'z huzuriga chorlayotganligidan xabar berdi.

Atrof javonib mamlakatlarning hukmdorlariga dahl etib, bo'g'zidan olayotgan Alamit xojasi- Hasan Sabboh turli hashamatlarni unchalar ham xushlayvermasdi. U bag'oyat faqirona hayot kechirmoqqa ko'nikkandi. Hatto ahli qal'ani idora etguvchi ko'rinishxonasi ham nihoyatda kamtarona jihozlangandi, biron bir ortiqcha dabdaba sezilmasdi.

Mahmud kirib borganida Hasan Sabboh odmigina eski xontaxta ortidagi anchagina uringan to'shakda bukchayib o'ltirardi. Xona nimqorong'u bo'lganligi bois uning yuzidagi odatiy rangparlik qariyb bilinmasdi va hatto tusi bir qadar vajohatli ko'rinardi.

Ehtimol nursizlikning mana shu "fazilati" sababli ham xonasini qorong'ulikda tutishga urinar. Xira moychiroq bu zimistonni yoritmoqqa ojizlik qilardi va hatto bu xona darichasini oy ham tark etgandi. Uning ortida- xonaning yanada zulmatli bo'lgan burchagida ikki barzangi qo'riqchisi qimir etmay turibdilar. Bir qaraganda, ularni ilg'amoq ham mushkul edi.

Mahmud eshik oldida tek qotdi. Xoja uni ko'rsa-da hech so'z aytmay, jim o'tiraverdi. Shunda ham Mahmudning holatida biron bir o'zgarish bo'lmadi. Nimqorong'ulikda go'yo qoya yanglig' turaverdi, qizg'ish chiroq nurining aksi tushgan ma'nosiz ko'zlari sovuq yiltirab ketdi. Ammo "bajar" degan amrdan o'zga hech nimarsa bo'lmagan shuurida na manovi benaf turishidan, na anovi xojaning bepisand o'tiraverishidan va na uyqu onida uni bezovta qilganliklaridan norizolik alomati miltirab ham qo'ymadi...

Nihoyat ma'lum fursat o'tib xonaga taqi to'rt fidoyi kirib keldilar va xojaning ro'baro'sida qator tizildilar. O'shandagina Hasan Sabboh ularga yuzlandi va o'zining xirillagan ovozi ila so'zlamoqqa tushdi:

-Fursat yetdi, yo Alining lashkari! Siz Olloh rizoligi yo'lida fidolarning ulug' ajrga musharraf bo'lgulik qutlug' oni keldi. Sizing poyingizga behishtlar muntazir!

Fidoyilar bir tebranib qo'ydilar.

Hasan Sabboh esa taqi davom etdi:

-Sizlarga o'g'iz o'g'li Kaltakesak peshvo bo'lg'ay. Erta tongda Isfahon sari o'tlang'aysiz. U yerda bizning kishilar ila topishib, fursat kutgaysiz. Fursati yetgach, jin qavmidan bo'lmish saljuqlarning yalaqixo'ri, bizning bosh g'animimizni qatl etgaysiz. -U xontaxta ostidan bir nimarsani olib, Mahmudga qaradi. Mahmud-Kaltakesak unga yovuq keldi. Uning ilkidagi hilol shaklli xanjar edi. U xanjarni qinidan chiqarib, birrov namoyish etdi-da, yana qayta qiniga joylab, Mahmudga uzatdi.

-Buni o'shal qari takaning siynasiga qadagaysen.-dedi yigitga qattiq tikilib. So'ng fidoyilarning barchalariga bir-bir ko'z tashladida, qo'shib qo'ydi. -Sizlarga Olloh madadkor bo'lsin. Barchalaringizni behisht bog'lari-yu hurlari kutayotir!..

Shu gapdan so'ng fidoyilar Alamit xojasi huzurini tark etdilar...

Qazvinga yetishgach, o'sha tanish karvonsaroyda qo'nim topdilar. Darvesh kiyimidagi bu besh fidoyining maqsadi-Isfahon sari borguvchi karvon safiga kirib olmoq edi. Aslida sohibi karvonlar ahli darvishdan haq ham olmasdilar. Ammo bu beshov darvesh uchun karvon xo'jayinining haq olish yoki olmasligi farqsiz edi. Chunki ismoiliylar o'z rejaları yo'lida aqchani ayab o'tirmasdilar. Alamitdan tushgan besh fidoyi Qazvinga kelib qo'lgan karvonsaroyning bukri xojasiga ro'baro' bo'ldilar. Sohibi karvonsaroy ancha qarib qolgandi, bukrisi battarroq bo'rtib, soch-soqoli butkul oqarib ketgandi. U darveshlarni alohida hujraga joylab, to Isfahon sari borguvchi karvon yo'lga tushguncha, ya'ni bir haftacha ularning yemoq-ichmog'idan boxabar bo'lib turdi. Nihoyat chahorshanba kuni saharda ularga tegishli hamyonlarni berib, olis yo'lga uzatib qoldi.

2

Isfahon notinch edi. Saltanat ahkomida ham, avom ichra ham parokandalik ustuvor edi. Faqatgina rasadxona ahli bundan mustasno. Ularning ko'ngillarida ham butun boshkent raiyati qalbida bo'lgani kabi tahlika xiyol sezilib tursa-da, barchalari ilm yoxud kunlik yumushlari ila band edilar. Ular asli ilmparvar, fuzaloparvar bo'lgan sulton Malikshohga va uning donishmand vaziri Nizom ul Mulkga hamon ixlos qalardilar, ishonardilar. Bu ishonch esa Umar Xayyom bois qaror topgan edi. Dillarida paydo bo'lgan biroz tahlikaga bois-sultonning tobora loqaydlashib, malika Turkon Xotunning tobora nufuz topib borayotganligi edi. Filhaqiqat, qudratli saljuqlar saltanatining poytaxtida parokandalik avj ola boshlagandi. Bu ayniqsa, shahzoda Mahmud toju taxt vorisi etib ovoza qilinganidan so'ng yana-da yaqqol sezilib qoldi. Endi davlat ishlarining asosiy qismi Mahmudning ilkiga,

aniqrog'i, Turkon Xotunning ixtiyoriga o'ta boshlagandi, Uning vaziri Toj al Mulk ham hukumatu devon yumushlariga dahl qilmoqda ediki, bu aqli raso kishilarni xavotirga solardi. Sultonning suratu harakatlarida esa avvalgi shiddat, sohibi tadbirlik ko'rinmas, u o'zini go'yo zohid yanglig', xonanishindek tutardi. Ehtimol ayni damda kuch-qudratga to'lib, g'animlarining ixtiyorini olayotgan Hasan Sabboh ham o'zining son-sanoqsiz hufiyalari orqali sulton Malikshoh va saljuqiylar saltanatining bundayin ahvolidan xabar topgandir hamda mana endi qasos uchun fursat yetganligiga amin bo'lib, Kaltakesak boshliq odamkushlarini boshkent tomon yo'llagandir. Busiz ham hozir Isfahonda ismoiliylar bag'oyat ko'pchilik edilar. Avvallari ularning aksariyati shahar tegrasidagi qishloqlarda jon saqlagan bo'lsalar, endi shahar qal'asi ichra turfa qiyofalarda emin-erkin kezardilar. Faqatgina o'zlarining ismoiliylar ekanliklarini oshkora ovoza qilmoqlikdan tiyildilar xolos. Ularning asosiy qismi Isfahon hunarmandlari aro tirikchilik qilib, kun ko'rayotgan bo'lsalar, taqi o'zga bir bo'lagi darveshu qalandarlar libosida daydib, xonaqohlarda, goho karvonsaroylarda yotib yurardilar va shu taqlid ko'zlagan rejalarining amalga oshmog'ini intiq kutardilar. Ismoiliylar ham saljuqiylarning ulug'vorligiga putur yeta boshlaganligini aniq-ravshan payqab turardilar.

Darvesh libosidagi Mahmud-Kaltakesak Isfahon bo'sag'asida karvondan uzilib, ortda qoldi. Uning so'nik nigohi rasadxonaning qir ortidan bo'ylagan minorasiga va u joylashgan Bo'yra qishlog'idagi serviqor og'ochlarning devor osha mo'ralayotgan odamning boshidek ko'ringan uchlariga qadalgandi. Yo'q, uning qalbi hapqirmadi, mijjalardan yosh qalqmadi. Chunki uzoq yillik yovuz tarbiyat ta'sirida uning yuragidagi bashariy o't so'nib ulgurgan, mijjalari esa qurib-qaqshab, toshga mengzab bo'lgandi. Endi balki zo'r berilsa, anovi xarsangdan nam chiqsa-chiqardiki, ammo Mahmudning ko'zlaridan hech qachon yosh chiqmasligi aniq.

U rasadxona yoqqa anchagacha tikilib turdi. Shuurida ojizona xayollar uchqunlab, o'z xizmatini butkul unutayozgan xotirotning qatlarida allanechuk voqeotlar g'imirlaganday bo'ldi. Tanishdek tuyulgan bir necha kishilarning elas-elas suvratlari ko'z oldiga keldi. Kimlar edi ular? Nim tabassum ila humor boqib turgan anovi chiroyli qiz kim? Tanish shekilli?! Yo'q-yo'q, hatto... Axir u behishtdagi hur-ku! Bu yerda nima qilib yuribdi u?.. Yo'q, bu qiz hur emas, Rayxon-ku axir! Rayhona-ku!.. Nahot unutdi?! Axir uni bir zamonlar jonu jahonidan ortiq sevmaganmidi! Bu o'sha Rayhoni-ku... Bu kishi kim bo'ldi? Darvoqe, xojasi Umar Xayyom hazratlari emasmi? Huddi o'zi-ku. Men qayerga kelib qoldim? Bu yerda ne qilib turibmen?.. Rayhon!.. Ray... Uning boshi aylanib, ko'zlari jimirladi va o'ngidagi haligi kishilarning siymolari ham bir zumda g'oyib bo'ldi. Hattoki hov o'sha olisdagi minora-yu og'ochlar ham ko'rinmay qoldilar. Endi ko'z oldi qorong'ilashib ketdi. Shoshib qo'ynini timirskilab, kichkinagina xaltachadan nenidir olib, darhol og'ziga soldi-da, belbog'iga osilgan idishdagi suvdan bir-ikki xo'plam ichdi. So'ng g'ujanak bo'lib qunishib oldi. Biroz vaqt o'tib butun vujudi titrashga tushdi. Taqi ma'lum fursatdan so'ng titrog'i tinib, qaddini tikladi, nigohida xiyol mamnunlik zohir bo'ldi. Yana o'sha loqayd va sovuqqon alpozga kirib, shahar darvozasi tomon yurdi.

Hamrohlarini uni darvoza oldida kutib turardilar. Hammalari jam bo'lishgach, bu sohta darveshlar jazava ila zikr tushib, shaharga kirdilar.

-Yo hu, yo Olloh!

Yo hu, yo Olloh!

Yo hu, yo hu!..

Endi bu ismoiliy ayg'oqchilarning, ta'bir joiz bo'lsa, qotillarning vujudlari butkul quloqqa va ko'zga aylangan edi. Hech nimarsaga parvo qilmayotgandek tuyulsalar-da, aslida har neni eshitib, ko'rib turardilar. Shaharni shu yanglig' kezishlari asnosida ular boshkentdagi ismoiliy jamoat ila ham topishib oldilar. Biroq o'zlarining zimmalariga yuklatilgan yumushni biron kimsaga sezdirmadilar. Har kuni bu besh darvesh shaharning har tarafiga tarqalib, avom ichra singib ketardilar. Saroy atrofini, bozor va rastalarni kezishib, vaziri a'zamning yurishi taxmin qilingan manzillarni axtarardilar hamda o'sha joylardagi ahvolni, hufiya joylarni o'rganib, xotiralariga jo etardilar. Kechalari esa barchalari yig'ilishib, ko'rganu bilgan, eshitganlarini o'rta solishar, umumfikrlarini jam qilardilar. Xullas, makkor Hasan Sabbohning qasos o'ti qanot bo'lgan ismoiliy "fidoyilar" o'z xojalari ilkidagi yalang'och shamshir monand jahd ila sermalmoqqa qulay fursatni intizor kutardilar.

3

Hijriy 471 (mil.1092) yilning rajab (mezon) oyi kirdi. Kuz o'rtalab, pishiqchilik avjiga keldi.

Xayyom o'zgacha huzur ila bomdod namozini o'qigach, tashqariga chiqdi. Bir kun burun shovullab yoqqan yomg'ir va tong tarovati bois olam bag'oyat chiroyli hamda tiniq, havo esa musaffo va xushbo'y edi. Bu xushbo'ylikni rasadxona ortidagi tog'dan yelayotgan mayin shaboda olib kelardi. Bundayin huzurbaxshlikdan yoqimli ta'sirlangan shoir oromla entikib, butun vujudini xush kayfiyat qamrab oldi. Ammo qalbining bir burjiga g'ashlik soya tashlab turardi. Bu g'ashlik tunda ko'rgan tushini eslagach paydo bo'lgandi. Oradan shuncha yillar o'tib, turk-o'g'iz sangtarosh Mahmud tushiga kiribdi: keng sahnli rasadxona bittagina hujradan iborat emish. Sahnning hammayog'ini oppoq qor qoplaganmish. Xayyom ana o'sha qorni bosib, yolg'iz hujraning eshigi sari boribdi. Eshikni ochib qarasaki, hujra ichidagi ulkan xumda Mahmud o'ltirgan ekan. Xum ichi to'la qip-qizil qon emish. Mahmud unga qarab qah-qah otib kular va ko'kragi qadar qalqib turgan qonni tinmay shopirarmish... Shoir bomdoddan so'ng shu tush haqqi uchun ham ikki rakat namoz o'qidi. Shundan keyin bu mudhish tush vahmi biroz chekinganday bo'ldi, lekin ko'p o'tmay, taqi ko'z oldiga keldi. Keyin o'zicha bu bor-yo'g'i bir tush-da, deb ham qo'ydi. Shunda ham orom topmadi. Yanaki Adam Shayx ila yo'liquvidan so'ng va ruhoniyatidagi evrilishlar bois ko'rgan tushlariga e'tibor qiladigan, ularni o'zicha ta'birlaydigan bo'lib qolgandi. Mantiqiy ta'birlari goho istiqboldan bashoratli mujdalar berardi. Shuning uchun bu kecha ko'rgan tushini ham ta'bir etishga urinardi. Har tugul qonli hujraga qorli sahnni bosib o'tib borgani uni o'yga toldirardi. Ko'ngli bir falokatni sezayotgandek bo'laverardi. Ustiga-ustak vaziri a'zamning kechagi chorloviga binoan u bilan uchrashib qaytganidan keyin bu tushni ko'rgani uni battarroq xavotirga solmoqda edi. Chunki shoir ila ancha vaqt hamsuhbat bo'lgan keksa vaziri a'zam bu gal uning ko'ziga o'zgacharoq ko'rindi. U Xayyomdan ayrilmoqni hecham istamayotgandek tuyuldi...

Xayyom kirib borganida vaziri a'zam katta miz ortida o'yga botib o'ltirardi. Oldida bir talay qog'oz. Yo biron nimarsa bitmoqqa hozirlanardi, yoki davlat ishlariga taalluqli qog'ozlarni titkilab, nelar xususidadir bosh qotirardi. U shoirning salomidan so'ng o'rnidan qo'pib, unga peshvoz yurdi va quchoq ochib ko'rishdi. Bu Nizom ul Mulkdek mashhur hamda qat'iyatli vazir uchun noyob hol edi.

O'ltirdilar.

-Chorlagan ekansiz?-dedi Xayyom unga zimdan sinovchan tikilib.

Vaziri a'zamning soch-soqoli va hatto qoshlari ham butkul oqarib ketgandi. Bu esa uning azali nurli yuziga yanada nuroniylik baxsh etardi.

-Seni ko'rgim keldi-da, bolam.-dedi vazir bag'oyat haliym va ta'sirli tovushda. -Tunda yomg'ir rosa quydimi?-deb qo'ydi keyin

gapni boshqa yoqqa burmoqchi bo'libmi, go'yo o'ziga o'zi gapirayotganday.

Xayyomning mehri iydi. Bir lahza vaziri a'zamning safari qariyotganligini his etganday bo'ldi-yu darhol bu mudhish fikrni boshidan quvmoqqa urindi. Shunday odam-a?!..

-Ikkimizni zindonband etganlari yodingdami?-deya so'radi birdan Nizom ul Mulk bilinar-bilinmas jilmayib.

-Takash isyoni kunimi? -dedi Xayyom hayrtini yashirolmay.

Vaziri a'zam tasdiq ishorasini qilgach, u ham "ha" dedi.

-O'shanda ikkimizni alohida xonalarga hibsd etdilar. Agar ikkimizni bir xonada tutganlarida bul xiyonatga albatta biron chora topur edik, shunday emasmi?

Xayyom ustozining xotiralar og'ushida suzayotganligini va bu unga huzur bag'ishlayotganligini sezib, xayrixohona jilmaydi. Uning so'zlariga qo'shimcha qilib, dedi:

-Sizdayin buyuk tafakkur sohibi ila, albatta, hazratim.

Vazir uni keskin rad etdi:

-Yo'q! Yanglish aytursen, yo Umar. Sening tafakkuring va quvvai hofizang qoshida meniki hechdir.

Xayyom suhbatdoshining gapini bo'lmoqlikdan saqlanib, biron so'z demadi.

-Sen bag'oyat tiniq oinasen.-so'zida davom etdi vaziri a'zam. -Men unda o'z suvratimni ko'rurmen. Illo oina o'zida olamni aks ettirar ekan, oinaning olam, ya'ni aks etuvchi sari bormog'i joiz emas, bilaks, aks etuvchi oina sari borur. Men esa senda o'zimni ko'rdim va sen tomon bordim.

-Ustoz mubolag'a eturlar.-dedi xijolatga tushgan Xayyom.

-Aslo! -Vaziri a'zam shoirga mehrlri boqarkan, nadomatli ohangda dedi: -Men esa xato qildim. Olamni mukammal ko'rmoqchi bo'ldim, mukammal davlat barpo etmoqqa urindim. Vale odamning nomukammal ekanligini unutdim. Barcha sa'y-harakatlarim birgina ziddi tadbir va picha xiyonat bois parokandalikka yuz tutdi... Men yosh hukmdorimizga, sultonimizga ulkan umidlari nazar qilgandim va bu umidlari ijrosi yo'lidagi o'z tadbiru rejalarimga qattiq ishonardim. Biroq bundayin tuyqus evrilishlarni kutmagan edim!..-Nizom ul Mulkning qaddi tobora bukilib borardi.

-Hazratim!..-dedi shoir unga dalda berishga urinib.

Lekin vaziri a'zamning ahvolidagi o'zgarish bo'lmadi.

-Isfahon parokandalikka yuz tutmoqda. Sultonning ayni kunlardagi holidan boxabar bo'lgan g'anamlar fursatdan na'f topmoqdalar.

Avomning ko'zlarida umid uchqunlari so'nmoqda. -Vaziri a'zam jim qoldi.

Xayyom ham uning diliga ozor yetkazmog'idan hayqib, indamay o'ltiraverdi. Anchadan so'ng kekxa vazir yana tilga kirib, unga boqdi.

-Ertaga shahar aylanmoqchimen. Yurtdan ko'tarilayotgan fayz va barokotni qaytarmoq, avom ko'zlariga taqi umid uchqunlarini jolamoq niyatida shunday qilmoqchimen. Elning adolatpesha va avompesha bo'lgan saljuqiylar qudratiga bo'lgan avvalgi ishonchini taqi tiklamoqqa urinib, ularning orzu nolalariga quloq tutmoqchimen...

Vaziri a'zam Xayyom ila juda g'amgin xo'shlashdi. Uni bu kecha ko'rgan tushi kabi valine'matining ahvoli ham xavotirga solmoqda edi. Yo Olloh, deya o'ylardi u, nahotki shundayin ulug'vor saltanatdan putur ketgan bo'lsa?!..

Subhi sodiq sayridan qaytarkan, shoir rasadxona darvozasi oldida Maryam ila to'qnash keldi. Ayol ojiz bir ovozdagi salom berdi.

Uning ko'zlari qizargan, qaroqlari so'lg'in edi. Yig'lagani shundoqqina sezilib turardi.

-Nechuksen, Bibi?-deya so'radi Xayyom mehribon ohangda.

-Qulluq, ustoz. -Maryam nigohini yerdan uzmasdi va ovozdagi arazlanish yaqqol balqib turardi.

Shoir uning arazi boisini bilardi: qachonlardan beri Maryamdan uzilib, o'zini olib qochadigan bo'lib qolgandi. Ne qilsin, ko'ngilda. Uning yuragidagi evrilishlarni bu ayol qayoqdanam bilsin. Undan hech yomonlik ko'rmadi va unga ham yomonlikni ravo bilmaydi. Faqat bag'rida unga bo'lgan avvalgidek talpinish endi yo'q.

Maryam mudom go'zal edi. Biroq burungi durkunligi yo'qolib, chehrasida ulg'ayish paydo bo'lgandi.

Xayyom ne deyishini bilmay, so'zsiz qoldi.

-Otamning mozorini ziyorat qildim. -dedi Maryam shoirni noqulaylikdan qutqarib. -Padarimning xokidan ham Vatanning bo'yi keladir. To'yib-to'yib hidladim...

-Va to'yib-to'yib yig'lading.-deya qo'shib qo'ydi Xayyom.

Maryam yerga qarab, erkalanganday bosh silkidi.

-O'zingni qiynamagin-da, Bibi!.. Yolg'iz emassen, axir men bor...

-Yo'q, siz bizni allaqachon tark etgansiz, ustoz!- Maryam ko'zlarida yosh ila shoirga iltijoli boqdi.

Shoir esa taqi ko'zlarini yashirdi.

-Ana shundoq!.. -deya afsus ila og'ir xo'rsingan Maryam o'z oshyonasi tomon ketdi.

Dilxiralik bir kelsa, basma-bas keladi-ya, degan fikr o'tdi Xayyomning xayolidan. Ne kun bo'ladir o'zi bu kun, yo Rabbim?!

U nonushtadan so'ng bozorga tushmoqni ixtiyor etdi. Azali bozorni xush ko'rsama-da, yangi kitoblarni sotib olmoq, shul bahona ko'nglidagi xijillikni unutmog'niyatida shunday qilmoqchi bo'ldi. Axir Isfahon ayni zamonda qariyb dunyoning poytaxtiga aylanib qolgan edi. Shunday bo'lgach, uning bozorlarida turfa ellarning tafakkur mahsullari bo'lmish turfa nodir kitoblar uchramog'i oddiy hol. Xayyom ko'p bor bunga guvoh bo'lgan. Bu kun ham kitob rastalarini bir aylansa, ajabmas yangi kitoblarga ro'baro' kelsa. Ayniqsa, Qashqardan chiqqan turkiy olimlarning olam, zamin va koinotning tuzilishi haqidagi kitoblarini ko'rmoqni anchadan buyon orzulaydi. Ular haqida ko'p bor eshitgan. Ehtimol shu bugun o'sha nodir risolalarni topmoqqa musharraf bo'lar. Balki serkalom Shokir Talxga ro'baro' kelib, biroz ko'ngli yozilar... U na Rindoniy, na Isfazariyga ham bir so'z demay, yolg'iz o'zi shaharga yo'l oldi.

Endi shoirni shahri azim Isfahonda qariyb hamma tanirdi. Shuning uchun shahar ichra borayotgan Xayyomning yo'li unmasdi: ba'zilar salomlashibgina o'tib ketsalar, boshqalar u ila astoydil ko'rishmoq va hatto quchoqlashmoq niyatida beixtiyor yo'lini to'sib olardilar. Goho gapga ham tutib qolardilar. Aslida ham umrining o'n sakkiz yilini boshkentda o'tkazgan shoir bu yerda ko'plab do'stlar, muxlislar orttirgan edi. Ahli Isfahon uni bag'oyat qadrlardi, sevardi. Buni bilganligi bois Xayyom o'zini o'sha ehtiromu hurmatga loyiq tutmoqlikka sa'y etardi.

Mudom ohista odimlar ila borarkan, quloqlariga ketma-ket shundayin so'zlar eshitalardi:

-Assalomu alaykum, hazrat!

-Omonmisiz, yo shoiri zamon?!

-Yulduzlar shohining suhbatiga mushtoqmiz.

-Kulbamizga qadam ranjida qilsinlar!..

U mazkur mulozamatlarning barchasiga munosib javob qilmoqqa urinardi va bu anchayin mushkul yumush ediki, dangalu hur fe'lli shoirmi tez toliqtirardi. Shundanmi, qadamini tezlatdi va tezroq katta bozorga kirib olmoqchi bo'ldi. Chunki olag'ovur bozorda barcha o'zi ila ovora bo'ladi va u ortiqcha e'tibordan qutiladi.

Kitobdorlar rastasi bozorning narigi chetida edi, ungacha bozor ichra xiylagina yurmoqqa to'g'ri keladi. Mayli-da, ozgina aylanib, so'ng qaytadi. Shokir talxni ham qaytishda ko'rib o'tmoqni niyat qildi.

Bozor chindan ham shovqin-suron og'ushida edi. Hamma o'za molini maqtaidi. Ana, bir qop-qora ajnabiy maymun o'ynatmoqda. Darvoqe, mardikorlar, saqqo (meshkobchi)lar ham shu yerda turardilar chog'i. Maymunni ko'rib, rahmatli Mikoilni, uning Polvonini esladi. Rindoniyy ikkovini ilk bor shu yerda uchratgan edi. Endi esa sodiq nadimi Mikoil bu foniyy dunyoni tark etgan. Mikoilni va Laylini eslab, taqi uning yuragi siqildi-da, bu yerni tezroq tark etmoqqa oshiqdi. Turfa matofurushlar rastasidan o'tib, meva-cheva rastasidan chiqdi. Ana, qatorasiga hurmofurushlar turibdilar. Va ular ham tinmay xaridor chorlaydilar.

-Hurmodan oling, og'oyi, bag'oyat shiraga to'lganidan bu. -dedi ro'baro'sidagi aftidan o'g'izga o'xshagan hurmofurushlardan biri. "Og'oyi" degan so'z Xayyomning qulog'iga juda tanish eshitildi va xotiroining allaqaysi burchaklariga urilib, kimningdir olis suvratini ko'z oldiga elas-elas olib keldi. Ana o'sha ixtiyorsiz tarzda kechgan olis o'tmishga xayolan qaytishi asnosida yog'och rastaning bir chetida ezilib yotgan qip-qizil hurmoga ko'zi tushdi. Qonga o'xshaydi-ya, degan gap o'tdi o'yidan. Qon!.. Darvoqe... Kechqurungi tushini esladi. Shu on sog'idan ko'z chetiga bir tanish chehra "lip" etib urildi va u keskin o'sha yoqqa burildi. Haligi tanish chehra ham u bilan bab-barobar ters o'g'irilib, nari keta boshladi. U qandaydir darvesh edi. Kim bo'ldi u? Yuzy nihoyatda tanish. Axir!.. Ha-ha, bu axir Mahmud-ku. U bu yerda nima qilib yuribdi va nega undan o'zini olib qochadi? Balki tanimagandir, deya o'zini ovutmoqchi bo'ldi shoir. Balki...

Bozorning katta darvozasi tomonda jarchining jarangdor ovozi eshitildi:

-Vaziri a'zam Nizom ul Mulk hazratlariga yo'l bering!.. -Bu ovoz basma-bas bir maromda takrorlanardi.

Xayyom o'sha tomonga bo'ylagancha qoldi...

Mahmud Xayyomni tanidi va o'zini tanitmaslik uchun keskin o'g'irilib, ikki darvesh hamrohi ila olomon ichiga singib ketdi. Lekin uning na xiralashgan xotirasida, na his-tuyg'ulardan mosuvo bo'lgan qalbida biron bir sog'inch yoxud iztirob sezilmadi. Uning boshi birgina o'y ila band edi. Ya'ni u vaziri a'zamni kutardi. Ha, ismoiliylar bugun sohibi devonning shaharga chiqmog'idan, avom holidan xabardor bo'lmoqlikni ixtiyor etganligidan voqif edilar. Shul bois ham ulug' qasos uchun qulay fursatni boy bermaslik tadbirini tuzgan edilar. Bu tadbirni ijro etuvchilarning boshida Mahmud-Kaltakesak turardi.

-Vaziri a'zam Nizom ul Mulk hazrati oliylariga yo'l bering! -Ot ustida o'ltirgan jarchi tinmay hayqirar va bozor ichidagi xaloyiq uning amriga hamohang tarzda ikki tomon surilib, ikki cheti jonli devor bo'lgan yo'lni vujudga keltirardi. Jarchining ortidan yarog'li soqchilar kelardilar. Qo'riqchi sarbozlarning bir qismi yarim yalang'och habash qullar ko'targan taxtiravonning ikki yonidan ham joy olgandilar. Usti soyabonli taxtiravonda keksa vaziri a'zam o'ltirardi va har nechuk sezgir nigoh uning bag'oyat mahzun qiyofada borayotganligini payqashi mumkin edi.

Xayyom vaziri a'zamga ayni paytda ko'rinib, noqulay ahvolda qolmaslik uchun o'zini chetga olib, olomon ichra singdi. Biroq yuragi notinch urar, tushuniksiz bir mudhish xavotir vujudini qamrab, titroqqa sola boshlagandi.

-Vaziri a'zam janoblariga yo'l bering!..

Xaloyiq endi taxtiravon uzra borayotgan vaziri a'zamga e'tibor qila boshlagandi. Filhaqiqat, donishmand vazir hozir o'z muddaosiga erishib, turli mish-mishlar og'ushida kuchsizlanib borayotgan boshkent-shahri azim Isfahon ahlining saljuqiylarga bo'lgan ishonchi taqi tiklanayotganligini ularning nigohlarida ko'rmoqda edi. Xalq qudratli davlat idora usulining asoschisi, yetti iqlimga dong'i ketgan, turfa ilmlar sohibi bo'lmish ulug' vazirga umid va hurmat ila boqib turardi. Odamlar tilidan ketma-ket, -Xayriyat, hali bardam ekanlar!..

-Osoyishtaligimiz omonat deguvchilarga xayf!..

-Saljuqlar piri hali omon!..

-Isfahon hali omon turgay!.. -kabi umidbaxsh so'zlar uchardi.

Uch darvesh bir-birlariga pinhona quloq tutishib, visir-visir ila nelarnidir maslahatlashishdi va uchovi uch yoqqa ayrilishdi. Biri vaziri a'zamga ochilgan yo'l chetida tizilgan olomonning avvalgi qatoriga o'tib, nechukdir qaddini g'oz tutib oldi. Ikkinchisi esa undan ikki qadamcha orqaroqda betartib g'imirlayotgan odamlar orasida go'yo yerdan nimarsanidir olmoqchi bo'lganday engashdi. Mahmud bo'lsa undan ham uch-to'rt qadam orqaroqqa o'tib ketdi.

Vaziri a'zam o'ltirgan taxtiravon saf avvalida turgan darveshning ro'baro'siga kelib qolgandi. Bir zamon olomon ichra "Ollohu akbar! Yo Ali!" degan hayqiriq eshitildi. Hali odamlar ne bo'lganligini anglab ulgurmay, Mahmudning gavdasi xaloyiq boshi uzra ko'rindi. U bir sakrab engashib turgan darveshning ustiga chiqdi, undan esa oldingi safdagi darveshning yelkasiga oyoq qo'ydi. Ko'z ochib yumguncha vaqt o'tmay Mahmud qullar yelkasidagi taxtiravon ustida-vaziri a'zamning ro'baro'sida paydo bo'ldi. Keksa vazir hech bir ortiqcha harakat qilmay, Mahmud- Kaltakesakning ko'ziga xotirjam boqib turardi. Mahmud bag'oyat tezlikda qo'ynidan Hasan Sabboh bergan hilol mengiz xanjarni chiqardi-da, vaziri a'zamning ko'ksiga urdi va sho'rlik cholning oh urishiga qaramay, xanjarni bir necha bor burab yubordi. Bu payt Mahmudning beliga ham yonboshdagi soqchilardan birining uzun nayzasi sanchildi va u qattiq ingranib, ortiga quladi. Ana shundan so'ng soqchilar uni tepkilab, tanini nayza-yu shamshirlari ila ilma-teshik qilib tashladilar. Hammayoq qip-qizil qon bo'ldi.

Bo'ronday guvillayotgan xalq ichra qolgan Xayyom tezroq vaziri a'zamning yoniga o'tmoqqa intildi. Allaqachon yerga qo'yilgan taxtiravonda boshi bir tomonga qiyshayib, ko'zlari yumilgan ko'yi o'ltirgan buyuk vazir go'yo pinakka ketganday tuyulardi.

Mahmudning jasadi esa oyoqlar ostida qoldi. Qon tegmagan bir ko'zi ochiq bo'lib, unda mamnunlik aks etib turardi. U bu ayanchli dunyodan ketayotganligidan mamnunmidi yoki xayolidagi behishtga yetmoq umididan xushnudmidi-noma'lum...

Xayyom vaziri a'zamning biligidan tutdi...

To'qqizinchi bob

1

Vaziri a'zamning qazosi butun mamlakatni larzaga soldi. Uning bardamligidan bir qadar umidlangan xaloyiq taqi xavotir va sarosima ichra qoldi. Ahli Isfahonning yuragi, ayniqsa, asta-asta qimirlay boshlagan fitnachilar, ya'ni toju taxt talabida yurganlar vujudga keltirmog'i mumkin bo'lgan notinchliklardan yuragi bezillardi. Birgina najot Ollohdan, umid esa sulton Malikshohdan.

Biroq sulton...

Nizom ul Mulk raiyatning mehrini va ishonchini qozonib ulgurgan edi. Shul bois ham butun xalq-hunarmandu savdogar, olimu shoir, sohibkoru mardikor-hamma-hammasi vaziri a'zam uchun aza tutdi. Boshkent motam og'ushida qoldi. Bu judolikdan qattiq mutaassir bo'lgan sultonning o'zi el ichra kam ko'rinsa-da, vaziri a'zam hurmati har kuni qurbonliklar so'ydirib, xudoyilar bermoqlikni amr etdi. Bundan Isfahonda u qadar ham ko'p bo'lmagan beva-bechoralar, gado va kambag'allarning kuni tug'ditishlari et, ichaklari moy ko'rdi. Ammo taxt vorisining tarafdorlari esa bu ulug' musibatdan ham bir manfaat topmoq ilinjida harakatga tushib qoldilar.

Avvalo Nizom ul Mulkning vafotiga hali o'n kun bo'lmayoq malika Turkon Xotunning zo'ri ila uning vaziri Toj al Mulk vaziri a'zam etib tayinlandi Bu farmoni oliyni sulton ne xayolda tasdiqlaganligini birov tushunolmadi. Biroq ahli raso kishilar, jumladan, Xayyom ham, bu qoraxoniylar malikaning navbatdagi mudhish qadami ekanligini fahmlab turardilar. Endi qudratli saljuqlar saltanatining taqdiri hal etilganligi va chindan ham uning avvalgi ulug'vorligiga putur yetganligi ma'lum edi. Endi taxt vorisi bo'lmish shahzoda Mahmud, aniqrog'i, uning volidasi Turkon Xotun hal qiluvchi qadamini qo'ysa bas, xurshidi olamning g'arbdan chiqmoqligi aniq.

Hali donishmand Nizom ul Mulk tirikligida, shahzoda Mahmud toju taxt vorisi deya ovoza qilinganidayoq sultonning saljuqiy xotini Zubayda Xotun va uning o'g'li Berkyoruq hamda kanizakdan tug'ilgan Muhammad ila Sanjar ham jazavaga tushib qolgan edilar. Buning ustiga, shahzodalarning yoshlari qariyb bir xil ediki, ayni shu nimarsa ham Mahmuddan o'zga sultonzoalarning orini qo'zg'ardi. Shuning uchun ham malikalalar va shahzodalar goho oshkora, ko'pincha esa pinhona o'zaro kurash boshladilar. Buni sezgan kishilar shuncha yillar mobaynida buyuk mamlakatni vaziri a'zam Nizom ul Mulkning aqlu farosati, beqiyos tafakkuri omonda saqlab kelganligiga amin bo'lardilar. Hatto sulton Malikshohga dildan ixlos qo'ygan Xayyom ham mazkur haqiqatni tushunib yetgach, hayratdan yoqa tutdi. Siyosatu davlat yuritish yumushlarining maqtovlarga loyiq bilimdoni bo'lgan jannatmakon vaziri a'zamning hukmdorlarning xotinlari haqida aytgan, bitgan gaplari ham bag'oyat adolatli chiqdi va uning ixtiyorsiz tarzda qilgan bashoratlari Isfahonning hozirgi kunlaridan xabar bergan edi. Shoir ayriliq iztirobiga botgan qalbi ila bu nimarsani ham his qilib turardi. Faqat u toju taxt, boylik ilinjida na padarini va na tug'ishgan og'a-inisini ayamaydigan, ularni bo'g'izlab tashlamoqqa hozir shahzodalarning tutumlarini, muddoalarini tushunolmasdi. Tushunishni istagani sari butun borlig'ini dahshatu nafrat qamrab olardi.

Barcha shahzodalar va ularning onalari sulton Malikshoh huzuriga hamda uning ko'ngliga yo'l izlardilar. Fursat g'animat edi, chunki sulton merosxo'r nomini oshkor qilgan va o'shal shahzodaning taxtni egallamog'iga faqatgina Malikshohning o'zi halaqit berardi. Demak, imkon borida sultonning fikrini o'zgartirmoq uchun sa'y etmoq lozim. Chunki hademay kech bo'ladi. Ana unda sultonzoalalar aro qatliom boshlanur va ularning ko'plari jon qayg'usida har tarafga tirqiragaylar. Lekin hozircha Turkon Xotundan o'zga malikalarning yoxud shahzodalarning birontasi sulton tomon yo'l topolmasdilar. Turkon Xotun esa hal qiluvchi odimni qo'ymoqqa, to'g'rirog'i, so'nggi zarbani bermoqqa shaylanardi chog'i, chunki u sulton atrofida ko'p parvona bo'lmoqda edi. Bu kun Isfahon osmoni ham, ahli Isfahonning dillari ham rutubatli edi. Bu huddiki ko'klamning charog'on quyoshini tuyqus bulut qoplagan misoli edi...

2

Vaziri a'zamning vafot etganiga roppa-rosa bir oy bo'lgan kuni Xayyomni tuyqusdan Malikshoh o'z huzuriga chorlab qoldi. Buyuk qalb va muruvvat sohibi bo'lmish Nizom ul Mulkning bevaqt mudhish qazosidan so'ng nechukdir huvillab, o'z fayzini yo'qotib borayotgan yanglig' tuyulgan rasadxonada sulton choparining ovozi yangragach, tosh devorlar orasiga jon kirganday bo'ldi. Zero bu ulug' ayriliq rasadxona ahli uchun bag'oyat katta yo'qotish bo'lgan edi. Undagi kishilarning har birlari o'zicha aza tutardilar, nafaqat marhum hurmati uchun, balki rasadxona va ilmlar istiqboli, qolaversa, o'zlarining bundan keyingi taqdirleri uchun ham qayg'urardilar. Shoirning ayni kunlardagi kechmishlari ham bundan mustasno emasdi. U ham ustoz, valine'mati bo'lmish vaziri a'zamdand judolik olovida bir kuysa, rasadxona yumushlarining, ilmlar rivoji xususidagi ulkan rejalarning barbod bo'lmog'i mumkinligini o'ylab o'n kuyardi. Ha, shoir bu iztiroblar iskanjasida jizg'anak ediki, hatto ilki yumush tutmoqni ixtiyor etmasdi. Rasadxonadagi sokin, biroq bir qadar zimistonlik og'ushiga tushgan hayot shu zayl davom etayotgan ayni damda sulton hazratlarining Umar Xayyomni yo'qlab qolmog'i rasadxona ahlini xavotirga solgandan ham ko'ra mo'lroq umidlantirardi. Ammo shoir qalbining bir chetida uning o'zigagina ayon bo'lgan shubha-yu hadik o'ylariga soya tashlab turardi. U ko'nglidagi bu xavotirni do'stu yorlariga sezdirmaslikka urindi, shundoq ham ertangi kunga bo'lgan ishonchini tobora yo'qotib borayotgan qismatdoshlarini ayadi.

Xayyom kun choshgohga yetganda sulton saroyi sari yo'l oldi. Uning fe'lida azaldan mavjud bo'lgan xiyol badgumonlik hozir fikru o'ylariga xuruj qilib borayotgan esa-da, keyingi yillar mobaynida ruhiyatida qaror topgan sokinlik hamma-hammasida Oллоhga tavakkul qilmoqlikka undardi. Qadamlarini ohista bosar, shuurida esa saroyga yovuqlashib borgani sari, najot menga yoxud ahli rasadxona-yu ilmu irfonga emas, avvalo sulton hazratlariga lozimdir balki, degan o'y tobora yolqinlanaverardi. Uning bedor qalbi hukmdorning og'ir ahvolini, ayni kunlardagi kechmishini juda yaxshi his qilmoqda edi...

Sulton shoirni o'z bog'ida qarshi oldi. U bag'oyat yengil va odmi kiyingandi- boshida taqya, egnida yupqa gullik chakmon, ammo oyog'idagi etikgina shohona edi. Shoirni eng avvalo mana shu hol, ya'ni fasli xazonning sarg'imir o'jiz oftobi borliqni ilitolmay qolgan, tunu saharlarda tanni junjuktirguvchi izg'irinlar esa boshlagan bir paytda olampanohning bu qadar yengil kiyinib olgani hayron qoldirdi. Biroq sulton mutlaqoq sovuqni sezmayotganday qaddini tik va mardona tutib turardi. U bog'ning liboslarini yechmoqqa oshiqayotgan mahzun og'ochlariga tikilganxa xayol og'ushida g'arq edi. Vale ushbu damda bog'ni bog' degulik angori yo'q edi. Avvali kuz o'z yumushini bajargan bo'lsa, qolaversa, bu oshyonda mehribon va zavqli bir nazarning fayzi sezilmasdi. Yaqinlarda ham qiyg'os ochilib turgan gullarning quruq shoxlarigina qolgan, mevali va mevasiz og'ochlar esa haligi ahvolda edi. Bog'da na biron bir chechakning rang-tusi ko'rinmas, na biron bir sayraguvchi qushning tovushi eshitilmasdi. Hozir chor atrof, ya'niki gulzoru bog'ning ko'rinishi sultonning ahvol ruhiyasiga, dil kechinmalariga uyqash edi. Hattoki bir zamonlar Xayyom sulton ila shirin suhbatlar qurib, nazmiy lutflardan zavqlangan shiypon ham butkul zabun ko'rinar, uning tegrasidagi gullardan-da nishona yo'q va tomidan ipakday jildirab oqib turguvchi suvlar ham ko'zga tashlanmasdi. Korizlardan kelguvchi tip-tiniq suvlar oqib turganida ham bu maskanga hozir oldingiday fayz bag'ishlamasligi ayon edi. Chunki, bir tomoni, kun sovuq bo'lganidan suvning muzdek tarovati kishiga xush yoqmasa, yana bir yog'i, har ikkisining ham, ayniqsa, sulton Malikshohning bunga ehtiyoji yo'q edi...

Hozir butun olam zabun, bog' zabun, o'ylar mahzun, ko'ngillar iztirobli, xotiralar azobli edi.

29 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

Sulton Xayyomning kelganligi haqidagi xabarni mulozimdan eshitganidan so'ngra ham taqi beixtiyor o'yga cho'mgan edi.

Shoirmning salomini eshitgach, xayollaridan ayro tushdi va sodiq nadimiga o'grilib, unga peshvoz yurdi.

-Omonda bormisiz, yo yulduzlar oshig'i?!-dedi sulton va negadir hozir ilk bora Xayyom ila quchoqlashib ko'rishdi.

Yo alhazar! Sulton ancha qarigan va bu yovqur turkiy tojdorning sahroyi yuzida burungi shiddat hamda ancha-muncha kishining irodasini sindirguvchi sirli ulug'vorlik ko'rinmasdi. Mana, o'sha xotunlar makrining ulug' donishmand vaziri a'zam necha bor ogoh etgan mudhish oqibati, deya o'yarlari Xayyom sultonga dil-dilidan achinib. Olamni titratgan va uning yarmini fath etgan sohibi qudratni ham shu ahvolga solibdi-ya bu ayol zoti.

-Bir zamonlar chamanzor bo'lgan bu makon ko'p fayzsiz ko'rinadur, shoir. Ma'quli, mening sayisxonamu ajoyibxonamni tomosha qila qolaylik.-dedi sulton va o'sha yoqqa boshladi.

Lekin Xayyom hukmdorning muddaosi ne ekanligini anglayolmasdi. Shunday bo'lsa-da, so'zsiz itoat ila sultonga ergashdi.

-Chorlovimning boisini tushunolmay hayronsiz, bilamen.-dedi sulton borarkan. -Ammo men ham oddiy banda ekanligimni va goho kimlarnidir sog'inmog'im mumkinligini unutmag'aysiz. -U to'xtab, shoirga yuzlandi, -Ha, Abulfath Umar, men sizni va sizning suhbatingizni sog'indim. -Sulton taqi yo'lga yuzlandi.

-Qulluq, olampanoh.-dedi Xayyom hukmdorning ortidan bo'lsa-da, xiyol ta'zim qilib. -Sizning bu qutlug' so'zlaringiz mening zabun boshimni arsh qadar yuksaltirdi.

Sayisxona darvozasidan kirishlari hamono miroxur (otboqarlar boshlig'i) sultonga ta'zim ila peshvoz chiqdi. Ammo dimog'i so'lg'in bir ko'yda bo'lgan hukmdor bu mulozamatga e'tibor ham, mayl ham bildirmadi-da, o'zining suyuqli otlari tomon yurdi.

Bu joyda kishi ko'p edi. Biri otlarni yuvgan, biri yemish bergan, taqi boshqasi esa xos qo'ralarda otlarning mashqi ila band.

Otxonaning bostirmasida bo'lsa bir necha sinchilar bir-biridan go'zal arg'umoqlarni ko'zdan kechiradilar. Xullas, barcha xizmatchilar o'z yumushlari ila band.

Sulton to'ppa-to'g'ri sog' yoqdag'i bostirma tomon yurdi. U yerda bo'yodor, yollari o'siq oppoq ikki ot turardi. Ularning adl qomati, yerdan ko'pchiyotgan yanglig' ko'rinishi yoz osmonida yaxlit-yaxlit bo'lib, turfa xil shakllar paydo qilib suzib yurgan ulkan bulutlarni yodga soladi. Sulton o'shal bulutmengiz otlar yoniga bordi. Odmu va yengil kiyinganligi hamda o'zgaga noayon bo'lgan zil-zambil kechmishlar tufayli haligina jussasi kichrayib qolganday tuyulgan sulton endi birdaniga o'sib ketdi, qomati alplarga qiyos qilgulik darajada ulkanlashdi. Ot azal-azaldan er kishining, ayniqsa, tojdorlarning shavkati hisoblanganki, u tag'in har erga ulug'vorlik ham baxsh etadi. Bu olam ne-ne shohlaru sohibi davlatlarni ko'rmagan va ular orasida shundaylari ham bo'lganki, otga bo'lgan muhabbatlari qoshida o'zga ko'ngil mayllari hech edi.

Sulton barmoqlari ila ot yolini tararkan, beixtiyor pichirladi:

-Ha, jonivor, meni sog'ingdingmu? Ulug' yurishlarni, biyobonda yeldek uchishlarni qo'msadingmu?.. -So'ng bir pas jim qolib, yuzini ot yuziga bosdi. -Men ham ul yovqur damlarni sog'indim, do'stim!. Uning ko'zlari munglig'-munglig' bo'lib ketdi. Negadir ushbu dam ot ham bag'oyat g'amgin boqmoqda edi. Hukmdor sog' ilki ila otni quchoqlab, yuzini yuziga bosib ancha turdi va so'ng Xayyomga o'grildi.

-Bir gap aytsam inonurmisiz, shoir?-dedi-yu hamrohining xijolatli nigohiga boqib, javobni ham kutmay, tilida tuyqus paydo bo'lgan turk-o'g'iz lahjasida davom etdi. -Mening' eng' baxtiyor onlarim ot ustida kechgan kunlarimda qolmish!.. -Ha, u hukmdor, bo'lib hamki, qudratli hukmdor edi. Biroq uning tomirlarida yovqur va hur sahroyi pahlavonlarning qoni oqardiki, mana bu saroylari qo'rg'onli shaharlar uning erkka tashna qalbiga torlik qilardi. Faqat uning o'zi buni to'la anglay olmasdi.

-Olampanoh Oллоhning bu go'zal mahluqiga bag'oyat muhabbat qo'ymishlar, shul bois... -Xayyom ayni payt uchun munosib so'z topolmasdi.

Malikshoh shoirmning so'zini go'yo eshitmaganday, so'zsiz burilib, otlardan yiroqlashdi. Yiroqlasharkan, qadam bosgani sari jussasi yana kichrayib boraverdi. Endi u turfa jonivorlar saqlanguvchi ajoyibxonasi tomon yo'l tutgandi.

Bu yerda xizmatkorlar ozchilik edilar. Ajoyibxonaning tosh yotqizilgan uzun yo'lagining har ikki tarafiga katta-kichik qafaslar qurilgandi. Ularda har turli darranda-yu parrandalar saqlanardi va bu jonivorlarning qorishiq ovozlari past-baland bo'lib olamni tutgandi. Ana yo'lakning o'ng tomonidagi qafaslarda makon topgan bo'ri, shoqol, qoplon, yo'lbars, tulki, sher va yana o'zga mahluqlar ketma-ket irillaydilar, xirillaydilar. So'l yoqdag'i qafaslar esa ixchamroq bo'lib, ikki qavatli edi. Ularda turli parrandalar-sayroqi-yu sayramaydigan qushlar saqlanardi. Qushlar orasida to'tidan tortib qumrigacha, ko'zlari chaqchaygan boyo'g'lidan tortib lochingacha bor edi. Darvoqe, lochinlar!.. Sulton ularni bag'oyat sevardi va u har safar bu yovqur sohibi qanotlarga boqarkan, o'zida ham mislsiz kuch-qudratni his etardi. Axir ular qushlarning shohi emasmi? Bu esa bashar hukmdori. Bu uyqashlik bejiz emaski, lochinlardagi ulug'vorlik, g'urur va shiddat sultonlarga yarashli edi. Lochinlardan biri-eng ulkani qafas ichidagi qo'noqda boshini tik tutgancha tek qotgan. U sultonni tanidimi yoxud ro'baro'sida turgan inson ham hukmdor ekanligini bilganidanmi, dumaloq ko'zlarini unga qadadi. Sulton ham tizginsiz ichki bir xohish ila lochinga tikildi. Qattiq tikildi. Shu qadar tikildiki, uning ko'z oldida qushning yaxlitlashgan bir juft ko'zi qoldi. Vo darig'! Yo'q, endi u ulug'likka timsol bo'lmish bu qushdan kuch olmadi, aksincha, yelkalari battar osilib, jismi butkul shalvirab qoldi va lochinning o'tkir nigohiga ortiq dosh berolmay, ko'zlarini yashirdi. Ichdan xo'rliqi keldi va sovuqqotganidan tani titrayotganini sezdi. Yaxshiki, nariroqda ilkida qalin to'n tutgancha turgan, Xayyom shu mahalga sezmag'an mulozim, sultonning ahvolini payqab, unga yaqinlashdi. Hukmdor so'zsiz itoatkorlik ila qayrilib, mulozim hozirlagan libosni kiydi va hatto unga bir muddat burkanib ham oldi.

-Tojdorlik senga yarashur, yo sohibi qanotlar sultoni! -dedi Malikshoh va Xayyomga o'grilib, ayanchli jilmaydi. -To'g'ri emasmi, ey, nazm sultoni?

Xayyom hozir har ne so'z o'rinsiz ekanligini tushundi va sultonning alpoziga boqarkan, buyuk saljuqiylar hukmronligi ham intiho topayotganligini fahmladi. Chunki, sulton Malikshohning zabun ahvoli shunga ishorat edi. Bu shoirni ham bag'oyat mutaassir etdi va uning bo'g'ziga nimarsadir tiqilganday bo'lib, entikib ketdi. Bag'rida bir ulug' na'ra junbushga keldi. Qachonlardan beri sokinlik kasb etgan vujudida taqi ikkiga ayrilish paydo bo'lib, ichidan yana bir Xayyom sidrilib chiqa boshladi. Ammo u buni istamasdi, o'zidagi ko'p sa'ylar ila topgan buyuk halovatni boy bermoqlikka ixtiyorsiz edi. Uning bo'g'zidagi otillmoqqa hozir na'raga va ikkinchi Xayyomning zohir bo'lmog'iga esa ilmu ma'rifat ulug' vaziri a'zam vafoti tufayli ko'p aziyatlarga ro'baro' kelayotganligini, endi butun ahli ziyoning homiysi, panohi bo'lmish sulton Malikshohning inqirozi esa fuzaloyu shuaroning butkul halokati muqarrarligini isbot etayotganligini anglab yetganligi bois edi. Bu chin ma'noda halokat edi va oqibat shoir bag'rida ulug' na'raga singgan isyon bino bo'lgandi. Biroq u har ne og'ir bo'lmasin shaytonga xayr berib, alamini ichiga yutdi va Sultonga dalda bermoqqa urindi.

-Men bu jonivorlarni bir umr jam etdim. Oллоhning hur mahluqlarini tutib, bandilikka mahkum etdim. -derdi sulton oldga qarab

yurarkan. -Men bu mahkumlikdan quvondim, uni o'zimga ermak qildim! Endi esa... -U nechukdir so'zdan to'xtadi. Odam tabiati azaldan shunday-bir tushkunlik chohiga ro'baro' keldimi, tamom, o'zini o'nqlab olmog'i mushkul. Bu ham bo'lsa balki shaytoni la'inning nayrangi chiqar. Sulton ham o'shal choh og'zida bir oyog'i muallaq, bir yog'i esa titragan holda qolgan edi. Bir zamonlar, hatto kecha yaqinda ham unga zavqu shavq, bilaklariga kuch, yuragiga mador baxsh etgan manovi turfa jonivorlar endi o'z qismlari bois uning bag'rini ezib, jonini o'rtay boshlagandi. Sulton taqi oldga yurdi. Anchagacha biron so'z demadi. So'ng to'xtadi va Xayyom sari o'grildi. -She'r ayting, shoir, o'tinamen.-dedi bag'oyat muloyim ovozda. Xayyom chindan-da she'r xayoli ila bandmidi yoxud bul ruboiyni avval bitib, hozir shuurida aylanayotganmidi, sultonni uzoq kuttirmay, darhol uning o'tinchini ijobat etmoqqa tushdi:

Jahon ishin alvon-alvon ko'ramen,  
Olamni tez o'tar bir on ko'ramen.  
Xudo haqqi, qayga nazar tashlamay,  
Shunda baxtsizligim ayon ko'ramen.

Sulton olis-olislarga tikilib turarkan, she'rning oxirgi ikki bandini pichirlab takrorladi:  
-"Xudo haqqi, qayga nazar tashlamay, shunda baxtsizligim ayon ko'ramen". siz, shoir, valiysiz. Baayni topib aytdingiz!.. -dedi va yana yo'lida davom etdi.  
Ana, yonma-yon ikki qavasda ikki bahaybat sher turibdi. Malikshoh ularga yaqin keldi va qattiq tikilarkan, Xayyomdan so'radi:  
-Bularni tanidingizmu, shoir?  
Xayyom shoshib Sultonga baqamti kelarkan, dedi:  
-Afu etgaysiz, olampanoh, tanimadim.  
-So'nggi shikori kabirmi eslang. -Sulton biroz sukutda turdi. -Bular o'sha onasiz qolgan ikki shervachchalardur.  
-Ha-ha, esladim, olampanoh. Yo Oллоh! Ular shu qadar ulg'aydilurmu?-deb yubordi Xayyom hayratini yashirolmay.  
-Ha, ular ulg'aydilar.-dedi sulton mudom o'ychan va tili yana turk-o'g'iz la0\_jasiga ko'chaverdi. -Onasi esa bolalari uchun o'zini qurbon qildi. Bu darrandalar shohi bo'lmish sher modasining' tutimi. U manov shervachchalar uchun o'z jonidan kechdi. Odamiyot onasi esa o'z farzandining' omonlig'i yo'lida meni qurbon etmoqchi. -Sulton bu gaplarni go'yo o'ziga o'zi ayttayotgandek so'zlardi.

Xayyom avvaliga uning bu gaplaridan lol qoldi. Tushunmadi. So'ng Sultonning bu kungi ahvolini o'ylab, gap ne xususda borayotganligini tushungandek bo'ldi. Asli uning xavfi ham shundan edi. Sulton yetovida ortga qa ytdilar. Hukmdor endi o'ktam bir ovozda so'zlamogqa kirishdi:  
-Odam o'zidan ortiq yasholmas ekan, yo Abul Fath Umar, yasholmas ekan. Qancha kuyib- yonmasin yozuq haq va u o'zgarmsdir. Bu hukm shohu gadoga barobar ekanligini angladim, yo do'st! Oллоh taboraka taolo shu qadar rahim va shafqat sohibi ekanki, u har banda boshiga kelguvchi baloni, qazosi sababini uning o'ziga avvaldan ayon qilib qo'yur ekan. Ammo g'ofil odamiyot buni hamisha ham anglayvermas ekan. Bilaks, ming bir ishoratga qaramay, o'sha balo yog'dirguvchi kimarsa yoxud nimarsaga mehr qo'yib, unga intilib yashayverarkan... -Sulton bir pas o'ychan bordi, so'ng, -Xudo menga ham ishoratlar bergan edi.-dedi ojiz tovushda.

Unga oshno borayotgan shoir esa ushbuni xayollab borardi: inson vujudidagi ixtiyorsiz qo'rquv ko'p hollarda uni aldama ekan. Axir odam hamisha qo'rquv va umid pinjida yashaydi-ku. Bashar farzandini sohibi qudrat qilgan ham shu ikki tuyg'u emasmi? Hukmdor esa endi na qo'rquv va na umidga oshnodir... Saroyga yetishgach, sulton Xayyomni birga tanavvul etmoqlikka taklif qildi. Bu ham amr, ham istak edi va u hukmdorga dohil edi. Uni rad etmoqqa shoir imkonsiz va ham ixtiyorsiz edi. Chunki u sultonga dalda bermoqni, ko'nglini ko'tarmoqni va ayni damda tanazzulga yuz tutayotgan islomparvar buyuk bir saltanatni omonda saqlamoqni istardi. Buning uchun so'nib borayotgan sultonning yuragida taqi olov yoqmoq lozim edi.

Sultonning hordiqxonasiga kirdilar. Hukmdor anchagina sovuq yegandi. Shuning uchun u o'tirgani hamono ikki qul kelib, poyabzalini yechdilar. Biri idishda suv keltirib, unga qandaydir giyohning tolqonini aralashtirib, sultonning oyog'iga tutdi. Oyog'ini issiq suvga solgach, u huzurlanib ko'zlarini yumdi. Qul sultonning suv ichida turgan oyoqlarini barmoqlariga qo'shib uqaladi. Ma'lum fursat o'tgach, uning oyoqlarini suvdan oldilar va ikkinchi qul yumshoq sochiq ila ularni obdon artdi. Nihoyat jun mato ila oyoqlari o'rab qo'yilgan sulton o'ng yoniga yonboshladi. Ayoqlarga quyilgan iliq mayning birini o'zi olib, ikkinchisini Xayyomga ishorat etdi. Ichdilar. Birozdan so'ng ikkalovlari tanavvulga kirishdilar. Biroq sulton may ichganiga qaramay, ishtahasiz edi. Shoirming nazdida, nomigagina totinib o'tirganday tuyuldi. Uning may otashi ta'sir etgan yuzida battarroq zabunlik zohir bo'ldi. Bundan shoirming yurak-bag'ri ezilib ketdi. Sultonim, sizga ne bo'ldi? Qaddingizni ko'taring, olam eli sizning shijoat va himmatingizga muhtoj tururki, bu holingiz nechun?! Siz sherzodasiz, olampanoh, illo sherlik qiling, deya hayqirgisi kelardi uning. Biroq ro'baro'sidagi zotning tojdorlik maqomi bunga izn bermasdi.

-Yaxshiki siz borsiz, shoir.-deya nihoyat tilga kirdi Sulton, -Ancha yengil tortdim. Oллоhimning nazargohida (qalbimda) bir kom (umid, orzu) ko'ringanday bo'ldi. -So'ng suzilgan ko'zlarida va lablarida bilinar-bilinmas tabassum jilva qildi-da, dedi. -Endi shatranjga qalaysiz, do'stim?

Xayyom taraddudlandi.  
-Olampanohnig sher panjasida sayd yanglig' ojiz qolmoqlikdan qo'rqadurmen.-dedi lutf qilib.  
-Bundayin mubolag'aga hojat yo'q, illo sizning panjangiz zahrini ham unutmaganmiz.  
Kulishdilar.

Shu asno boshqa xonaga ko'chib, shatranj surmogqa kirishdilar. Sultonning xayoli parishonligidanmi yoxud chindan ham shatranj maydonidauning omad tulpori chopmay qolganmidi, Xayyom uni harchand tang ahvolga solmaslikka urinmasin baribir imkonini boy berib qo'yaverardi. Aslida shoir hozir sultonning g'alaba qozonib, shodlanmog'ini dil-dildan istardi, biroq bu istagi sira-sira amalga oshmasdi. Sulton esa buni ham o'zicha tushundi, ya'ni o'z taqdiriga ishorat deb bildi. Ehtimol shul boisdanmi yoki boshqa sababi bormidi, nechukdir u Xayyomni qo'yib yubormoqlikni aslo istamasdi.

Ro'baro'da mulozim paydo bo'lib, malika Turkon Xotun sulton hazratlarining huzuriga kirmogqa izn so'rayotganligini ma'lum

qildi. Malikshoh tuyqus shoirga o'girildi. Shoir esa fursat yetganligini anglab, o'rnidan qo'pdi va ta'zim ila ketishga ijozat so'radi. Sulton noiloj ijozat berishga berdi-yu ammo xonani tark etayotgan suyuqli nadimiga shundayin nigoh ila boqdiki... Uning ko'zlari go'yo qassob ilkidagi jonliqning ko'zlariga o'xshardi. Sulton Malikshohning ko'zlari-ya! Bu nigohni Xayyom bir umr eslab o'tadi hali.

U bo'sag'ada malika Turkon Xotun ila to'qnash keldi. Malika unga mag'rur va ta'nali boqdi, hatto salomlashmadi ham. Nigohi uning ko'zlarini tark etayotgan so'nggi lahzalarda esa yuzida kinoyali, shuningdek, tantanavor bir tabassum paydo bo'ldi.

O'ninchi bob

1

Sultonning ko'nglini ovlab, unga betakror bir kechani va'da qilib qaytgan Turkon Xotun o'zining ishonchli kishisi bo'lmish, ayni damda uning inon-ixtiyori ila vaziri a'zamlilik maqomida butun saltanatni so'rab turgan Toj al Mulkn huzuriga chorladi. Bag'rida buyuk bir qasos olovi yonayotganligini endi uning o'zi ham tan olardi. Bu olov butun saljuqiylar sulolasini, birinchi galda, sulton Malikshoh kuydirmoqqa tayyor edi. Axir shu sahroyi qavm emasmi, qoraxoniylardek oliy nasab hukmdorlar sulolasining ildiziga bolta urib, ularning sarhadlariga dahl qilib, o'jizlashuviga sabab bo'lgan? Albatta shular. Zero Buxorodek azim va shavkatli shahar ularga tobe bo'ldi, qoraxoniylar yaratgan ilmu ma'rifat hamda go'zal me'moriy inshootlar o'shal yovvoyilarning soyasida qolib ketdi. Oqibatda Qoraxoniylar sulolasining qudratiga putur yetdi. Hademay ulardan nom-nishon qolmasligi ham mumkinki, illo bu ko'rguliklarning barchasiga mana shu saljuqiylar sababchidir. Uning cheksiz orzu-umidlariga, go'zal yoshligiga rahna solganlar ham ana shular. Uni fayzli oshyoni bo'lmish Buxorodan ayru etib, Isfahon zindonda bandi qilganlar ham o'shalar. Buxoroning asir olinib, Isfahon sari jo'natilgan hukmdori, Turkon Xotunning jiyani Ahmadxonning qismati ham mudom noayon. Agar tirik bo'lsa, qayerlarda xoru zor yuribdi ekan ul manglayi sho'r?.. Mana endi qasos oni keldi. Mana endi qudratli Malikshoh ibn Alp Arslonning ahvoli tang bo'lg'ay. Endi uning rahnamosi, uni hamisha raiyat ila yaqin tutib kelgan ustoz, boringki, himoyachisi Nizom ul Mulk yo'q. Ehtimol u ham sultonni kutib yotgandir. Anovi shoirvachcha esa najotga muhtoj, zero ertaga malika qo'ptirguvchi to'fon ulkan tevani, ya'ni sultonni osmonga uchirmoqqa qodir ekan, bir kichkina taka-Xayyomni yerdan uzolmasmi? Ha, uzadi, uchiradi. Uchirganda ham chirpirak qilib uchiradi. Uning rasadxonasi-yu fuzalosiga, nazmu ilmiga va hatto yulduzlariga g'orat soladi. Har kuni sulton Malikshohga hamdu sano o'qigan arkoni davlatlaru amirlarning bir tahdidli holi borki, ertaga taxt vorisi shahzoda Mahmudga-uning o'g'liga tiz bukadilar. Agar bundan bosh tortsalar jallod shamshiri bu keraksiz boshlarni chopib tashlaguvsidir. Endi u qasos shamshirini yalang'ochlab, bularning barchasini uhdalaydi. Isfahon taxtiga o'g'lini o'tqazib, butun olamga dahl qilguvchi malikaga aylanadi.

Vaziri a'zam Toj al Mulk huzuriga kirib kelganida malika Turkon Xotun chuqur o'yga botib o'ltirar edi. U vazirni ko'rib, o'rnidan turdi va

-Fursat yetdi, yo vaziri a'zam!-dedi ko'zlari yovuz chaq nab.

-Ollohga shukur!-deya Toj al Mulk xushomadgo'ylarcha ta'zim qildi. -Mana endi shavkatli shahzodamizning qutlug' manglayida muzaffariyat quyoshi balqqay, inshoolloh!

Malika sodiq kishisining bu yoqimli gaplariga muloyim tabassum ila javob berdi-da, muddaoga ko'chdi:

-Bu kech boshkentimiz Isfahon sizning inon-ixtiyoringizda bo'lg'ay. Shom kirishi ila barcha darvozalarni berkitib, soqchilarni ko'paytirgaysiz. Birona tirik jon shaharga na kirmasin va na undan chiqmasin.-Malika nelarningdir mulohazasida biroz jim qoldi va so'ng dedi: -Jamiki shahzodalarni, malika o'tlig' nasl-nasabsiz o'jizalarni o'z qarorgohlarida hibsda tutg'aysiz, toki mendan bir farmon bo'lmaguncha. Bizlarga g'anim bo'lmish amirlarni esa o'zingiz yaxshi bilursiz. Ularni ham bandi zindon etursiz, itoatsizlarini esa qatl etmog'ingizga ijozat berurmen.

-Arslon Toshni hammi?-betoqatlarcha malikaning so'zini bo'ldi vaziri a'zam. Chunki u sulton Malikshohning sadoqatli lashkarboshisi bo'lmish amir Arslon Toshdan ham qo'rqardi, ham ana o'sha qo'rquv ortidan tug'ilgan o'ch alangasida yonardi. Shuning uchun ham imkon tug'ildi deguncha amirlar amiri Arslon Toshni bo'g'izlab tashlamoqqa hozir edi.

-Eng avvalo ana o'sha to'ng'iz mijozni daf qilg'aysiz.-dedi malika ta'kidlab. -Lashkarning asosiy qismini ham o'z itoatingizga olmoqqa sa'y eting. Ammo barcha urinishlaringiz avomga aslo ziyon-zahmat yetkazmasin.

-Rasadxonani, uning ahlini ne qilurimiz, malikam?

-Ul nujumparastu kitobparastlarning ilkidan ne ham kelardi, vaziri a'zam.-dedi Turkon Xotun va Xayyomning suyakdor yuzi hamda jussasi ko'z oldiga keldi. -Ammo ularni ham nazaringizdan qochirmag'aysiz. Qani, omin! -Malika kaftlarini ochdi,- Ollohning o'zi bizlarga madadkor bo'lsin, Ollohu akbar!

Toj al Mulk xonani tark etdi. Malika u chiqib ketgani hamono saroybekani huzuriga chorladi. Unga bu kech sulton hazratlari tashrif buyurishini aytib, xobxonani eng qimmatbaho matolar ila bezatmoqni, eng tanqis mushku anbarlar ila bo'ylatmoqni buyurdi. Toki hukmdor bugungidek huzur-halovatni, oromu lazzatni hech qachon boshidan kechirmagan bo'lsin, deya uqdirdi.

-Eng haliym va lazzatli maylardan, taomlardan hozirlagaysen. Illo sultonimizning qalbida hech qandayin shubha-yu gumonlarga o'rin qolmay, bizning og'ushimizga singib ketsin.-dedi Turkon Xotun so'zlarini tugatarikan.

Filhaqiqat, shunday ham bo'ldi-malika sulton Malikshohga betakror bir kechani, visol lazzatini hadya etdi. Nihoyat sulton barcha shubha-yu gumonlardan mosuvo bo'lib, huzur og'ushida qoldi. So'nggi lahzalarda hamma-hammasini unutdi...

2

Xayyom tun bo'yi Isfahonda mudhish bir bezovtalik hukm surganligini sezib yotdi. Sultonning xayrlashuv onidagi nigohi, undagi ma'no sira-sira ko'z o'ngidan ketmadi.

Chindan ham Isfahon bu tunni g'oyat bedor o'tkazdi. Eng oldin shahzodalaru malikalarning va saroy a'yonlarining, amirlarning tovonlariga cho'g' tushdi. Son-sanoqsiz, buning ustiga, tez-tez xojasini o'zgartirib turguvchi hufiyalarning, ayg'oqchilarning oyoqlari-yu tillari tinim bilmaydi. Bir pasda uni bunga, oqni qoraga yoxud qorani oqqa sotib tashlashadi. Kechagina oyoqlarini o'pib, ilkidan yemish yegani xojasining non-tuzi hurmatini ham unutib, uni najasga qorib yuboradilar. Bu kech bunda har tilda chaquv, malomat, har dilda nonko'rliq xiyonat sohiblik qiladi, sadoqat, fidolik o'tlig' bashariy tuyg'ular bo'zlab-bo'zlab qoladilar. Sultonning saljuqiy malika Zubayda Xotundan bo'lgan o'g'li Berkyoruq bir necha sodiq kishilarini, volidasini olib, birinchilar qatori Isfahonni tark etdi. U omonlik istab va hammaslklarini izlab ko'hna Balx sari yuz tutdi. Amirlarning bir qismi u bilan ketgan bo'lsalar, bir qismi sultonning kanizak xotinidan tug'ilgan o'g'illari bo'lmish shahzodalar-Muhammad va Sanjar ila qoldilar. Biroq bu ikki shahzodani bir fursat g'aflat bosdi. Ular yo padari buzrukvorlarining qoraxoniylar xotinidan bo'lgan o'g'lini valiahd



qilib ko'targanligidan arazlashib, sultonning o'limini kutdilar va yo saljuqiyo bo'lganliklari bois har qanday holatda ham Mahmudga bas kelib, uni yanchib tashlamoqliklariga ishonidilar. Ne bo'lganda ham ular o'z qasrlarida bandi etidilar. Amir Arslon Tosh va taqi bir qancha amirlar, saroy hamda devonning nufuzli mansabdorlari zindonband etidilar. Xalq esa ne qilarini bilmay va bu fitnalarning ko'pidan g'ofil holda o'z kulbasida o'z qora qozoniga arzi hol aytardi. Hatto ayni damda ehtiros og'ushida g'arq bo'lgan sulton ham bu voqeotlardan bexabar edi.

Umar Xayyom o'z oshyonasida notinch tunga quloq tutib, o'y surib yotarkan, beixtiyor rahmatli padari buzrukvori so'zlab bergan savdogar va qul haqidagi rivoyatni esladi. Ha, bu olamda hamma narsa foniyo, mana shu foniyligni anglab yetgan odamgina ulug'likka yetishgay, maqomi yuksalgay. Shohlik, kuchu qudrat, boyligu shon-shuhrat ham bu ilohiy yoziq qoshida hech ekan. Huddiki Uqlidusning ikki yondosh chizig'i hech qachon bir-biri ila tutashmasligi kabi olamning mangu va o'zgarmas aqoidi bu ham. Aks holda podshohlikka erishgan hov o'sha qul va yoki dunyoning yarmiga sohiblik qilgan sulton Malikshoh biron nimarsaga sazovor bo'lardilar. Ammo ularning bor-yo'q topganlari adamligi bo'lmadimi? Darig'okim, ayni shunday. Magaram sulton Malikshoh cheksiz-chegarasiz saltanatiga va yoki beaded boyliklariga inonganmidi? Endi ular kimlarning ilkida qolur va yoxud o'shal nimarsalar uning bir bora tortgan nadomatli ohiga malham bo'la oladilarmi? Balki u o'z pushti kamaridan tug'ilgan farzandlariga umid bog'laganmidi? Axir ular bu kun bir-birining bo'g'zini poylagan darrandalar misoli emasmi?! Ular hatto padari buzrukvori bo'lmish sultonni ham g'ajib tashlamoqqa hozir tururlar-ku! Bu ne ko'rgulik?! Bu ne sho'rish?! Axir u otasi sulton Alp Arslonga xiyonat qilmoq tugul ko'ziga tik boqmagandi-ku? Buni Xayyom Nizom ul Mulkning tilidan necha bor eshitgan. Unda Malikshohning boshiga tushayotgan bu kungi xorliklarga bois ne? Qaysi gunohlari uchun bundayin zabunlikka yuz tutdi?.. Xayyom buning sababini tushunganday bo'ladi. Ya'ni sulton Malikshoh ham o'sha sirli oraliqni unutib qo'ydi, chog'i. O'z mamlakati-yu xalqi va olam o'rtasidagi oraliqni. Chunki harki hukmdor agar xalqidan og'cha, uni unutadi va havolanib, shon-shuhratga beriladi. Mabodo bu yorug' olamdan og'sa, uning fikri torayadi va mayda tashvishlar ila o'ralashib qoladi. Ha, sulton muqarrar oraliqni unutdi yoxud uni payqay olmay qoldi...

Nihoyat tong otdi. Biroq u qaro-qaro bo'lib otdi. Ne-ne davru davronlarni boshidan o'tkazgan ko'hna Isfahon osmonini sim-siyo bulutlar qoplab olganday bo'ldi. Endi boshkentni osoyishta hayot butunlay tark aylagani ayon edi.

Bomdod namozidan bir soatcha fursat o'tib, ya'ni ishrok mahali rasadxonaga ham o'sha sovuq xabar yetib keldi. Uni bu yerga kim olib kelganligini ham birov payqamay qoldi. Ahli rasadxona bu xabarni vahima ichra oh-voh ila kutib olgan bo'lsa-da, Xayyomning holatida hech qanday o'zgarish ro'y bermadi. U go'yo bu voqea sodir bo'lishini bilgandek edi...

Sulton Muhammad Jaloliddin Malikshoh ibn Alp Arslon olamdan o'tibdi...

Xayyom o'ychan va xomush o'ttirarkan, sultonning xayrlashuv onidagi nigohi ko'z o'ngidan nari ketmasdi. Shunchalar tengsiz qudrat sohibi bo'lmish bir hukmdorning bu qadar ojizu notavon ahvolda qolganligidan nadomat chekardi. Shu bilan birga endi Isfahonda ilmu ma'rifat va tinchlikning ham kuni bitganligini sezib turardi. Endi uning ham Isfahondan rizq-nasibasi uziladi chog'i.

Hali sultonning janozasi o'qilmayoq shaharda mish-mish tarqaldi: hukmdorni kimdir zaharlabdi. Barcha ul kimsaning kim ekanligini yaxshi bilsa-da, ismini ovoz chiqarib aytoymasdi... Janozada sultonning o'g'illaridan valiahd Mahmud qatnashdi xolos. Oradan bir necha kun o'tib, hali sultonning tuprog'i sovumay poytaxtda taloto'p va hatto qatliom boshlandi. Aka-uka shahzodalar o'z tarafdorlarini yig'moqqa tushdilar va shu tariqa o'zlariga g'anim bilganlarini qilichdan o'tkazardilar. Shahzoda Mahmud Isfahon taxtini egallagan bo'lsa, Muhammad va Sanjar ham lashkarning bir qismini olib, boshkentni tark etdilar. Endi sultonzoda og'a-inilarning hammalari o'zaro jangga hozirlik ko'rardilar. Bir tomonda goho-goho ismoiliylarning fitnalari ham sezilib qoldi. Rasadxona yumushlari, madrasalar, xususan, Nizomiyadagi saboqlar ham asta-sekin to'xtatildi. Isfahonga qish sovuq'i kirib kelishi bilan birga uni mudhish bir rutubat ham egallab borardi.

Bu orada shahar bo'ylab Turkon Xotun og'ir dardga chalinib, to'shakka mixlanib qolganligi haqidagi gaplar tarqaldi. U bir necha bora Xayyomni o'z huzuriga chorladi, biroq shoir uni ko'rmoqni istamadi. Barcha yovuzliklari uchun taqdir malikadan beshafqat qasos olmog'ini Xayyom yaxshi bilardi...

Xayyom buyuk saltanatdagi bu kungi evrilishlar haqida va odam bolasining gunohga naqadar o'chligini o'ylarkan, taqi beixtiyor G'azzoliyni esladi. Illo alkimyogarlal kibratul ahmarni kashf etib, misni oltinga aylantirmoqning hadisini olganliklari ayon. Ammo Xayyom chinakam kibratul ahmar avliyolar, ahli donish suhbatlari deb biladi. Axir har odamning go'zal suhbatlari tufayli topgan ko'ngil durlari qaysi oltinu javohirlardan kam? Zero bechora sulton Malikshoh uchun donishmand Nizom ul Mulkning suhbatlari chinakam kibratul ahmar edi. (Ehtimol Xayyomning suhbatlari ham sulton uchun ayni shundayin ma'noga ega bo'lgandir.) Xayyom esa hali shu vaqtgacha Abu Homid kabi hamsuhbatni uchratmadi. Endi esa u tufayli qalbi nechog'li ziyatlanganligini anglab turibdi. U ahli zamona haqida ham xo'p gaplarni aytguvchi edi. Ehtimol uning o'shal gaplari malika Turkon Xotunga ham taalluqli chiqar...

Gunohlarning oqibati qalbning o'limi ila natijalanadi, derdi G'azzoliyo suhbatlari asnosida, lekin bu o'limni bu dunyoda bu ko'zlar ila ko'rib bo'lmaydi. Qilmishlarining gunoh ekanini bilsalar-da, kamdan-kam inson gunohdan tiyiladi. Shuning uchun ularning qalb xastaligini Ollohga havola etib, o'zlarini faqat badaniyo hastaliklar muolajasi ila band bo'lib qolayotganini ko'rasan. Zero qalb xastaligining muolajasi og'irdir. Bu hastalikni tabibsiz davolab bo'lmaydi. Tabiblar kim? Albatta, olimlardir. Afsuski, asrimiz olimlarining o'zlarini xastalikka chalinib, o'zlarini davoga muhtoj bo'ldilar. Olimlarning bu nuqsoni umum tus olgan qalb xastaligi orasida ko'rinmay qoldi. Hatto bu ularga tasalli bo'ldi. Natijada olimlar xalqni chalg'itdilar, ularga dardni ziyoda qiladigan dorilarni buyurdilar. Chunki o'ta halokatli bo'lgan "B hubbud-dunyo" (dunyoni yaxshi ko'rish) deb atalgan o'lat chor tarafni egallagan edi. Bu dard tabiblarni ham to'la mag'lub qildi. Endi ular xalqni bu kasallikdan ogoh etmoqqa qodir emas edilar. Nega? Chunki o'zlariga nisbatan haqli ravishda shunday gaplar aytilmog'idan cho'chirdilar: "Sizga ne bo'ldi?\*" O'zingiz bu darddan qutulolmay turib, yana bizga undan qanday xalos bo'lmoq yo'lini o'rgatmoqchimisiz?" Qachonki tabib nodon va xoin bo'lsa, bemorni halokatga sudraydi. Chunki uning dorisi zahar, davolash yo'li undan ham battar... Naqadar topib aytardi bu Abu Homid. Uning bu gaplarida o'z aksimiz xuddi ko'zgudagi kabi aniq-ravshan namoyon emasmi, axir?!..

O'sha kech shoirning xomasidan ushbu satrlar to'kildi:

Jahon siri bo'lsin dil daftarida,  
Ochsang, boshga balo el nazarida.  
Dildagi har gapni aytib bo'lmaydi,

Sen bu nodonlardan turg'il, narida.  
Koshki tinch joy topib, ketib bo'lsaydi,  
Yo bu uzoq yo'lni o'tib bo'lsaydi.  
Yuz ming yildan keyin orzu-umidlar  
Tuproqdan ko'katdek unib, kulsaydi.

Nihoyat Abul Fath Umar ibn Ibrohim Isfahonni tark etmoqqa ahd qildi.

O'n birinchi bob

Xayyom Nishopurga borguvchi karvonning yo'lga chiqmog'ini kutardi. Jamiki anjomlarini yig'ishtirib, safarga taxt qilib qo'ydi. Aslida uning yuk bo'lgulik nimasi ham bor edi: bir necha sandiqqa jo bo'lgan kitoblari-yu qo'lyozmalari bor xolos. Hammasi yig'ilib ikki tuya va bir otga yuk bo'lar. Buyog'i endi Nishopur karvoni yo'lga tushsa bas.

Bu kun ham bomdod namozini o'qib bo'lgandan beri vaqti kutmoq ila o'tayotgan Xayyom choshgohga borib zerikdi. Havo sovuqligiga qaramay, bir pas sayr qilib, rasadxona atrofini so'nggi bor aylangisi keldi. Yana qayta bu yerlarni ko'rmoq nasib etadimi-yo'qmi, noma'lum. Har tugul bu go'zal ma'voda, tog'ning so'lim bag'ridagi bu jannatiy oshyonda umrining salkam yigirma yilini o'tkazdi. Bu aytishgagina oson. Ehtimol taqdiridagi eng barakatli yillar ham ana o'sha yigirma yil ichra qolgandir. Axir bu yillar davomida ne-ne yaxshi-yu yomon kunlarni boshidan o'tkazmadi, ne-ne odamlar ila yo'liqmadi. Ayniqsa, bu yerda topganidek aziz do'stlarni ehtimolki umr bo'yi qidirib ham qaytib topolmas: vaziri a'zam Nizom ul Mulk hazratlari o'z padari yanglig' qadrdon va mehribon emasmi. Bundayin donishmand zotni olam qayta ko'radimi-yo'qmi, Yaratganga ayon xolos. Ul mo'tabar inson endi bu dunyoning armoniga aylandi...

Xayyom rasadxona darvozidasidan chiqib, o'ngga qayrildi. Devor bo'ylab to rasadxona qal'asining adog'igacha yurdi. Muyulishda to'xtab, nariroqdagi qir poyida bir hovuch bo'lib ko'ringan Bo'yra qishlog'iga tikildi. Qish bo'lganligi bois qishloq o'z ko'rkini ancha yo'qotgan edi. U bahorda, ayniqsa, bag'oyat go'zal bo'lib ketardi. Bo'yraning soddadil va saxiy odamlari Abu Homidga ham ko'p manzur bo'lgan edi. Darvoqe, G'azzoliy!.. Shoir Isfahonga kelib topgan aziz kishilaridan yana biri edi u. Naqadar dilbar va parhezkor zot! G'azzoliy dini Islomning istiqboli ekanligini Xayyom juda yaxshi anglab turardi. Musulmon olami hali undan faxru iftixor qilmog'i shubhasiz. Abu Homidni taqi ko'rmoq unga nasib etarmikin?!..

Ha, Oллоh taboraka taolo G'azzoliyga beqiyos aqlu tafakkur in'om etgan edi. Uni avvaliga uncha xushlamagan va hatto turfa fikrlaridan ko'nglida g'ashlik ham sezgan Xayyom buni keyinchalik fahmladi. G'azzoliyning favqulodda aql va iste'dod sohibi ekanligini tushundi, tushundi-yu uning suhbatlariga mahliyo bo'ldi. Uning dil sezgisi nihoyatda teran edi. Xayyom, ayniqsa, Abu Homidning uch olam haqidagi fikrlaridan mutaassir bo'lgan edi. U ilohiyotga xos barcha talqinlarini ham ishonarli qilib asoslay olardi. Qarang, uch olam mavjud, derdi u, quyi-jismoniy olam, o'rta-nimarsalar ma'no kasb etuvchi ruhiy olam va yuqori olam-Ilohning makoni. Olamni aniq-ravshan qilib bundan ortiq tarkiblab bo'lmas. Unda Abu Homidning o'zi qaysi olamga mansub edi? Albatta Iloh olamiga-da. Chunki uning o'zi, toza ruhli kishilar Iloh olamiga mansubdir, deguvchi edi. Zero ular Ilohdan yaralganlar va unga qaytadilar. Xayyomning bag'ri hapqirdi, sog'inch ila ho'rsinib qo'ydi.

U o'ng yoqqa qayrilib, rasadxonaning orqa tomoniga yurdi. U yer tog'ning poyi, ayni damda liboslarini butkul yechgan qip-yalang'och og'ochzor. Og'ochzor ichra Maryam ikkisi yaxshi ko'rgan va bo'yida nechalab visol onlarini o'tkazgan buloq ham bor. Maryamni eslab, Xayyomning qalbida uyat hissi paydo bo'lib, o'zini aybdorday tuydi. Men uni baxtsiz qildim, deya o'yladi u yuragi o'rtanib. Axir u go'zal bir taqdirga loyiq edi va uni, ya'ni shoirni jonu jahonu ila yaxshi ko'rardi, ehtimol hozir ham sevar. Ammo buning devona ko'ngliga er-xotinlik mojarosi deymizmi, kishanlarimi, aslo sig'masdi. Shuning uchun ham Maryamni ikki hissa baxtsiz qilmoqni istamadi. Hozir Maryamning yoshi ulg'aygan, padaridan ayrilmoq iztirobi, Vatan sog'inchi va yillar solgan izlar tufayli yuzi salqigan, hattoki sochlariga bir-ikkita oq ham oralagan edi. Mana, o'sha qadrdon buloq, qishda ham to'xtamay, iliqqina bo'lib oqib yotibdi. Ammo bu yer ancha sovuq, izg'irin yelib turguvchi edi. Shunday bo'lsa-da, shoir toshga o'tirdi... Ha, go'zal Maryam ancha ulg'aydi. Uning ko'ziga ko'zi tushganda har safar Xayyomning yurak-bag'ri ezilib ketadi. Shul boismi, Nishopurni ixtiyor etganidayoq Maryamni o'zi bilan birga olib ketmoqchi bo'ldi. Biroq fursat yetib, bu niyatini Maryamga aytganida, u rad etdi. Ko'zlari jiqqa yoshga to'lib, padarining qabri shu yerdaligini, uni yolg'iz tashlab ketolmasligini bildirdi. Shundan so'ng shoir shahardagi hovlisini Maryam ila hozirda o'sha yerda yashayotgan kanizagi Parmudaga in'om qildi. Filhaqiqat, u Isfahonda kechgan yillarida ko'plab yaxshi odamlarga oshno bo'ldi. Suyukli Maryamning otasi donishmand Artur, sohibi g'ayb pir Adam Shayx, sadoqatli xizmatchisi Mikroil, uning sho'rlik suyuklisi Layli, zaboni talx, vale yoqimli bo'lgan Shokir Talx, Vositiy hamda Isfazariy va ayniqsa, devona dil qariya Yusuf Rindoniy, ehhe-e, bularning har birlari o'zi bir olam insonlardir. Agar ular bo'lmaganlarida Umar Xayyom otlig' shuhratli shoir va olim ham bo'lmasligi ayon edi. Maan endi bu aziz do'stlari ila vidolashuv onlari ham yaqinlashmoqda. Endi u Isfahonni butunlay tark etadi.

Xayyom xayolchan nigohini rasadxona devorlariga tikdi. Ana, rasadxonaning baland va haybatli minorasi, ulug'vor gumbazlari ham endi munglig'day ko'rinadilar. Balki ular ham shoirning ketayotganligini sezganliklari bois shundayin turarlar. Dong'i uzoqlarga ketgan "Faxriy sudsi"ning toqi ham gumbazlar ila bo'yilashgudek. Ehhe-e, bu inshootni qanchalar zavqu shavq ila bunyod etgandilar va bu atrofdagi unga qiyosli sudsi ham qurilmaganidan faxru iftixorga to'lgandilar. Bularning bariga Xayyom bosh-qosh bo'lgandi. Hatto sulton Malikshoh ham bu sudsi ko'rib, o'z hayratu iftixorini yashirolmagandi va ahli rasadxonaga ko'plab in'omlar bergandi. Ul baxtiyor damlar shamolday o'tdi-ketdi. Vaziri a'zamu sulton Malikshoh ham qaro yerga ketdilar, buyuk mamlakat esa torojga mahkum bo'ldi. Azim boshkent rasadxona ham bag'rida qancha odam bo'lmasin butkul huvillab qolganday. Ulug' insonlarning qazosidan so'ng ilmu ma'rifat ham yetim qoldi, tanazzulga yuz tutdi. Endi ul davru davronlar qaytadimi-yo'qmi, yolg'iz Yaratguvchiga ayon.

Xayyom bu odamlar ichra yashab, ilm izlab, taqi bir mangu haqiqatni anglab yetdi. Ya'ni avvaliga nasroniy bo'lgan o'shal rohib Artur ham, hov sahrodagi vayrona aro hayot kechirgan zardushtiy mubod ham, Islomga baxshida G'azzoliy ham yolg'iz Xudo deb, Haq deya yongan edilar. Ularning hammalari ezgulik, yaxshilik deya yashaydilar va bani odamga ham shuni sog'inadilar. Ular yaxshi odam degan nomga sazovor edilar. Lekin dinlari turfa, ellari turfa edi, har yoqdan kelardilar va har yoqqa tortardilar. Bir-birlarini tushunmoqni istaganlari hamono go'yo bir tilda so'zlay boshlardilar, murodlari ham bir ekanligi ayon bo'lardi. Demakki, Haq odamlar bir-birlariga insof qilgan, bir-birlarini ayagan joyda ekan, ya'ni oraliqda ekan. Shoir shuuriga urilgan bu fikrdan huzurlanib, o'rmidan turdi va yo'lda davom etarkan, dilidan shu so'zlar o'tdi:

-Xayr endi, qadrdon makon! Shahri azim Isfahon, alvido! Dong'i olamga doston rasadxonam, xush endi! Sening har bir

g'ishtingda, har qarich yeringda mening qalb qo'rim, ko'zlarim nuri va aziz xotiralarim bor. Xayr endi, xayr!..

U rasadxonaning hali bitib ulgurmagan binosini aylanib o'tarkan, ko'ngli battar iztirobga to'ldi. Qancha orzular, tuzilgan rejalar, ilmga oid yumushlar armon bo'ldilar endi...

Xayyom darvozadan kirib, sovuqni ham pisand etmay, rasadxona hovlisida jam turgan o'z kishilariga ro'baro' bo'ldi. Shokir Talx va uning hov o'sha hamrohi ham shu yerda edilar. Ular birin-ketin shoir ila salomlashdilar.

-Karvon erta tongda yo'lga chiqarkan, ustoz. dedi Isfazariy xomush.

Barcha ayriliq onining yaqinlashayotganligidan alamda edi.

-Kim aytdi buni?-deya so'radi shoir beixtiyor.

Ahli rasadxona birvarakay o'rtada turgan yigitga ishora qildi. Filhaqiqat, orada bir begona odam bor edi. U Xayyomga yovuq kelib, tavoze ila bag'oyat samimiy ko'rishdi. Shoir unga bir muddat tikilib qoldi. Uning bu holatini ko'rib, yigit yoqimli jilmaydi.

-Hazratim kingadir o'xshatdilar, chog'i?

-Ha-ha, chehrangiz tanishdek ko'rinadur.-dedi Xayyom hamon undan ko'zlarini olmay.

-Yanglishmadingiz, hazrat. Kamina sizni Isfahonga olib kelgan va siz o'limdan saqlab qolgan karvon xojasining o'g'lidurmen.

-Yo falak!-deb yubordi shoir ehtiros ila,-Ko'zlarangiz bag'oyat tanish ko'rindi. Otangizga juda-juda o'xshar ekansiz, inim. Qalay, padaringiz omonmi?

Yigit g'amgin tortdi.

-Otam qazo qilganlar.-dedi so'ng xazin ovozda.

-Olloh rahmat qilsin. -Xayyom yuziga fotiha tortdi. -Qachon?

-Uch yil bo'ldi. Sahroda sherlar hamlasiga ro'baro' kelib...

-He, attang!.. -Shoir ne deyishini bilmay, jim qoldi.

-Otam siz haqingizda juda ko'p gapirardilar. Shul bois sizning Nishopurga ketayotganingizni eshitib, bu tomon yeldim.

Xizmatigingizda bo'lib, duoingizni olsam deya orzulaymen, hazrat.

-Olloh rozi bo'lsin, inim.-Xayyom qirg to'rt yoshda edi, ammo ayni damda uning yuzi, so'zlari nihoyatda ulug'vorlik kasb etgandi.

Endi u o'ziga o'kinchli termulayotgan do'stlari tomon qayrildi. Hademay kech kiradi va juda tez fursatda tong otadi. Shu bilan shoirning Isfahondagi safari qariydi. U Isfahonda topgan barcha do'stlarini qattiq quchib, xayrlashadi. Ehtimol ko'z yoshlar ham bo'lar, Xayyom shunisiga chidolmaydi. Keyin uni karvon ila Nishopurga uzatib qolishadi. Yaxshiki, Rind uning ila ketmoqqa ahd qildi, har tugul do'stlarning tafti unga hamroh bo'ladi-ku. Ammo Rind ancha keksayib qolgan, safar riyozatlariga bardosh qila olarmikin?

Bir zamon indamaygina turgan Shokir Talx tilga kirib qoldi:

-Hazrat, uzoq yo'lda oyoqlaringiz malollantirmaguvchi etik hozirlab qo'ygan edim... - U etikni Xayyomga uzatdi.-Oyoqlaringiz mudom yelkamda qolsin, dedim-da.- U hazil ila xazinli jilmaydi.

Shoir mutaassir bo'ldi.

-Mendayin vafosiz bir do'st uchun bunchalar zahmat ne darkor, ayo Talx?!-dedi ko'zlari yoshlanguday boqib.

-Agar Isfahonda qolsangiz har kuni bir etik tikib bermoqqa tayyormen!-deya lutf qildi so'zamol kosib o'rtanib.

Ular quchoqlashdilar.

Karvonboshining xizmatchilariga korfarmo bosh bo'lib, Xayyomning hozirlab qo'ygan yuklarini ikki tuya va bir otga yuklashib, olib ketishdi. Huvillagan, ship-shiydon oshyonada shoirning tanho o'zi qoldi. Tashqaridan nay ovozi eshitildi-Rind munglig' bir kuy chalardi.

Shoir sarxush yanglig' kuy ohangiga hamohang tarzda tebranib, ko'zlarini yumdi. Xayolan Isfahonda kechgan kunlarini o'zicha sarhisob qila boshladi: bu makonda anchayin barakatli yumushlarni ado etdi. Eng avvalo dunyoda qiyosi bo'lmagan, bag'oyat aniq hisob-kitobli taqvimni yaratdi. U inshoolloh, asrlar osha odamlarga xizmat qilg'ay. "Sudsi faxriy"ni barpo etdi, rasadxonani kengaytirdi. Eng asosiysi, ikkita falsafiy risolasini yozdi. Ilmi hisobga oid va handasaviy bir necha kashfiyotlar qildi. Ular ham hali ilm olamida ko'p e'tirofu sharafarga sazovor bo'lg'ay. Ustoz Uqlidusning murakkab asarlariga sharhlar yozdi va hakoza... Vanihayot ko'ngil mulki bo'lmish nazm azmida ham ko'p va xo'p sa'yalar qildi. Ammo nechukkim hali hanuz shoirlik da'vosi yo'q... Uning yuragi batarroq iztirobga to'lib, xazinlashdi. Bu xazinlik ortidan bir ta'rifsiz isyonmi va yo jo'shqinlikmi paydo bo'ldi. U o'zining hasratli ahvolidan junbushga keldi. Axir men ne ko'rgiliklarga ro'baro'ro' bo'libmanki, bu yanglig' hasratga botsam. Meni qay tojdor quvg'in qildi, zindonband etdi va yo jonimni so'rab turibdi axir? G'aznali Mahmud Beruniyini zindonga bandi etib, qay ahvolda tutmish, Ibn Sino ne quvg'inlarni ko'rmish? Ammo ularning ilm bobidagi zahmatlari mislsiz-ku! Men ne ko'ribmen?! Bor-yo'g'i bir qadrdon makonni-yu do'stlarimni tark etmoqdamen xolos. Bundayin ojizu notavon ko'ya qolmoq er kishiga yarashiqlimi axir?!..

Xayyom kechqurun ham allamahalgacha turfa o'ylar girdobida o'ltirdi. Endi u o'zida ruhiy bir yaxlitlik kasb etgan edi, ya'ni vaqti kelganda ikki yoxud uch odamga aylanib qolmasdi. Shundanmi, butun borlig'idan ruhiy halovat, tavakkul ufurib turardi. Hozirga kelib, shuuri shu qadar tiniqlashdiki, jumla nimarsalar xuddi ko'zgdagidek unda aks etardi. U doimgidek dunyo va odam haqida fikr etarkan, taqi bir muhim haqiqatni kash'f etdi: odam hayvon va farishta o'rtasidagi mahluqdir, ya'ni oraliqdadir. U hayvonga ham, farishtaga ham aylanishi mumkin, biroq uning joyi o'sha oraliqda, odamlkida. Odamning yozig'i odamlk ekan, shu maqomda sobit qolmog'i Azal va Abad hukmiga munosibdir... Xayyomning miyig'ida kinoyali tabassum jilva qildi. O'zini donishmand sanab, falsafa so'qiy boshlagani uning kulgisini qistatdi. Bu dunyoning sirini kim ham oxirigacha anglabdiki, sen oshkor etolsang yo Abul Fath Umar! So'ng shuurida satrlar aylandi:

Masjidu butxona, Ka'bada yohu,

Jannatdan umidu, do'zaxdan qo'rquv.

Faqat dunyo sirin anglagan qalbdan

Abadiy quvilmish bu tashvish, qayg'u.

Xayyom xonada dimiqdi, tashqariga chiqqisi keldi. Tog'dan esguvchi tungi izg'irin badanni junjiktirardi. Ammo havo nihoyatda musaffo ediki, chuqurroq nafas olinsa, bo'g'izlar achishib ketardi. Shoir so'lga qayrilib, minora tomon yurdi. Qishning tiniq va yulduzli osmoni uni o'ziga chorladi, chog'i. Minora tarafga burilarkan, xontaxta ustidagi qog'ozlar va usturlub atrofida

This is not registered version of TotalDocConverter

uyinmasayotgan, to'rt yulduzning ko'zlarini o'zining harakatlaridan zavqlana-zavqlana minoraga ko'tarildi. Minora darichasiga yetganda avvaliga osmonga boshi tegib qolayotgandek tuyuldi go'yo. Bag'rini to'latib nafas oldi. Izz'irin burni-yu ko'zlarini achishtirdi. U esa bunga parvo qilmay osmonga intiq tikildi. Bunchalar charaqlamasa bu yulduzlar. Ana "Banat an-na'sh" (Katta Ayiq yulduzlar turkumi), ya'ni "Tobut qizlari" shu'la tushgan ko'z yoshi tomchisi singari yoqimli jimirlaydi. Eng yorqin yulduzlar bular. Yana shoirming ko'nglida evrilish paydo bo'ldi. Ayo, yulduzlar, yulduzlar! Siz hamisha oshkorasiz. Dilingizu tilingiz bir, dilingizdagi tilingizda aks etadi. Sizda munofiqlik, riyo yo'q. Ehtimol shuning uchun ham sizni sevarlar va o'z taqdirini sizga bog'larlar!.. Ammo odamlar esa!.. Ular Rahmondan so'zlab, Shaytonning yumushini qiladilar, mehr-shafqatlar urib, qon ichadilar, ko'zlarini turfa ziyolar haqida hikoyatlar to'qiydilar. Men odamizotning fe'lini aslo tushunolmadim va balki tushunolmasman ham. O', Odam! Odam-a! Yovuzligu ezgulik, yaxshiligu yomonlik, savobu gunoh xususida senchalik mo'l ahkomlar to'qigan mavjudot bo'lmasa kerak. Ammo hali hanuz ularni o'zing ham farqlay olmay halaksen. Ezgulik quyoshi balqib, uning taftida bir muddat olamni ilmu urfonga to'ldirasen. Keyin esa uzoq bir fursat jaholat tulporiga minasan-da, barcha tuzganlaringga g'orat solasen. Bu ne yoziq, bu ne fe'!?! O'zing ham bilmassen? Men ham bilmassen!..

Shoirming tilida yana she'r aylandi:  
Ko'plar donishmand deb bildilar o'zni,  
Xudoning zotidan ochdilar so'zni.  
Hech biri bilolmay azal sirlarin,  
Aljirab-valjirab yumdilar ko'zni.

Men ham o'shalarning birimen, deya xayolidan o'tkazdi Xayyom. So'ng tobora pastlab borayotgan osmonga tikilarkan, eski bir fikri taqi miyasiga urildi: axir odam tushida ucha oladi. Baland-baland uchib, koinotni qucha oladi. Nahotki bu baxt uning o'ngida imkonli emas? Nahotki?!..

Shu payt quyidan Isfazariyning xitobi eshitildi:

-Ustoz!.. Ustoz, qanisiz? Ko'rdim!.. Ko'rdim yana o'shal nurni!..

Xayyom bilinar-bilinmas jilmaydi. Odam ucha oladi, degan gap o'tdi yana xayolidan va oldidagi daricha kengaygandek bo'ldi. U o'ng oyog'ini oldinga bosdi, keyin so'l oyog'ini... Xayyom go'yo zinadan ko'tarilayotgan yanglig' muallaq holda yuksalib, koinot bag'riga singib borardi. Hademay u ham falak toqida miltiray boshlaydi. Ishtiboh shulki-unga bani basharning nigohi yetadimi-yo'qmi, shuuri uni angalay oladimi-yo'qmi, noma'lum. Yanaki bu yulduz-sayyora ichra nihon bo'lgan borliq vujudiyat Rahmoniymi yoxud Shaytoniy-bunga ajr berguvchi ham yolg'iz Olloh taboraka taolodur...

Intiho

-Men bularning barchasi ila birgaman, - deya so'zini tugatdi nuroniy zot va g'oyib bo'ldi.

U esa mudom yo'l boshida turar va nigohi har tomonda tentirardi. Yo'llar juda ko'p edi. Birining avvalida masjid, birida cherkov, boshqasida kaliso qad rostlagandi. Yo'llar bag'oyat uzun edi, adog'i ko'rinmasdi. Lekin barchalarining nurli bir manzilda tutashganligini ilg'ash mumkin edi. Ha, ul manzilning shamshirdek tig'li ziyolari koinotning har burji tomon taralardi.

-Nahotki ul manzilga yetmoq uchun bu yo'llarning hammasini bosib o'tmoq lozim bo'lsa?!-derdi u ko'zlari chaq nab. -Nahotki?!..

TAMOM

IPF. 2001-VIII. 2004

Muallifdan

Umar Xayyom haqida dunyo miqyosida juda ko'plab ilmiy va badiiy asarlar yaratilgan. Ularning mualliflari shoirmi turlicha talqin qilishgan va ko'pchiligi uni dahriy, osiy inson sifatida tasvirlashgan. Buning isboti uchun esa uning ruboiylarini asos qilib olishgan. Ayniqsa, "Hujjatul Islom" nomini olgan buyuk ilohiyotchi olim Abu Homid G'azzoliy, Umar Xayyomdek betakror shoir va olimga qarama-qarshi qo'yganliklari meni ko'p iztirobga solardi. Bu ikki zotning adovatga borib, mayda-chuyda narsalarga o'rallashib qolganliklariga mutlaqo ishongim kelmasdi.

Ushbu mashqimdagi mening asosiy "yangiligim"-Xayyom ila G'azzoliyni do'stlashtirdim, shoirming she'rlarini yangicha talqin etishga urindim. Chunki bu mening Xayyomim, mening tasavvurimdagi Xayyom! Uni qanday qabul qilish esa o'zingizga havola. Shunisi aniqki, dunyoda buyuk bir sirli oraliq mavjud. Bu oraliqni hamma ham payqayvermaydi. Umar Xayyom ana o'sha oraliqni topa olgan. U osmon va zamin oralig'ida edi. Asr va ming yillik oralig'ida edi. U xalqlar-millatlarning, dinlar va nihoyat olamlarning oralig'ida edi. Aql va Qalb oralig'ida edi.

Ammo ishonamanki, Xayyom xudobexabar dahriy va mayparast bo'lmagan (ma'lum muddat ichganligi esa haqiqatga yaqin). U Xudoga yetishgan valiyulloh edi. Qolaversa, u ham sizni biz kabi oddiygina inson bo'lgan va shunday yashagan. Aks holda, yoshi saksonga yetib, Xufton namozini o'qiyotib, sajda ustida omonatini topshirmasdi. Bu unga Ollohning siylovi va bizlarga esa ulug' ishorati edi.

AvvalgiIII- qismB Keyingi